

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

A.SOLIYEV, R. MAHAMADALIYEV

IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA ASOSLARI

(Oliy o'quv yurtlari geografiya fakultetlari  
talabalari uchun darslik)

TOSHKENT-2005

26.8.973 Географик фаннлар

Darslikda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining obyekti va predmeti, asosiy tushunchalari, tarixiy shakllanishi va tarkibiy tuzilishi, tabiatdan foydalanish, aholi, siyosiy geografiya hamda ushbu fanning O'zbekistonda rivojlanish xususiyatlari kabi mavzular bayon etilgan.

Kitob oliv o'quv yurilari geografiya yo'nalishidagi fakultetlari talabalariga darslik sifatida mo'ljalangan. Shuningdek, u magistrchap, aspirantchap hamda o'rta va maxsus mакtablar o'qituvchilari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

**Taqrizchilar:** - Azimov Sh.A.,

Toshkent moliya instituti dotsenti;

- SamDU iqtisodiy geografiya kafedrasи.

**Mas'ul muharrir:** prof. Ahmedov E.A.

**Muharrir:** dots. Qodirov M.

1031791  
2

20.06	Alisher Navoiy premiedpi O'zbekiston Nau	10
A 50+		

## **So'zboshi**

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va uning bozor munosabatlariiga o'tishi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ham tub o'zgarishlar bo'lishini talab etadi. Bu borada mazkur fanga tegishli asosiy ilmiy g'oya va tushunchalar, qonuniyatlar yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil etilishi, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy tashkil qilish va ularni davlat tomonidan tartibga solib borish sohasida erishilgan ijobjiy tajribalardan samarali foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan iqtisodiy geografiyada, odatdagidek, faqat xaritani yoki cheksiz raqamlarni yodlab olish kifoya qilmaydi. Aksincha, ushbu fanga oid hududiy qonuniyatlarini, hodisa va voqealarning sabab-oqibatini aniqlash, baholash va ularni bashorat etish jamiyatimiz rivojlanishida faol qatnashish, unda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lish muhimdir.

Iqtisodiyotning rivojlanishi faqat vaqt, ma'lum davrdagina sodir bo'libgina qolmay, shu bilan birga, u muayyan hududda ham o'z ifodosini topadi. Ayni vaqtida geografiyaning ajoyib va betakror, o'ziga xos fazilatlari uning tadqiqot ob'ekti va tahlil qamroving kengayib borishiga olib kelmoqda. An'anaviy iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi, u esa, o'z navbatida, yanada mukammalroq ijtimoiy yoki inson, sotsial geografiya maqomini olmoqda. Bu o'rinda sotsial geografiyaning keng va tor (maxsus) ma'noga ega ekanligini ta'kidlamoq joiz. Tor ma'nodagi ijtimoiy geografiya yoki sotsial geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning uzviy bir qismi, keng ma'noda esa uning o'zginasidir. Masalaga bunday yondoshish, shubhasiz, fanning ichki rivojlanish qonuniyatlariga, integratsion salohiyatiga mos keladi va jahon andozalariga muvofiq bo' ladi.

Biroq geografik obyektning kengligi ayni paytda uning chuqur o'rganilishi va tahlil etilishini talab etadi; komplekslik tamoyili maqsad va vazifa doirasidagi ma'lum bir hodisa yoki vogelik atrofida amalga oshirilishi zarur. Aks holda geografiya faniga aloqador kamchilik yuz beradi, o'rganish darajasi past, quruq va sayoz bo'lib qoladi. Bunday illatlardan xoli bo'lish hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasining muhim vazifasidir.

Milliy iqtisodiy havfsizligini mustahkamlash mamlakatimiz ichki va tashqi (xalqaro) siyosatini, jahon hamjamiatida tutgan o'rnini mukammal bilishni taqozo etadi. Bu esa faqatgina mutaxassis geograflar

uchungina emas, balki barcha barkamol shaxslar uchun ham zarurdir. Zero, geografiyaning bundan tashqari axboriy, axloqiy, tarbiyaviy, madaniy-ma'sifiy, jihatlari ham mavjud. Vatanni sevmoq naqadar ulug' bo'lsa, uni bilish, e'zozlamoq ham shuncha ulug'dir, chunki bilmasdan, o'zimizni (o'zligimizni) anglamasdan turib Vatanni sevib bo'lmaydi.

Qadimiy va hamisha ravnaqda bo'lib kelgan geografiya fani o'z o'rnnini va ahamiyatini kengaytirib bormoqda. Jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga doir muammolar O'zbekiston Milliy universitetining iqtisodiyot, falsafa, tarix jurnalistika fakultetlarida, Toshkent Davlat pedagogika universiteti hamda respublika viloyatlardagi ko'pgina universitetlarning barcha fakultetlarida o'qitilmoqda.

Ushbu darslikda hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasiga tegishli asosiy masalalar (mavzular) qisqacha, oliv o'quv yurtlari talabalari hamda o'rta maktab o'qituvchilariga mo'ljallangan holda bayon etilgan. U o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra "Iqtisodiy geografiyaga kirish" vazifasini bajaradi. O'quv jarayonining keyingi bosqichlarida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga doir maxsus fanlar o'qiladi va eng so'nggi yarim yillikda (IV kursda) mazkur fan yanada umumlashtiriladi va unga tegishli asosiy muamolar o'rganiladi. Demak, "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari" va "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy muammolari" ushbu yo'nalishning oliv o'quv yurtidagi muqaddimasi va xotimasi bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslарини o'рганиш талабалардан бoshqa fanlar, xususan, tabiiy geografiyaga oid bilimlarni mukammal bilishni ham talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, geografik bilimlarning yaxlitligini, o'zaro aloqadorligini mustahkamlaydi.

## IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA ASOSIY TAMOYILLARI

Reja

1. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanib borishi va uning nomining o'zgarishi.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta'rifi.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyillari.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot usullari.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar faqat vaqt (davr) davomida kechmaydi, ular ayni paytda muayyan joyda-makonda ham sodir bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning ana shu hududiy jihatlari geografiya fanining tadqiqot doirasiga kiradi.

Biroq jamiyat rivoji bilan uni o'rganuvchi fanlarning tadqiqot obyekti ham murakkablashib va takomillashib boradi. Bu tabiiy va o'z-o'zicha qonuniy holdir. Jumladan, iqtisodiy geografiyaning obyekti avvallari ma'lum bir mamlakat yoki rayonning xo'jalik va aholisi ishlab chiqarish kuchlarining joylanishidan iborat bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u xo'jalik va aholining hududiy tarkibi yoki tizimi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar (komplekslar) shaklini oldi. Shunga muvofiq ushbu fanning vazifasi ham o'zgarib bordi. Chunonchi, ilgari asosiy e'tibor qayerda nima borligini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda esa nima uchun u yoki bu voqelik aynan shu joyda vujudga kelganligini ilmiy asosda izohlab va baholab berilishi talab etiladi. Bunday qonuniyatlarni chuqur anglash fanning amaliy (konstruktiv) ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, u endi turli yiriklikdagи hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tahtilidan ularning tashhisiga, undan esa bashorat va boshqarish darajasiga ko'tariladi.

Demak, jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanishidagi jarayonlar iqtisodiy geografiya obyektining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shunga mos ravishda bu fanning tadqiqot predmeti va vazifalari ham takomillashib boradi. Ayni paytda bunday evolyutsion jarayonlar fan nomini zamon talahiga muvofiqlashuviga olib keladi. Binobarin, an'anaviy iqtisodiy geografiya asta-sekin iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga, u esa, o'z navbatida, yanada murakkabroq shaklg-iijtimoiy geografiyaga aylanmoqdaki, bu ushbu fanni jahon miqyosidagi andazalarga moslashtiriladi.

Aytish joizki, mazkur fanning muayyan bir barqaror, barchani qanoatlantiruvchi ta'rifni mavjud emas. Bunga sahab-geografiya fanining keng qamrovligi, obyekt va nomining davr mobaynida o'zgarib turishi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga iqtisodiy geografiya ta'riflarining ko'pchiligidagi ishlab chiqarish kuchlari, ularning joylanish xususiyatlari ta'kidlanadi. Bular ushbu fanning o'zak tushunchasiga, aksiomasisiga aylanib qolgan. Albatta, bu bejiz emas, chunki iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy geografiyaning mohiyatini esa ularning joylashuv xususiyatlari belgilab beradi. Qolaversa, rivojlanish faqat aniq bir joyda, makonda amalga oshadi, shu bois, joylanish rivojlanishning hududiy in'ikosidir.

Masalaga bunday yondoshuv nazarimizda, iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'iqliq. Ma'lumki, ishlab chiqarish ta'moqlarini joylashtirish muammolari dastavval Yevropada, xususan, Germaniyada nemis olimlari I.Tyunen, A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller va boshqalar tomonidan amaliyotda ko'rib chiqilgan. Biroq ular o'zlarining joylashtirilish (shtandort) g'oyalarning natijasini "iqtisodiy geografiya" deb ta'riflashmagan.

O'yaymizki, hozirgi kunda ham fanning ta'rifida "ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi" iborasini qoldirish kerak, zero har qanday joylashtirish muayyan bir hududda amalga oshiriladi. Ammo fanimizning bugungi predmeti uchun bu kifoya qilmaydi. Sababi-u endi iqtisodiygina emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy geografiya maqomini olmoqda. Shu vajdan, bunday ta'rif fanning nomi bilan mazmunini to'la aks ettirmaydi.

To'g'ri, "ishlab chiqarish kuchlari" eng avvalo uning sub'yekti, egasi bo'lgan aholini ham o'z ichiga oladi. Lekin bu yerda aholi asosan ishchi kuchi mazmunida, ya'ni iqtisodiy kategoriya shaklida nazarda tutiladi. Inson, uning ijtimoiy hayoti, sotsial muhitdagi o'zaro munosabatlari esa bu ibora qamrovidan chetda qoladi. Busiz fan ilgaridek iqtisodiy, ishlab chiqarish geografiyasini bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta'rifini taxminan shunday berish mumkin: Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot-faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi. Qisqaqa qilib esa ijtimoiy geografiyanı jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish to'g'risidagi fan deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi. Shubhasiz, keltirilgan ta'rif ham mutlaq aniglikka da'vogar emas. Ammo shu bilan birga aminmizki, u iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarini o'z

doirasiga olgan holda, fanning tub mohiyatini o'zida aks ettiradi va uni to'la ifodalab beradi.

Berilgan ta'rifning ega va kesimi, aniqlovchisi va to'ldiruvchisi, ya'ni birinchi va ikkinchi darajali bo'laklari mavjud. Chunonchi, agar ushbu ta'rifdan gapning egasi-"turli mamlakat yoki rayon", "hudud" tushunchalari olib tashlansa, u holda geografiyaga o'rinn qolmaydi. Demak, aynan ana shu iboralar ushbu ta'rifning geografiyaga taalluqligidan dalolat beradi.

Xuddi shunday "xususiyat" (kesim) so'zi ham geografiya uchun o'ta muhimdir. Chunki fanning asosiy va pirovard maqsadi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, inson hayoti tarzining turli rayonlaridagi o'ziga xos va betakror xususiyatini ochib berishdan iboratdir (tarixda ham xuddi shunday-jamiyat taraqqiyotidagi turli davrlar xususiyati aniqlanmasa, ushbu fan o'z mohiyatini yo'qotadi). Zero, hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo'lmasligi kerak. Agar hamma joy bir rangda tekis, bir xil darajada bo'lganda edi, geografiyaning ham, qolaversa, jamiyat rivojlanishining ham o'zi bo'lmas edi.

Bizning ta'rifimiz kengayib ketmasligi, mumkin qadar qisqaroq bo'lishi uchun unga majmualar yoki komplekslar (tizimlar) g'oyasi kiritilmadi. Aslida esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'zi o'rganayotgan voqelikni muayyan hududda va faqat alohida-alohida emas, balki o'zaro aloqadorlikda, ya'ni malum bir hududiy tizimlar doirasida ko'radi.

Shu bois yuqorida berilgan ta'rifni yanada mukammallashtirilsa bo'ladi, ya'ni: "iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ishlab chiqarish kuchlarini turli mamlakat yoki rayonlarda rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar yoki majmualar doirasida o'rganadi", deb ifodalash mumkin.

Albatta, har qanday fanning predmeti, ta'ifi uning asosiy tamoyillarini o'zida aks ettirishi shart. Chunki o'zining metodologiyasi va metodi, tadqiqot predmeti va prinsiplariga ega bo'lmagan fan mustaqil fan hisoblana olmaydi.

Xo'sh, geografiya va, shu jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining bosh tamoyillari nimalardan iborat? Fikrimizcha, bu yerda turli darajadagi asoslar mavjud, ularning ayrimlari faqat shu fanga tegishli bo'lsa, qolgantari umummilmiy, falsafiy ahamiyatga ega.

Shubhasiz, geografiya fanining eng birinchi tamoyili uning hududiyligidir. Zero, geografiyanı hududiy munosabatlarsız, makon tushunchasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo, shu bilan birga, hududga o'ziga xos borliq sifatida turlicha yondoshiladi. Masalan, muhandislik

(yersozlik) handa rayon planirovkasida ko'proq hududi tashkil etishga e'tibor beriladi. Bunda yer maydonining o'zi ma'lum maqsadlar uchun tayyorlanadi. Jumladan, uni barcha infrastruktura shaxobchalari bilan jihozlangan holda tadbirkorlar uchun ijaraq berish yoki sotish mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada an'anaviy tarzda "hududiy tashkil etish" iborasi qo'llanilib, u, odatda, mazmun va shakllari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga yaqinroq turadi. Shu bilan birga oddiy joylashtirishdan farq qilib, ishlab chiqarishni, aholi yoki xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etish ayni paytda uni muayyan maqsadga yo'naltirilishi va, eng muhimmi, boshqarilishini ham o'z ichiga oladiki, bu ushbu tushunchaning ilmiyoq va amaliyoqligidan darak beradi. Bu yerda tizim (sistema) qoidasiga muvofiq ma'lum bir voqelikni tashkil etish avvalambor uni boshqarish niyatida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, geograflar nigohida hudud qiyofasi o'zining barcha mavjudoti bilan gavdalanadi va bir qarashda u to'la qamrab olinadi. Biroq ko'rib turilgan hududda undagi bor elementlar (yo'l, daraxt, uy, kishilar, transport va hokazo) yakka-yakka yoki aksariyat holda ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyektiغا kiruvchi barcha predmetlar turli hududiy majmua shaklini tashkil etadi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari-ekinzorlar yoki chorvachilik yaylovları, rekreatsiya manzilgohlari o'monzorlar va boshqalar areal (maydon) ko'rinishiga ega. Sanoat markazlari va aholi manzilgohlari nuqta yoki tugun, transport yo'llari, gidrografik shaxobchalar esa tasimasimon (chiziqsimon) shaklida ko'zga tashalanadi va xuddi shu tarzda xaritada tasvirlanadi. Bu o'rinda bir so'z bilan aytish mumkinki, ijtimoiy geografiya ana shu maydon, chiziq va nuqtalarning joylashuvi, ularning o'zaro va tashqi muhit bilan hududiy munosabatlarini o'rganadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning shakli sifatida hududiy ishlab chiqarish majmualari (komplekslari, sanoat tugunlari va rayonlarni) aholining bunday tashkil etish shakllariga esa turli tip yoki yirikligidagi qishloq va katta-kichik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, konurbatsiya va megapolislarni ko'rsatish o'rinci. Transportda transport tugunlari, aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasidagi maishiy kombinatlar yoki fan geografiyasidagi hududiy ilmiy tadqiqot majmualari ham ushbu sohalarning hududiy tashkil etish shakllariga kiradi.

Geografiya fanining ikkinchi bir muhim tamoyili komplekslikdir. Biroq, bu yerda kompleks ishlab chiqarishning ijtimoiy yoki hududiy tashkil etish shaklini emas, balki masalaga, fan obyekti va predmetiga yondashuv ma'nosini anglatadi. Ayni paytda, komplekslilik geografiya fani

uchun alohida usul (metod) ham emas, aksincha, u fanning asoslaridan biri bo'lib, uning o'ziga xos va tub mohiyatini ifodalaydi.

Shu bilan birga, ba'zan "kompleks geografik (yoki iqtisodiy geografik) tadqiqot" iborasi ishlataladi-ki, nazarimizda, bu ham ortiqcha yoki xatolikdir. Chunki geografik tadqiqot hamma vaqt kompleks bo'ladi, busiz u o'z mohiyatidan ajralib qoladi. Ekologik yondoshuv asosida ham komplekslik yotadi va bu uni geografik dunyoqarashga juda yaqinlashtiradi.

Kompleks qarash o'rganilayotgan obyektga atroficha yondashuv, uni aloqaderlikda ko'rishni taqozo etadi. Shu ma'noda u tizimli (sistematli) qarashga ham yaqinlashadi. Ammo bu tamoyildan to'g'ri va oqilona foydalana olish lozim. Aks holda, tadqiqot natijasi "har sohadan bir shingil", sayoz, yuzaki va quruq bo'lib, ba'zan o'zi nimani o'rganish kerakligi ham sezilmay qolinadi. Binobarin, ushbu tamoyil mohiyatini misli daraxt shaklida tasavvur qilmoq zarur: daraxt tanasi o'rganilayotgan asosiy hodisa bo'lsa, uning shoxi va shoxchalari shu muammo bilan bevosita aloqador masalalar majmuasidir. Bunda daraxt tanasi o'ta yo'g'onlashib, shox-shabbasiz va, aksincha, shoxlar kattalashib, uning tanasi ko'rinxmay qolmasligi kerak. Birinchi holda komplekslikning o'zi bo'lmaydi, ikkinchisida esa haddan tashqari masaladan chetga chiqib ketish ayondir. Masalan, bog'dorchilik geografiyasida temir yo'l transporti yoki aholining tug'ilishni chuqur o'rganish aslo talab qilinmaydi.

Xuddi shunday hududiylik tamoyilining ham nozik jihatlari mavjud. Bu yerda biz tadqiqot obyekti-hududning juda kattalashib ketmasligini nazarda tutmoqdamiz, chunki bunday holda ham tadqiqot natijasi yuzaki, "umurtqasiz" bo'lib qoladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va umuman geografiya fanida ko'proq katta hudud "kichraytirib" o'rganiladi. Endi buning aksi, kichik joyni kattalashtirib, yirik mashtabli tadqiqotlarni o'tkazish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Yaponiya, AQSh va boshqalar) tajribasi aynan shundan dalolat beradi.

Bu mamlakatlarda, bizdan farqli o'laroq, asosan mikroqtisodiyot, mikrogeografik yondashuv ustuvor turadi. Ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak-tadqiqotlar natijasi aniq, puxta va amaliy jihatdan yuqori bo'ladi. To'g'ri, tadqiqot obyekti sifatida kattaroq hududni ham olish mumkin. Lekin bunday holda hududning barcha qismini emas, aksincha, muhim muammolarni uning ayrim va turli nuqtalari misolida chuqurroq tahlil

qilish va shu negizda o'rganilayotgan obyekt va unga o'xshash joylarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, hududiylik va komplekslilik geografiya fani uchun o'ta zarur. Biroq ular o'z me'yorida bo'lishi kerak. Boshqacha qilib atyganda, ushbu yondashuvlar hamma vaqt anqlik bilan birga olib borilishi to'g'riroq bo'ladi. Professor E.B.Alayev anqliknini (konkretlikni) geografiyaning alohida tamoyili sifatida ko'rsatadi. Biz esa uni yuqoridagi ikki asosiy tamoyilning umumiy maxraji, mezoni yoki "ikki plus bir" shaklida ko'rishni istar edik. Chunki muammo qancha keng va chuqur, ma'lum bir maqsad doirasida atroflicha har tomonlama va ayni paytda aniq tahlil etilsa, uning xulosalari hanima vaqt yuqori bo'ladi.

Geografiyaning ikki asosiy tamoyili-hududiylik va komplekslilikdan so'ng tarixiylik turadi. Bu prinsip makon va zamon, zaminu-zamon birligidan kelib chiqadi. Zero, har qanday hodisa ma'lum bir vaqtida va muayyan bir joyda sodir bo'ladi. Shuning uchun geografiyaga tarixiy yondashuv kerak. Sababi, hozirgi voqelik o'z-o'zicha, bordaniga vujudga kelmagan. Mavjud voqelik qachon va qanday sharoitda paydo bo'lgan va u qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan-bularning hamunasini hozirgi borliqdan kelib chiqqan holda aniqlab olmasdan turib asosiy masalani hal etib bo'lmaydi. Faqat o'tmishni tahlil etish orqali hozirgini baholab bo'ladi, bu esa o'z navbatida kelajakni, istiqbolni ilmiy bashorat etishga yo'l ochadi.

Tarixiylik tamoyilining muhimligini N.N.Baranskiy ham ta'kidlagan. Bu olim: "Mamlakat va rayonlar iqtisodiy geografik ta'rifini shunday beringki, u oyog'i bilan yerga -geologiya, geomorfologiya va tuproqshunoslikka, tanasi bilan tarix orqali o'tishi, boshi bilan esa mafkuraga tayanishi kerak" deb uqtirgan edi. Ko'rinish turibdiki, tarixiylik iqtisodiy geografik ta'rif va tavsifning asosiy qismini tashkil etadi.

Aytish lozimki, geografiyaga tarix qanchalik kerak bo'lsa, tarix uchun ham geografiya shunchalik zarur. Biroq geografiya tarixga, tarix esa geografiyaga aylanmasin. Shu bois geografiyada tarixiy yondashuv o'tmishning barcha mayda-chuydasini emas, balki hozirgi holatning yuzaga kelishida aynan qaysi tarixiy voqealar sabab bo'lganini aniqlashi yetarlidir. Masalan, agar respublikamiz poytaxti Toshkent shahrini iqtisodiy-geografik ta'riflasmoqchi bo'lsak, uning ilk vujudga kelganidan keyin, so'nggi muhim tarixiy voqealar inobatga olinsa kifoya. Ular: o'tgan asrning ikkinchi yarmida (1865-y) Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va Toshkent Turkiston general gubernatorligining poytaxti vazifasini bajarishi, 1917-yil sotsialistik inqilob yili, 1924-yil

O'rta Osiyo respublikalarining tashkil etilishi, 1930-yil O'zbekiston Respublikasi poytaxtining Samarcanddan Toshkentga ko'chirilishi, Ikkinchı jahon urushi yillari, 1966-yil Toshkent yer qimirlashi, va, niyoyat, 1991-yil O'zbekistonning mustaqillikka erishgan yili, Toshkentning mustaqil davlat poytaxtiga aylanishi. Ana shu burilish yoki tarixiy voqealar bugungi Toshkentga, uning hududi, xo'jaligi va aholisi, shahar qurilishiga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazgan, iz qoldirgan. Qolgan oraliq voqealar esa bizga ayni paytda uncha zarur emas. Binobarin, ularni tarix fani uchun qoldirish kerak.

Geografiyada tarixiylik tamoyili tarixiy geografiyaning o'rnnini olmasligi lozim. Bu yerda tarixiy yondashuv o'rganiyatotgan hodisaning o'tmishiga qisqacha "safar qilinishini" anglatadi, tarixiy geografiya esa o'tmishning alohida pog'onalarida tabiat va, xususan, xo'jalik tarmoqlari, aholi va boshqalar qay darajada rivojlangan va qanday joylashgan kabi masalalarni tahlil etadi va ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Shu bilan birga, tarixiylik geografiyaning tarixi ham emas. Chunki geografiyaning tarixi deganda so'z ko'proq geografik kashfiyotlar to'g'risida boradi.

Shunday qilib, tarixiylik tamoyili, tarixiy geografiya va geografiya tarixidan farq qiladi, u bu yerda qo'yilgan maqsadga to'laroq qanday erishish asoslaridan birini ifodalaydi, o'tmishga bugungi kun nuqtai nazardan emas, balki unga o'sha davr va muhitdan kelib chiqqan holda baho berish, mavjud-voqelikka tarixiy qarashni talab etadi.

Aslini olganda, tarixsiz geografiya (geografiyasiz tarix) bo'lmaydi. Demak, ular bir-birlarini to'ldiradi. Ammo ularga alohida-alohida qarash ham noto'g'ridir. Chunonchi, nemis olimi A.Gettner geografiyada tarixiylikni inkor etgan, u xronologiyani rad etib, xorologiyani tan olgan. Bu jihatdan u nemis olimi, faylasuf I.Kant g'oyalariga asoslangan. Albatta, bunday bir tomonlamalik ham nojoizdir. Hatto an'ana bo'lib qolgan "ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi" iborasi ham bu ikkilikning chambarchas bog'liqligini bildiradi. Bu yerda agar rivojlanish tarix bo'lsa, joylanish geografiya demadir. Har qanday rivojlanish ma'lum bir hudud doirasida amalga oshadi, joylashuv esa rivojlanishning hududdagi aksidan boshqa narsa emas.

Geografiya fanining tamoyillaridan yana biri ekologik yondoshuvdir. Ekologiya o'zinig' tub mohiyatiga ko'ra organizmlarning ichki o'zaro va tashqi muhit bilan aloqadorligini anglatadi. U bu jihatdan geografik dunyoqarashning mazmuniga ham ancha mos keladi. Sababi, geografiyada barcha voqealar va hodisalar o'zaro hamda tashqi muhit bilan hududiy munosabatda ko'rildi. Shu bois, ekoliyiya ma'lum ma'noda

geografiyaga juda yaqindir. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi olimlar bu ikki tushunchani ma'nodosh sifatida ishlatganlar. Masalan, chikagolik X.Berrouz "Inson ekologiyasi yoxud geografiya" nomli maqolasini (1923-y) yozgan edi. Bu yerda geografiyadagi komplekslilik tamoyili ekologik dunyoqarashga o'xshab ketadi. Har ikkisida ham o'zaro uyg'unlikda qarash, mushohada yuritish talab etiladi.

Ekologik tamoyil, ayniqsa, ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari, xususan, mujassamlashuv bilan uyg'unlashib ketadi. Masalan, qancha ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lsa (korxona yirik yoki korxonalar majmui bir joyda ko'p bo'lsa), ekologik vaziyat, odatda, buning aksi bo'ladi. Demak, bu yerda "rivojlangan" degan tushuncha ko'p hollarda ekologik nosog'lom ma'nosi bilan yonma-yon turadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning yana bir prinsipi demotsentrizm yoki antropotsentrizmdir. Chunki, barcha hududiy iqtisodiy munosabatlars asosida eng avvalo inson-moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi va ayni paytda ularning istemolchisi turadi. Qolaversa, tarix, jamiyat tarixi ham insonsiz bo'lmaydi. Bundan tashqari dastavval sof tabiiy ma'noga ega bo'lgan ekologiya tushunchasi ham industriyalashtirish va uqbanizatsiya tufayli sotsial va inson ekologiyasiga aylanmoqda.

N.N.Baranskiy insonsiz geografiyaga bor vujudi bilan qarshi va "Insonni unutibsiz!" deb xitob qilar edi. Chindan ham ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining markazida inson turishi kerak. Biroq, inson avvalgidek, faqat ishlab chiqaruvchi bo'lmay, balki u o'z nomi bilan Hazrati Insondir. Shuning uchun iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada inson tabiat, biogeografiyasi, yashash tarzi, urf-odati kabi sof ijtimoiy masalalarning hududiy jihatlari ham o'rganilishi lozim.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, ilmiy-texnika taraqqiyoti va boshqalarda inson omili, uning talab va ehtiyoji, dunyoqarashi muhim o'rinn tutadi. Shu nuqtai nazardan, demotsentrik tamoyil ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda e'tiborga olinishi bilan bir qatorda, insonning o'zi ham o'rganilishi ahamiyatdan xoli emas. Chunonchi, uning dam olishi, davolanishga o'xshash hevosita ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida yotgan va kishi yashashi, tafakkuri bilan bog'liq barcha masalalar sotsiologiya, etnologiya, psixologiya fanlari qirrasida tadqiq etilishi kerak.

Shunday qilib, hududiylik, komplekslilik, tarixiylik, ekologiya hamda demotsentrik yondashuvlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning birligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu asosiy prinsiplar alohida-alohida

emas, balki birgalikda kuchli, ta'sirchan bo'ladi. Ular ushbu fanni ijimoiylashtirish, siyosiyalashtirish, iqtisodiyalashtirish va mahalliyalashtirish kabi yo`nalishlar yordamida amaliyatga tatbiq etilsa, u yanada samaraliroq natijalar beradi.

Geografiya fanining yana bir ajoyib va betakror imtivozi bor. Bu ham bo`lsa, uning integratsion salohiyatining kuchliligidir. Qamrovi keng bo`lgan geografiya juda ko`p fanlar bilan "qo'shnichilik" qiladi va tutash mavqega ega. Ular jumlasiga tarix, biologiya, geologiya, sotsiologiya, demografiya, iqtisodiyot, ekologiya, psixologiya, huquqshunoslik, shaharsozlik, tibbiyot va boshqalar kiradi.

Demak, geografiya bu fanlar bilan aloqada va uning kuchi ham ana shunda. Boshqacha qilib aytganda, geograflar uchun turli fanlar qirrasiga yangi-yangi yo`nalishlar va yutuqlarga erishish imkoniyati mayjud. Chunki geografiya fani barcha fanlar tizimida qulay "geografik o'ringa" ega, u markazda (maxrajda) va shuning uchun qolgan fanlar istasa-istamasa geografiyaga to`qnashadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya boshqa geografik fanlar va, eng avvalo, tabiiy geografiya bilan bog'liq. Tabiiy va ijtimoiy geografiya inson va tabiat, tabiat va jamiyat juftligini aks ettirgan holda umumiy geografiyanı tashkil qiladi. Ammo ular orasida farq ham yo'q emas. Chunonchi, ijtimoiy shu jumladan iqtisodiy geografiya uchun joylashuv xosdir, chunki bu fan turli iqtisodiyot sohalarning joylashuv xususiyatlarini o'rGANADI. Tabiiy geografiyada esa tabiiy komponentlarning yer yuzida joylashushi emas, balki ularning vujudga kelish qonuniyatları, tabiiy geografik jarayonlar tahlil etiladi, baholanadi va bashorat qilinadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qator kartografik fanlar bilan ham aloqada. Bu borada eng avvalo uning tarix, iqtisodiyot, demografiya, statistika, etnologiya, tibbiyot va boshqalar bilan aloqalarini ta'kidlash joiz. Fanimiz ushbu fan tarmoqlarining yondashuv va materiallaridan foydalanadi va, shu bilan birga, mazkur fanlar qirrasida yangi yo`nalishdag'i fanlar (mintaqaviy iqtisodiyot, demogeografiya yoki geodemografiya, geosiyosat, geopsixologiya, nozogeografiya va h.k.) shakllanadi. Bu esa geografiya fanining integratsion salohiyati, tadqiqot ob'ekti va qamrovining kengligidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hodisa va voqeqliarni o'z tadqiqot doirasida o'rGANAR EKAN, u muayyan usul (metod)-lardan foydalanadi. Ular kartografik, geografik taqqoslash, statistik, tarixiy, kuzatuv, modellashtirish va boshqalardir.

Ma'lumki, geografik fikrlashni hududsiz va uni xaritada tasvirlashsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin, xaritani geografiyaning "tili" ham deyishadi. Qolaversa, geografik bilimning chegerasi aynan ana shu o'rganilayotgan hodisaning hududiyligi va uni xaritaga tushira olishi bilan ifodalanadi.

Geografik taqqoslashning ham ahamiyati katta, chunki taqqoslamasdan turib o'rganilayotgan joyning xususiyati, betakrorligini aniqlab bo'lmaydi. Bu esa iqtisodiy geografiyaning asosiy predmeti, maqsadidir. Masalan, O'zbekistonning o'ziga xosligini faqat jahon hamjamiyatidagi boshqa davlatlar bilan taqqoslangan holda aniqlash mumkin, xolos.

Taqqoslash ikki umumiyligiga ko'ra o'xshash va noo xhash ob'ektlari asosida olib boriladi. Tahlil jarayonida har ikki taqqoslanayotgan obyekt bir-biridan "uzoqlashib", ularning o'zaro farqi ko'payib boraveradi va, natijada, bu ikki vogelikning o'ziga xos, individual xususiyalari yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq, ushbu metoddan foydalanishning eng muhim talabi shundaki, taqqoslash ayni vaqtida (sinxron) parallel holda (birin-ketin emas) amalga oshiriladi. Ikkinchidan, taqqoslanayotgan obyektlar ko'lamni bo'yicha mumkin qadar bir-biriga tengroq bo'lishi ma'qul. Shu bois O'zbekistonni AQSh bilan yoki Bo'ka shahrini Toshkent bilan taqqoslash unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

Modomiki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya raqam va ko'rsatkichlardan iborat ekan uning uchun strategik metod ham muhimdir. Ushbu metodda jadval va grafik diagramma, turli ko'rsatkich (indeks, koeffitsiyent, protsent, promille va b.) va guruhlash usullaridan foydalaniлади.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning, umuman geografiyaning eng asosiy xususiyati shundaki, har bir vogelik yoki jarayon albatta qayerdadir va qachondir, ya'nii muayyan makon va zamonda sodir bo'ladi. Binobarin, tarix bilan geografiya, xronologik yondashuv bilan xorologik (hududiy) yondashuv ajralmas, dialektik dunyoqarashning mukammal birligidir. Tarix tugagan joydan geografiya boshlanadi, bugungi geografiya ertangi kun uchun tarixdir, tarix esa o'tmishning geografiyasini hisoblanadi; tarixni to'g'ridan-to'g'ri ko'rib bo'lmaydi, geografini-eshitib.

Shuningdek, iqtisodiy geografik bilim va fikrlashning shakllanishida kuzzatish, anketa-so'rov, turli xil bashorat qilish usullari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunday bilim faqat "nima qayerda?" savollariga emas, balki "nimaga aynan shu joyda joylashgan?" savoliga ham javob bera olishni o'z ichiga olishi kerak.

Bundan tashqari, har qanday bilim singari iqtisodiy geografik bilim ham uch asosiy qismidan tashkil topgan. Bu ham bo'lsa, tahlil (analiz), tashhis (diagnoz) va bashorat (prognоз)-dir. Afsuski, hozirgi iqtisodiy geografiya ko'proq fakt va raqamlarni yodlab olish, miqdoriy ko'rsatkichlar yoki nomenklatur masalalar to'g'risida ma'lumot beradi, xolos, hodisa va vogeliklar o'rtaсидagi sabab-oqibat aloqadorligi, qonuniy bog'lanishlar esa ko'p hollarda e'tibordan chetda qolmoqda.

Shu o'rinda kartografik metod to'g'risida ham aytish lozimki, xaritani bilish geografiyaning asosiy maqsadi emas, balki u asosiy maqsadga erishish uchun vosita, quroq, usuldir. Qolaversa, xaritani bilish faqat geograflar uchun emas; u barcha o'zini savodli hisoblangalarga ham zarurdir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifalari, davr talabiga mos holda, iqtisodiyotning bozor munosabatlariiga o'tishi va jahon geosiyosiy tizimidagi o'zgarishlardan kelib chiqadi. Shularni e'tiborga olgan holda, talabalar iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarining joylanish va rivojlanish qonuniyatlarini, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining mustahkamlanish, uning hududiy xususiyatlari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi, uning yashash va mehnat sharoiti bilan bog'liq masalarni bilib olishlari zarur.

### Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta'rifida eng asosiy tushunchalar qaysilar?
2. Nima sababdan iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi?
3. Tarix geografiya uchun qanday xizmat qiladi?
4. Hududiylit tamoyilini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot metodlari qaysilar?
6. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasini sxematik tarzda (chizmada) tasvirlab bering.

## IQTISODIY GEOGRAFIYA FANINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA UNING ICHKI TUZILISHI

Reja

1. Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi.
2. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy bosqichlar.

3. Statistika, siyosiy geografiya va iqtisodiy geografiya.
4. Iqtisodiy geografiya fanining frontal rivojlanishi.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tarkibiy tuzilishi.

Odatda, u yoki bu fanning vujudga kelishi uchun ijtimoiy talab, ehtiyoj yoki "buyurtma" bo`lishi kerak. Bundan oldin esa shu fanga tegishli turli axboriy ma'lumotlar, obyektiv borliqdan olingan, to`plangan dastlabki bilimlar va taxminlar shakllanadi, so`ngra turli voqeliklar orasidagi sabab-oqibat munosabatlari hamda ma'lum sharoitda takrorlanib turadigan qonuniyat, aloqadorliklarni asoslash imkoniyati tug'iladi. Demak, obyektiv borliqni kuzatish, mushohada qilish, tez-tez uchraydigan voqealarni tahlil qilish negizida muayyan fanga doir bilimlar majmuasi vujudga keladi, ular asta-sekin ilmiga va fanga aylanadi.

Har qanday fan haqiqiy fan maqomiga ega bo`lishi, shakllanishi uchun o`zining obyekti, predmeti, metodi va metodologiyasi (usuli va uslubiyoti), asosiy tushuncha, kategoriya va qonuniyatlar, ilmiy mifik, markaz va yo`nalishlariga, salmoqli ilmiy asarlar, tadqiqotlarga ega bo`lishi va uning boshqa fan vakillari tomonidan tan olinishi talab etiladi. Shuningdek, mazkur fanning shakllanishida maxsus fakultet, kafedra yoki laboratoriyalarning tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy geografiya fani ham yuqorida shart-sharoitlar, obyektiv zaruriyatlar asosida vujudga kelgan va rivojlanib borgan. Dastlab "iqtisodiy geografiya" tushunchasini buyuk rus qomusiy olimi M.V.Lomonosov XVIII asrning 60-yillarda ishlatgan va uni muomalaga kiritgan ("tabiiy geografiya" tushuncha va faninig asoschisi mashhur nemis olimi A.Gumboldt hisoblanadi). Biroq, u davrda iqtisodiy geografiya fani shakllanmagan, faqat shunday atarna yoki tushuncha paydo bo`lgan edi, xolos.

Mazkur fanning aniq bir tug'ilgan yili, joyi ma'lum emas. Har holda tadqiqotlar ko`rsatishicha, u XIX asrning birinchi yarmida, asosan Germaniyada statistika va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalarini o`rganish bilan bog`liq holda vujudga kela boshlagan.

Iqtisodiy geografiya fanining shakllanish jarayoni uning asosiy tushunchalarining paydo bo`lishi va rivojlanishi bilan sodir bo`lgan. Masalan, bu fanning "poydevorini" eng avvalo hududiy mehnat taqsimoti hamda iqtisodiy rayonlashtirish ta'limatlari tashkil qildi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaning tarixini aynan ana shu ikki nazariy tushunchalar belgilaydi. Jumladan, Yu.G Saushkin aytishicha, iqtisodiy geografiya fanining tarixi-bu iqtisodiy rayonlashtirish tarixidir. Agar ana shundan

kelib chiqadigan bo`lsak, iqtisodiy geografiya fanining yaratilishida rus olimi K.I.Arsenyevning xizmatlari ham buyuk bo`lgan (u 1818-hamda 1848-yillarda Rossiyanı iqtisodiy rayonlarga ajratgan).

Umuman olganda, mazkur fanning shakllanish va rivojlanishini 3 asosiy davrga bo`lish mumkin: sovetlarga, sovet davri va mustaqillik yillari.

Birinchi davr. Iqtisodiy geografiyaga doir ma'lumot va bilimlarning shakllanishi, uning fan sifatida vujudga kelishini o'z ichiga oladi (taxminan XX asrning 20-yillarigacha).

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy geografik mazmunga ega bo`lgan ma'lumotlar o'zimizning yurtimizda ham bo`lgan. Bunday ma'lumotlar vatandoshlarimiz Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiddin Bobur, Behbudiy asarlarida bor (ammo, afsuski, bu va boshqa olimlarning geografik meroslari yaxshi o'rnatilmagan). Shu bilan birga, ko'pgina iqtisodiy geografik ma'lumotlar xitoy va arab sayyoohlarning kitoblarida ham mavjud. Ular asosan yurtimzdagi savdo, hunarmandchilik va ayniqsa bozorlar va shaharlarga katta e'tibor berishgan. Aytish lozimki, aynan ana shu shahar va bозorlar ham orqali o'lkamizning o'sha davrdagi iqtisodiy geografiyasini bilib olishgan.

Hududiy mehnat taqsimoti keng ko`lamda XIX asrda, ayniqsa kapitalizm davrining boshlanishi bilan bog'liq yirik sanoat ishlab chiqarishi hamda xalqaro savdo-sotiq va transport tizimi asosida rivojlanib bordi. Bu esa iqtisodiy makonning ichki turlanishiga va, ayni vaqtda, iqtisodiy geografik bilimlarga bo`lgan ehtiyojlarga olib keldi.

Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Yer sharida ochilmagan joy qolmadidi. Endi geotizim o'zinning berk xususiyatini oldi. Bu esa shaklanib bo`lgan jahonnig geoijtisodiy va geosiyosiy makonini mamlakat va mintaqalar doirasida chuqur o'rnanishni dolzarb qilib qo'ydi, oddiy-kuzatish va tanishishdan ilmiy tadqiqotlarga, hududiy tahlil, tashxis va bashorat qilishga o'tildi.

1749-yilda nemis G.Axenval statistika to'g'risida o'z kitobini nashr ettiradi va ushbu fanga asos soladi. Uning statistikasi mamlakat hayotiga oid barcha miqdoriy ko'rsatkichlarga (davlat chegarasi, maydoni, aholisi, armiyasi, qazilma boyliklari va h.k.) bag'ishlanganligi sababli u davlatshunoslik (state- shtat, ya'nı davlat), kameral statistika mazmuniga ega edi. Germaniya statistikasida fakt va raqamlar juda ko'p bo'lib, u eng avvalo mamlakat hayotini miqdor jihatidan tasvirlab berardi, xolos ("opisatel'naya statistika"). Shu sababdan uning tahliliy, ilmiy ahamiyatiga ko'ra axboriy tomonlari ko'proq bo`lgan.

Deyarli shu davrda ingliz iqtisodchisi U. Pettining ham statistika to`g`risidagi asari chop ettiriladi. Uning bu kitobida mamlakat siyosiy-iqtisodiy hayoti va savdo-sotiq bilan bog`liq ma'lumotlarga, ularning tahliliga hamda ayrim qonuniyatlarga e'tibor berilgan. Demak, Pett statistikasining, aniqrog'i, matematik statistikasining fanga yaqinligi ancha yuqori (uni ba`zilar "siyosiy arifmetika" deb yuritishgan).

Bizning taxminlarimizga ko`ra, nemis statistikasi keyinchalik iqtisodiy geografiyaga, ingliz statistikasi esa avvalgi siyosiy iqtisod-hozirgi iqtisodiy nazariya fanlariga asos bo`lib hizmat qilgan. Aynan nemis statistikasi ta'sirida Rossiyada ham statistika va iqtisodiy geografiya fanlari shakllangan.

Geografiya va shu jumladan iqtisodiy geografiyaning vujudga kelishida geografik determinizm yo`nalishi hamda nemis olimi F.Ratselning "Antropogeografiya" va "Siyosiy geografiya" kitoblari ham qisman sababchi bo`lgan. Ayniqsa bu borada Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog`liq tadqiqotlarning ahamiyati katta. Jumladan, I.Tyunen (1826-y.) qishloq xo`jaligi tarmoqlarini shahar atrofida halqasimon joylashtirish, A.Veber (1909-y.) sanoat korxonalarini turli omillardan kelib chiqqan holda hududiy tashkil qilinishini o`rganishgan. Keyinchalik ularning vatandoshlari V.Kristaller va A.Leshlar aholiga xizmat ko`rsatish sohalarini joylashtirish va umuman xo`jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etishni tadqiq qilishgan. A.Lesh (XX asr 40-nchi yillari) iqtisodiy landshaft yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, iqtisodiy rayonlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo`jalikni joylashtirish masalalarini chuqur va atroficha tahlil etган.

Shunday qilib, iqtisodiy geografiyaning fan maqomida shakllanishida nemis statistikasi, "shtandori" nazariyasi va siyosiy geografiyasining ahamiyati katta bo`lgan. Qolaversa, dunyoda ilk bor geografiya fakulteti va kafedralari ham aynan Germaniya oliv o`quv yurtlarida tashkil etilgan.

Ta'kidlash lozimki, Germaniyada vujudga kelgan bu ilmiy yo`nalishlar Rossiyaga ham o`z ta'sirini ko`rsatgan. Chunonchi, V.N.Tatishev (XVIII asr) va boshqa rus olimlarining tadqiqotlari asosan nemis statistikasi va geografiyasi ruhida olib borilgan. 1820-yillarda Peterburg universitetining tarix fakultetida dastlabki tashkil etilgan kafedraning nomi ham "Geografiya va statistika" deb atalgan. Bevosita iqtisodiy geografiya fani uchun esa K.I.Arsenyevning Rossiyanı iqtisodiy rayonlashtirish to`g`risidagi xizmatlari katta ahamiyatga ega bo`lgan.

Xulosa qilish mumkinki, birinchi davrda iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishiga zamin yaratilgan. Ayno aynan shu namda bu fanning rasmiy paydo bo'lishi keyinroq sodir bo'lgan. Chunonchi "Iqtisodiy geografiya" nomli ilmiy jurnal AQShda, shu nomdag'i kafedra Germaniya va Rossiyada XX asrning birinchi choragida tashkil qilingan.

Iqtisodiy geografiya fanining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini o'rganishda sobiq Ittifoq davrini ham e'tiborga olmoq zarur. Bu davrda mazkur fan asosan nemis maktablari ta'sirida, dastlab Peterburgda rivojlanib borgan. Unda sof iqtisodiy va, xususan, tarmoq hamda statistik raqamlarga ko'p ahamiyat berilganligi sababli, iqtisodiy geografiyada "tarmoq-statistika" yo'nalishi ustuvor bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, XX asrning 20-nchi yillarda iqtisodiy geografiya iqtisodiyot fanlari tizimiga kiritilgan.

Albatta, fanni faqat raqamlar bilan to'ldirish va geografiyanı faqat tarmoqlar tahlili bilan tushintirish maqsadga muvofiq emas. Binobarin, asosiy ma'lumotlari iqtisodchi bo'lgan Bernshteyn-Kogan va N.N.Baran斯基lar iqtisodiy geografiyaning hududi jihatlariga ko'proq ahamiyat berishning tarafdarlari bo'lib chiqishgan va, natijada, ular iqtisodiy geografiyada rayonlar yo'nalishini kuchaytirishgan. Demak, iqtisodiy geografiya yanada geografiylashtirilgan, rayonlar ta'rifvi va tafsifiga katta urg'u berilgan. Ehtimol, bu holat iqtisodiy geografiyanı iqtisodiyot tizimidan geografiya fanlari blokiga kiritilishiga sabab bo'lgan.

Iqtisodiy geografiya ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillardagi xo'jalikni qayta tiklash ishlarda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Shu nuqtai nazardan 20-nchi yillarda Moskvada tashkil etilgan KEPS ("Komitet po ispolzovaniyu prirodnyx resursov") va uning asosida SOPS ("Sovet po izucheniyu proizvoditel'nyx sil") ning vujudga kelishi nihoyatda muhim bo'lgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mamlakatning turli hududlarida tabiiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha ilmiy g'oya va sxemalarini yaratgan-ki, mohiyatan bu ishlar iqtisodiy geografiya fani doirasida olib horilgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasidagi "SOPS" ham boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari va 1940-yilda Toshkent Davlat universiteti-hozirgi O'zbekiston Milliy universitetida ochilgan iqtisodiy geografiya kafedrasini olimlari bilan hamkorlikda yirik hududiy-iqtisodiy tadqiqotlarni bajargan. Masalan, Farg'ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, Angren-Olmaliq, Buxoro-Navoiy, Qashqadaryo, Mirzacho'l, Quyi Amudaryo hududiy ishlab chiqarish majmualari to'g'risidagi ishlar shular

jumlasidandir. Mazkur tadqiqotlarni amalga oshirishda S.K.Ziyodullayev, V.M.Chetirkin, G.N.Cherdansev, K.N.Bedrinsev, K.I. Lapkin, V.I.Popov, Z.M.Akramov, Sh.N.Zokirov, I.I.Iskandarov kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan.

Sobiq Ittifoq davrida iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishida Moskva, Peterburg, Kiyev, Qozon, Perm, Irkutsk, Voronej, Boku, Tbilisi, Toshkent, Olma-Ota va boshqa shaharlardagi universitetlarning roli muhim bo'lgan. Ayniqsa, bu xususda, N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy, B.N.Semevskiy, O.A.Konstantinov, V.V.Pokshishevskiy, Yu.G.Saushkin, I.A. Vitver, I.M. Mayergoyz, S.B. Lavrov, B.S.Xorev, G.M.Lappo, A.T.Xrushev kabilar juda samarali xizmat qilishgan.

Iqtisodiy geografiya fanining frontal rivojlanishi, xususan, aholi bilan bog'liq tadqiqotlarning kuchayishi natijasida u rasman 1976-yildan boshlab "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" maqomini olgan.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, iqtisodiy geografiyada rayonlar (hududlar)ga ko'p ahamiyat berilishi ayrim salbiy oqibatlarga ham olib keldi. Jumladan, bu fanning tavsiflovchi xususiyatiga haddan tashqari urg'u berildi (ba'zan kichik bir tog'ning shimoliy yonbag'rini bir kishi, janubiy yonbag'rini boshqa kishi dissertatsiya mavzusi sifatida o'rgangan). Natijada, fakt va raqamlar, iqtisodiy tushuncha hamda qonuniyatlar biroz geograflar nazaridan chetda qolgan va o'ziga xos bo'shliq (vakuum) paydo bo'lgan. Aynan ana shu sharoitda mintaqaviy iqtisodiyot fani vujudga keldi-ki, uning obyekti va predmeti, qaysi fanlar tizimiga taalluqliligi hanuzgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda (ayrim yetakchi iqtisodchi va geograflar fikricha, mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy lashgan geografiya yoki geografiyalashgan iqtisodiyotdir).

Ko'rيلотган даврда иqtisodiy geografiya fanining ta'rifи ham o'zgarib, zamon talabiga moslashib borgan. Masalan, agar avval iqtisodiy geografiya turli mamlakat va rayonlar xo'jaligini, ishlab chiqarish kuchlarining joylanish xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblangan bo'lsa, keyinchalik uning predmeti hududiy ishlab chiqaruvchi majmular, jamiyatni hududiy tashkil etish va boshqarish bilan tavsiflandi.

Uchinchi, ya'ni mustaqillik davri, Sobiq Ittifoqning parchalanishi, yangi mustaqil respublikalar-suveren davlatlarning tashkil topishi iqtisodiy geografik qarashlarda ham birmuncha o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, bu borada avvalgi "Butunittifoq mehnat taqsimoti", o'ta markazlashtirilgan sotsialistik planlashtirish, yalpi mulkchilik shakllarining vujudga kelishi va ularning davlat tasarrufidan chiqarilishi, bozor munosabatlariga o'tishning ta'siri kuchli bo'ldi.

Mustaqillik davrida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitda rivojlanib kelmoqda. Eng avvalo ta'kidlash lozimki, mazkur fanning asosiyligi g'oya va tushunchalari: hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari va boshqalar ilmiy ahamiyatini hozir ham saqlab qolgan, ularga faqat "kommunistik" dunyoqarash, o'ta markazlashgan totalitar tuzimni planlashtirish prinsiplaridan xoli holda yondashuv talab etiladi.

Endi fanimizning hozirgi davrdagi tarkibiy tuzilishini ko'rib chiqaylik (1-chizmaga qarang). Bu yerda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asosan 3 blok yoki qismga ajratiladi va ularning dastlabkisi - "ona fan", albatta, iqtisodiy geografiya hisoblanadi.

Ma'lumki, tom ma'nodagi iqtisodiy geografiya tabiat bilan bevosita bog'liq tarmoqlarni, ya'ni baliqchilik, ormon va qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoatini o'z ichiga olgan. So'ngra u kengayib borgan va ijtimoiy sohalarning hududiy jihatlarini ham o'z tadqiqot doirasiga olgan. Ammo bu bosqichda iqtisodiy geografiya to'la "ijtimoiylashib" ketmaydi. Binobarin, 2-nchi blok bog'lovchi, ya'ni fanning atalishidagi "va" ma'nosini ifodalovchi vazifani bajaradi. Mazkur, bo'simda bevosita aholi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayot-faoliyatini bilan aloqador sohalar nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, e'tiborga olish lozimki, "ijtimoiy-iqtisodiy geografiya", "ijtimoiy va iqtisodiy geografiya" emas. Birinchisida asosiy urg'u ijtimoiylikga, ya'ni aholiga beriladi, biroq uning iqtisodiy funksiyasi ham unutilmaydi va bu ikki muhim jabha o'zaro uyg'unlashgan holda ko'rildi.

## IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA

### 1. Iqtisodiy geografiya

- 1.1. Qishloq xo'jaligi geografiyasi;
- 1.2. Sanoat geografiyasi;
- 1.3. Transport geografiyasi;
- 1.4. Qurilish geografiyasi;
- 1.5. Tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va b.

### 2. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya

- 2.1. Aholi geografiyasi;
- 2.2. Shaharlar geografiyasi;
- 2.3. Qishloq joylar geografiyasi;
- 2.4. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi va h.k.

### 3. Sotsial geografiya

- 3.1. Rekreatsiya va turizm geografiyasi;
- 3.2. Din geografiyasi;
- 3.3. Jinoyatchilik geografiyasi;
- 3.4. Tibbiyot geografiyasi;
- 3.5. Fan va ilmiy – tadqiqotlar geografiyasi;
- 3.6. Hulq – atvor geografiyasi va b.

**1-chizma. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ichki tuzilishi**

Darhaqiqat, aholi, inson eng avvalo ijtimoiy kategoriyadir. Ammo u ayni chog`da ham yaratuvchi, o`zi yaratgan moddiy va ma`naviy boyliklarni iste'molchisi hamdir. Ma'lumki, inson dunyoga yashash uchun keladi, lekin yashash uchun ishlash kerak. Binobarin, oilada 5 kishi bo`lsa, uning faqat 2 nafari iqtisodiy faol bo`lishi mumkin. Biroq, bu ikki kishi ham barcha oila a'zolari qatorida iste'molchi, ya`ni ijtimoiy kategoriya hisoblanadi.

3-nchi blokga tor ma'nodagi ijtimoiy, aniqrog`I, sotsial geografiyaga taalluqli fanlar kiritilgan. Ular kishilarning dam olishi, davolanishi, e'tiqodi, yurish-turishi va, xullas, ijtimoiy hayotining hududiy jihatlari bilan bog`liq sohalardir.

Yuqoridagi 3 blokdan tashqari so`nggi yillarda to`rtinchini blok ham shakllanib bormoqda. U siyosiy geografiya bo`lib, uning tarkibiga geosiyosat, harbiy geografiya, elektoral (saylovlari) geografiya, geokonfliktologiya, limologiya (chegaralar haqidagi fan) kabilarni kiritish mumkin. Fanimizning bunday yana kengayib borishi uning ayrim mamlakatlarda (Rossiya Federatsiyasi, Qozog`iston va Qirg`iziston respublikalarida) "Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiya" deb atalishiga sabab bo`ldi. Kelajakda yana qandaydir "geografiya" fanining vujudga kelish ehtimolini nazarda tutib, ularning barchasini bir so`z bilan "Ijtimoiy geografiya" deb nomlash to`g`riroq bo`ladi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Iqtisodiy geografik bilimlar nima uchun kerak?
2. Iqtisodiy geografiya fanining tarixiy manbałari qaysilar va ular qaysi davlatlarda shakllangan?
3. Iqtisodiy geografiyaning statistika bilan qanday aloqadorligi mavjud?
4. Ijtimoiy geografiya fanining hozirgi davrdagi rasmiy nomi qanday va nima sahabdan u aynan shunday ataladi?
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
6. Ijtimoiy va sotsial geografining o`rtasida qanday farq bor?

## ISHLAB CHIQARISHNI IJTIMOIY TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Reja

1. Ishlab chiqarishda mujassamlashuv.
2. Ixtisoslashuv va uning shakllari.
3. Kooperatsiya, uning ixtisoslashuv bilan aloqasi.

#### 4. Kombinatlashuv, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida bu shaklning amalga oshirilishi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllari - mujassamlashuv (konsentratsiya), ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy tomonlarga ega. Albatta, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun ishlab chiqarishning hududiy tomoni yetakchi rol o'ynaydi. Shunga qaramasdan, bu bir-biri bilan bog'liq b o'lgan jarayonlarni uyuştirgan holda o'rghanish, tahlil qilish, biridan ikkinchisiga o'ta bilish geografik fikrlashning muhim xususiyatidir.

Endi qisqacha ishlab chikarishni tashkil etish shakllariga to'xtalib o'taylik. Ularning tahlilini mujassamlashuvdan boshlaganimiz ma'qul bo'lsa kerak, zero qolgan shakllarning negizida ham u yoki bu ko'rinishdagi mujassamlashuvni ko'rishimiz mumkin.

Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to'planishi, yig'ilishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishlidir. Ammo geografik jihatdan u eng avvalo sanoat, qishloq xo'jaligi va transport, ya'nini moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya fanining obyektni aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishini, ularning joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Chunonchi, sanoat uchun "nuqta" yoki tugun ko'rinishida hududiy tashkil etish, qishloq xujaligiga areal yoki mintaqasi (zonal), transport uchun esa lentasimon yoki chiziq shaklidagi joylashuv xosdir. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ma'lum darajada xuddi ana shu nuqtalar -sanoat markazlari va tugunlari, areal va zonalar, "tasmalar"ni, ularning joylashuvi, aloqasi va hududiy munosabatlarni o'rGANADI. Ijtimoiy obyektlarning hududiy tashkil etilishi esa yuqoridagi tarmoqlar joylashuvi bilan belgilanadi. Masalan, aholi va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning hududiy tizimlari sanoat, qishloq xo'jaligi va transport geografiyasi asosida amalga oshiriladi. Demak, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqta, areal va chiziqlar, ularning o'zaro hududiy munosabati to'g'risidagi fan hisoblanadi. Buni biz iqtisodiy geografianing o'ziga xos "geometriyasi" deb atashimiz ham mumkin.

Yuqorida mujassamlashuvning hududiy tomoniga e'tibor berdik. Uning ijtimoiy tomoni ham xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida turlicha bo'ladi. Umuman olganda, mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq yoki sezilarli ko'rindi. Bu borada ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli korxonalarda yig'ilishi, to'planishi sof holdagi ishlab chiqarish yoki korxona mujassamlashuvi, ularning shaharlar va rayonlar joylashuvini esa urbanistik va hududiy mujassamlashuv sifatida ko'rsatish o'rni.

Mujassamlashuvning bu shakllari bir-biriga o'tib turadi va turli rayon yoki mamlakatlarda har xil birikmada bo'ladi. Masalan, shaharning markazlashuv darajasi ma'lum bir bosqichga ko'tarilgandan, hududning "sig'imi" optimal darajaga yetgandan keyin o'ziga xos vaziyat vujudga keladi, ya'ni endi mazkur shaharda qo'shimcha korxonalarini qurish imkoniyati qolmaydi. Ekologik, uy-joy, transport muammolari keskinlashadi, qurish uchun yer maydoni ham yetishmaydi va ayni paytda yangi korxona bu markazdan olisda joylashuvni ham "istamaydi". Demak, yirik shaharda ham emas, undan uzoqda ham emas; shaharning imkoniyati yo'q, korxona esa undan yiroqlasha olmaydi. Natijada, yangi korxona yoki ilmiy tekshirish muassasalari, olyi o'quv yurtlari yirik shaharning ta'sir doirasida o'rashadi - shahar aglomeratsiyasi, sanoat tuguni vujudga keladi. Ammo aglomeratsiyalar ham o'ziga xos hududiy mujassamlashuvdir. Fanda aglomeratsiya omili va u bilan bog'liq aglomeratsiya samaradorligiga ilk bor nemis olimi Alfred Veber (1909-y.) asos solgan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga misol sifatida Toshkent atrofida joylashgan go'sht kombinati (O'rtaovul shaharchasi), Toshkent agrar universiteti (Yalang'och shaharchasi), Yadro fizikasi instituti (Ulug'bek shaharchasi), alkagolsiz ichimliklar kombinati (Qibray) va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Toshkent aholisi ehtiyoji va xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bu korxonalarini poytaxtda qurishning iloji yo'q, lekin ular iste'molchi, sanoat, ilm-fan markaziga yaqin bo'lmog'i lozim. Bundan yana bir xulosa, ya'ni ishlab chiqarish mujassamlashuvi bilan shahar rivojlanishi o'rasisidagi munosabat kelib chiqadi. Dastlab shaharning vujudga kelish va ulg'ayishida ishlab chiqarishni joylashtirish (mujassamlashuvi) yetakchi rol o'ynaydi, keyinchalik esa shaharning o'zi ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish omiliga aylanadi. Endi turli shakldagi mujassamlashuvga misol keltiraylik. Masalan, O'zbekiston sanoat mahsulotining yarmidan ko'pini har birida 2000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar ishlab chiqaradi, deb faraz qilaylik. Bu ishlab chiqarish yoki korxona darajasidagi mujassamlashuvdir. Toshkent shahrida mavjud korxonalar O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotining taxminan 15-16 foizini beradi - bu urbanistik mujassamlashuv bo'ladi. Agar Farg'onaning vodiysini respublikamizning asosiy pilla yoki meva maskani, neft mahsulotlari yoki o'simlik moyi ishlab chiqaruvchi rayoni sifatida ko'rsak, u holda hududiy mujassamlashuvni nazarda tutgan bo'lamiz.

Mujassamlashuvning yuqori yoki pastligi ayni chog'da ma'lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu yerda "umumiyl maxraj" bo'lib shahar, viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi, hissasi xizmat qiladi. Aytaylik, Fargona vodiysida O'zbekiston Respublikasi aholisining 27 foizi joylashgan. Agar u yoki bu ishlab chiqarish ko'rsatkichi shu raqamdan qancha yuqori bo'lsa, mazkur ishlab chiqarish tarmog'i vodiyyda shunchalik rivojlangan, inujassamlangan bo'ladi.

Korxona, urbanistik va hududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda turlicha birikma hosil qiladi. Past darajadagi korxona yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori urbanistik mujassamlashuvga to`g'ri kelishi ham uchraydi. Bu holda shaharda mayda korxonalar soni juda ko'p bo'ladi. Aksincha, urbanistik mujassamlashuv past, ammo ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lishi ham mumkin. Bunga kichikroq shaharda, masalan, Asaka yoki Xivada katta ishlab chiqarish korxonalarining joylashuvi misol bo'la oladi. Xuddi shunday, past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori hududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur hududda juda ko'p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo'ladi. Xuddi shu vaziyatni respublikaning ko'pgina viloyatlaridagi (Andijon, Buxoro, Farg'on'a, Namangan, Xorazm va h.k.) to'qimachilik qo'shma korxonalarining joylashganligida uchratamiz. Shu bilan birga past darajadagi hududiy mujassamlashuv yuqori urbanistik ko'rsatkich bilan ham uyg'unlashgan tarzda keladi. Masalan, bir vaqtlar Fransiya deganda, avvalo uning poytaxti Parij, Vengriya tamzida esa Budapest tushunilar edi. Shunday qilib, yuqori darajadagi mujassamlashuv, ayniqsa bozor munosabatlariiga o'tish davrida o'ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali emas. Bunday vaziyatda xom ashyo va tayyor mahsulotni transportda tashish xarajatlari ko'payadi, ishchi kuchi yetishmaydi va, eng muhimmi, ekologik muvozanat buziladi. Xo'sh, qaysi darajadagi mujassamlashuv ma'qul degan savol tugiladi. Axir, ayni bir hajmdagi mahsulotni turli xil yiriklikdagi korxona, shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin-ku! Bu yerda ham bir tomonlamalik, qat'iylik zararli va xavflidir. Binobarin, turli xil yiriklikdagi korxonalar, shaharlar bo'lgani maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Demak, mujassamlashuv o'byektiv qonuniyat, biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsa-da, uning ma'lum chegarasi, darajasi, doirasi bo'lishi shart.

Mamlakatning birgina, aksariyat hollarda, poytaxt shahari asosida rivojlanishini Lotin Amerikasi davlatlarining yaqin o'tmisidagi taraqqiyoti

yoki Afrika mamlakatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar o'z ijtimoiy-iqtisodiy borlig'ini ularning eng yirik markazi bo'lgan poytaxt shahrida mujassamlantiradi. Bunday hollarda ishlab chiqarishning bir tomonlama yoki nomutanosib hududiy tarkibini, o'ta markazlashgan mujassamlashuvni bildiradi.

Respublikada ham faqat Toshkent yoki Toshkent viloyatini rivojlantirib, qolgan mintaqaga va joylarni o'z holiga qoldiraverish ham yaramaydi, albatta. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax kabi viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish zamon talabi bo'lib, bu masalalar mustaqil davlatning ilmiy asosda ishlab chiqilgan mintaqaviy siyosatida o'z aksini topmog'i lozim.

Markazlashuv mujassamlashuvning bir ko'rinishidir. Bu yerda ishlab chiqarish korxonalari yoki boshqa tashkilotlar va sohalarni asosan birgina shaharda joylashuvi tushuniladi. Ayni paytda mamlakat yoki xo'jalik boshqaruvining bunday tizimi yakka hokimlik-monopoliyaga olib kelishi turgan gap, bu esa maqsadga nomuvofigdir.

Yuqorida ma'noda mujassamlashuv tushunchasi hamma vaqt markaz tushunchasini ifodalaydi. Shubhasizki, bu markaz balandroq turishi, ko'zga yaqqol va darhol tashlanishi lozim. Ammo "markaz" deganda shaharlarni umuman sanoat yoki madaniyat markazi sifatida qarash ham to'g'ri bo'lmaydi. Qolaversa, barcha shaharlar ham sanoat, madaniyat markazidir. Shuning uchun shahar aynan qaysi sanoat tarmog'i markazi ekanligini aniqlash ma'qulroq hisoblanadi. Chunonchi, Angren umuman sanoat markazi emas, balki ko'mir (yokilg'i) sanoat markazi, Marg'ilon yoki Namangan esa to'qimachilik, Asaka mashinasozlik sanoatining markazi ekanligini ko'rsatish to'g'riq bo'ladi.

Ixtisoslashuv ham ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, u hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas bog'liq. Uning uch bosqichi va uch turi mavjud. Ixtisoslashuvning uch bosqichi deganda korxona, shahar yoki rayon miqyosidagi ixtisoslashuv tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ularning har biriga hududiy yoki ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir mahsulotning ishlab chiqarilishi biriktiriladi. O'z navbatida, ixtisoslashuv shu korxona (u jamoa xo'jaligi bo'lishi ham mumkin), shahar va rayonlarning "hasharasini", ularning mehnat taqsimotida tutgan o'rmini belgilab beradi.

Ixtisoslashuvning uch turi-bu qism (detal), texnologik yoki yarim mahsulot (polufabrikat) va predmet (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvidir. Ixtisoslashuvning bunday ko'rinishlari bir-biri bilan

uzviy bog'liq va ular turli hududiy bosqichda o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi.

Ixtisoslashuv oqibatida xalq xo'jaligining tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional tiplari shakllanadi. Shu bilan birga, u tashqi iqtisodiy aloqalarни taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va mahalliy iste'moldan ortib qolgan mahsulot chetga chiqariladi, mazkur rayonda yetishmaydigan mahsulot esa boshqa joydan keltiriladi.

Ixtisoslashuvni aniqlash uchun bir necha shart va sharoitlar zarur. Muhimi - mahsulot faqat shu joy talabini qondiribgina qolmay, balki ortiqchasi boshqa rayonlarga chiqarilishi yoki tovar xususiyatiga ega bo'lishi kerak, aks holda bu tarmoq mazkur joy uchun ixtisoslashgan soha ho'lmasligi mumkin. Aytaylik, rayon yoki viloyatda respublikada ishlab chiqilgan mahsulot shu yerning o'zida batamom iste'mol qilinsa yoki, aksincha, ushbu mahsulot mahalliy sharoit ehtiyojini qondirmay, tamomila chetga chiqarilsa, har ikkala holda ham to'laqonli ixtisoslashuv bo'lishi mumkin emas. Birinchi misolda oddiy natural xo'jalik, ikkinchi holda esa xom ashyoga asoslangan qaram rayon yoki mamlakat guvohi bo'lamiz, chunki ko'p degan so'z har doim ham ortiqcha ma'noni anglatmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Markaziy iqtisodiy rayonida Belorussiyadan ko'proq kartoshka yoki Boltiqbo'y respublikalariga ko'ra ko'proq sut ishlab chiqariladi. Ammo na kartoshka, na sut Rossiyaning Markaziy rayoni uchun ixtisoslashgan tarmoq hisoblanmaydi, zero bu mahsulotlarning barchasi o'z joyida iste'mol qilinadi, chunki rayonning o'zida 30 mln dan ziyod aholi yashaydi. Ayni paytda kartoshka Belorussiya Respublikasi uchun, sui Boltiqbo'y mamlakatlariga ixtisoslashgan tarmoq ho'lib xizmat qiladi. Bu joylarda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan mahalliy talab qondiriladi, ortiqchasi esa chetga chiqariladi.

Shunday tartibda mulohaza yuritib, O'zbekistondagi ixtisoslashgan tarmoqlarni aniqlash mumkin. Chunonchi, respublikamiz paxta tolasi, pilla, tog'-kon sanoati, avtomobilsozlik va boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Uni ip yoki ipak gazlamaga, un, neft sanoatiga ixtisoslashgan deyish biroz mushkulroq, chunki bu mahsulotlar O'zbekistonda hozircha yetarlicha ishlab chiqarilmaydi va ular mahalliy talabni to'la qondira olmaydi.

Ixtisoslashuv, albatta, faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga ham molik xususiyatdir. Qolaversa, ayrim oliygochlар o'qituvchi, boshqalari-agronom, muhandis, iqtisodchi

kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Sababi-bu oliyoholar shunday xodimlarni tayyorlashga ixtisoslashgan.

Ixtisoslashuvning ham mujassamlashuvga o'xshash o'zining chegarasi bo'lishi lozim; o'ta tor ixtisoslashuv bir tomonlamalikka, yo'l xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Ulkan korxonalarini qurish qanday zararli bo'lsa, haddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkahokimlik ham shuncha xatarlidir. Afsuski, yaqin o'tmishda mamlakatimiz qudrati, uning rivojlanganlik darajasi "yirik", "eng katta", "yagona" kabi tushunchalar bilan ifodalanar, "birinchi" bo'lish esa ko'p hollarda qolgan barcha sohalarda qoloqlikni anglatar edi. Ammo bu mulohazalardan noto'g'ri xulosa chiqarish ham kerak emas, chunki ixtisoslashuv siz shahar, tuman, viloyat, iqtisodiy rayon, respublikalarни, qolaversa, jamiyat va kishilarning o'zini ham rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoq bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkilamchi sohalar ham, hech bo'limganda, mahalliy ehtiyoj doirasida rivojlangan bo'lishi lozim. Bu yerda ixtisoslashgan tarmoqni daraxtning tanasiga, daryoga, qo'shimcha tarmoqlarni esa daraxtning shox va shoxchalariga, daryoning irmoqlariga o'xshatish o'rinni. O'z-o'zidan ma'lumki, tanasiz shox ham bo'lmaydi, shoxsiz daraxt esa - bu oddiy butadir, irmoqsiz daryo ham barkamol daryo tizimini shakllantirmaydi.

Demak, ixtisoslashuv kompleks, har tomonlama rivojlanish bilan uyg'unlashuvi kerak. Zero, ixtisoslashuvda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatini hozirgi kunda sezib turibmiz. Bu kamchiliklar ayniqsa sobiq ittifoqdosh respublikalarining o'zaro iqtisodiy aloqalarini buzilishida o'z aksnni topmoqda. Shu sababli, e'tibor ko'proq har bir respublikaning mumkin qadar atroficha rivojlanishiga qaratilmoqda. Albatta, bunday taraqqiyot respublikani jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan farq qildiruvchi, uning o'mini belgilab beruvchi ixtisoslashgan tarmoqlarni takomillashirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, ixtisoslashuv har bir joyning kimligi yoki nimaligini, bir joyning ikkinchi joydan farqini anglatadi va, binobarin, u, ya'ni hududiy ixtisoslashuv, iqtisodiy rayon iqtisodiy geografiyaning o'zak tushunchalari hisoblanadi.

Kooperatsiya pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining hamkorligidir (1-chizma). Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasisligi mumkin. Shu bilan birga, kooperatsiyada hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarining bir joyda o'rinalashuvi uncha sezilmaydi va, aksincha, ularning tarqoq ko'rinishda joylashuvi kuzatiladi.

Kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni ishlab chiqarilayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog'l, yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko'p ehtiyoq qismlar, detallar kerak. Shu bois bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarning ulushi bor. Masalan, Moskvada yengil avtomobil yoki Lixachev nomli zavod, Tolyattidagi Volga avtomobil zavodi (Jiguli) va shunga o'xshash birlashmalar 200 va undan ortiq korxonalar bilan hamkorlik qiladi. O'zimizning Asakadagi "O'zDEU" avtokorxonasi ham respublikamiz va boshqa mamlakatlardagi (asosan Janubiy Koreya) korxonalar bilan aloqa qiladi.

Modomiki asosiy yakunlovchi yoki yig'uvchi bosh korxona ko'p joydan asbob-uskunalar, detall va jihozlar olar ekan, u transport-geografik jihatdan qulay nuqtada o'rinchashuvni zarur.

Kombinatsiya, kombinatlash kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu yerda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyligi tushuniladi. Shu sababali kombinatsiyada, kooperatsiyadan farqli o'laroq, ko'proq hududiylilik, majmua namoyon bo'ladi.


Bu ikki, yuzaki qaraganda, bir-biriga o'xshash tushuncha o'rtaida boshqa farqlar ham bor. Kooperatsiyada natija, maqsad, pirovard mahsulot bir ho'lsa, kombinatsiyada, aksincha, ya'ni xom ashyo bir bo'lib, undan olinadigan mahsulot turlari har xildir (2-chizma).

Demak, kombinatlashuv ma'lum bir turdag'i xom ashyonini chuqur texnologik qayta ishslash, uning chiqindilaridan to'la foydalangan holda barcha mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi. Xuddi shu ma'noda kombinatsiya "to'ntarilgan" kooperatsiyadir.

Kombinatsiya bir geografik nuqtada, xatto korxonalar birlashmasi doirasida kattaroq joy yoki rayonda ham bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi tarmoqlari orasida esa u ayniqsa qora va rangli metallurgiya, kimyo, o'rmon, oziq-ovqat, yengil va qurilish sanoatiga tegishlidir. Xullas, bu shaklni qayerda "kombinat" so'zini uchratsak, uni o'sha sohada ko'ramiz, xatto aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy xizmat kombinatlari). Sanoatda kombinatlar bir necha texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan zavod yoki sexlardan tashkil topgan bo'ladi. Masalan, qora metallurgiya kombinatlari, aniqrog'l, to'liq siklli kombinatlar cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo'lmasa, u holda kombinat to'liq siklga ega emas (Bekoboddagi O'zbek metallurgiya kombinati xuddi shunday korxonalarlardandir).

To'qimachilik kombinatlari yigiruv, bo'yoqlash, tayyorlash sexlaridan ihorat. Xom ashyo bitta-paxta tolasi yoki pilla mahsuloti; go'sht kombinatida ham yagona xom ashyo asosida bir necha mahsulot: go'sht, konserva, kolbasa kabi boshqa go'sht mahsulotlari olinadi. Uning chiqindisidan, masalan, suyak va qondan qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlangandan so'ng charm-poyafzal sanoatida ishlataladi. O'rmon, sement-shifer, kimyo kombinatlarining tuzilishi ham xuddi shunday. Qolaversa, markazlashgan issiqlik elektr stansiyalari ham kombinat xususiyatiga ega, chunki ular ayni paytda elektr energiyasi va par (bug') beradi.

Shunday qilib, kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko'pchiligidagi xosdir. Faqat mashinasozlikda "kombinat" so'zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu yerda ham u mavjud, zotan metalldan asosiy mahsulot bilan bir qatorda keng iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdag'i Chkalov nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba'zi bir ehtiyyot qismlar, bolalar aravachasi (kolyaska) va shunga o'xshash turli xil xalq iste'mol mollarini ham ishlab chiqaradi. Yuqorida keltirilgan misollarda ma'lum bir nuqtada yoki yirik korxonalar doirasidagi kombinatsiyani ko'rish mumkin. Uning hududiy ko'rinishi esa hududiy ishlab chiqarish majmuasining o'zginasidir.



2-chizma. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning asosiy shakllari

Umuman olganda, ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari o'zaro bog'liq. Chunonchi, ixtisoslashgan korxonalar yoki kooperatsiya va kombinatsiya doirasidagi ishlab chiqarish bo'g'lnlari ham u yoki bu ko'rinishda mujassamlashuvni anglatadi. Biroq bu yerda ularning bir joyda to'planganligi, yig'ilganlik darajasi boshqa joylarga nisbatan yuqori bo'llishi lozim, aks holda tom ma'nodagi mujassamlashuv bo'lmaydi.

Mujassamlashuv yoki ixtisoslashuv ayni paytda shu sohaning rivojlanganligidan dalolat beradi. Ammo bu rivojlanganlik mujassamlashuvda korxona yoki tashkilotning kattaligi, ko'lami bilan o'lchansa, ixtisoslashuvda esa u o'z ifodasini yagonaligi, noyobligi va betakrorligida topadi.

Kooperatsiya va kombinatsiya bir-biriga o'xshashligini yuqorida qayd qilgan edik. Bu masalaga yana bir yondashsak, ularning ikkalasi uchun ham ixtisoslashuv tegishli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Agar kooperatsiyaga asosan detal yoki qism darajasidagi ixtisoslashuv mos bo'lsa, kombinatsiya uchun texnologik, yarim mahsulot ishlab chiqarish doirasida ixtisoslashgan korxonalar birikmasi xosdir. Shuning uchun ularning aloqadorlik va farqlarini aniqlash, ijtimoiy va hududiy tomonlarini ajrata bilish, bir-birlarini bog'lab ko'rish iqtisodiy geografik o'rGANISHNING muhim shartidir.

Mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllaridan to'g'ri va oqilona foydalananish zarur. Masalan, har qanday mustaqil davlatning iqtisodiy qudratini faqat kichik yoki tor darajada ixtisoslashgan korxonalar bo'yicha parchalab yuborish maqsadga imuvofiq emas. Shu bois, mamlakat uchun katta, o'rta va kichik, turli darajada ixtisoslashgan korxonalarning turg'un uyushmasi, majmuasi kerak.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston milliy iqtisodiyotini ham "pastdan", ham "yuqoridan" qurish lozim. Binobarin, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda barpo etilayotgan sanoat korxonalari uchun ularga zarur bo'lgan texnologik qismlar, detal va dastgohlarni o'zimizda tayyorlash imkoniyatlarini vujudga keltirish, ishlab chiqarishning mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish zamон talabidir. Shu bilan birga, mavjud imkoniyat va resurslardan to'la foydalangan holda mamlakatimiz hududida ko'proq tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirishga ahamiyat berish lozim.

## Savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishga nimalar kiradi?
2. Mujassamlashuvning markazlashuvdan farqi nimada?
3. Ijtimoiy sohalarda ixtisoslashuv qanday ko'rinishga ega?
4. Kooperatsiya bilan ixtisoslashuv o'rtaida qanday aloqadorlik mavjud?
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mujassamlashuv va ixtisoslashuv qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?

## HUDUDIY MEHNAT TAQSIMOTI VA IQTISODIY RAYONLASHTIRISH

### Reja

1. Hududiy mehnat taqsimoti haqida tushuncha.
2. Geografik mehnat taqsimotining omillari.
3. Hududiy mehnat taqsimotining bosqichlari.
4. Iqtisodiy rayonlashtirish.
5. Iqtisodiy rayonlashtirish va mintaqaviy siyosat.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bevosita hududiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq. Ammo hududiy mehnat taqsimoti asosan ishlab chiqarishning hududiy tarkibini bildiradi va shu sababli u aholi va mehnat resurslarini o'z ichiga olmaydi. Aholining joylanishi esa ko'p hollarda ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda hududiy mehnat taqsimoti bilan bir qatorda geografik, regional (mintaqaviy), akvatorial mehnat taqsimoti kabi turdosh tushunchalar uchrab turadi. Albatta, ular o'rtaida jiddiy farq yo'q, faqat akvatorial mehnat taqsimoti Yer sharining quruqlik qismida emas, balki uning okean va dengizlarda ishlab chiqarishning rivojlaniishi, ixtisoslashuvini anglatadi (akva -suv demakdir).

Hududiy mehnat taqsimoti yoki ishlab chiqarishni hudud bo'y lab joylashtirish o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy geografik jarayon hisoblanadi, chunki iqtisod hudud doirasida taqsimlanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tarkibi yoki tizimi (sistemasi), iqtisodiy

rayonlar to'ri vujudga keladi. Ularning o'zaro hududiy munosabati va joylanish holati, xo'jalikning hududiy tarkibi iqtisodiy geografik vaziyatni ifodalaydi.

Hududiy mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining bir tomonidir. Ammo u ijtimoiy mehnat taqsimotidan biroz keyinroq vujudga kelgan. Sababi, avvallari kishilar tabiatda mavjud imkoniyatlardan foydalanganlar, o'zlarining u yoki bu joyda ma'lum mahsulotni yetishtirishlari esa tarixan kechroq paydo bo'lgan.

Demak, hududiy mehnat taqsimoti (HMT), soddaroq qilib aytganda, turli joylarning-mamlakat yoki rayonlarning turli mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvидir. Natijada, ana shu joylarning iqtisodiy "basharasi" shakllanadi va ularning kattaroq hududiy tizimdagи o'mi o'z aksini topadi.

Agar kengroq qilib ta'riflamoqchi bo'lsak, HMT- bu ishlab chiqarish tarmoqlarini hududning tabiiy sharoiti va boyliklari, aholi va mehnat resurslari kabi omillariga qarab joylashtirishdir. Bundan kelib chiqadiki, HMT-ga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular:

- " Tabiiy sharoit va qazilma boyliklar;
- " Aholi va mehnat resurslari;
- " Transport;
- " Ijtimoiy infrastruktura;
- " Ekologik vaziyat;
- " Iqtisodiy geografik o'rinn;
- " Bozor munosabatlari.

Ayni vaqtida ana shu va shunga o'xshash omillar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda ham hisobga olinadi. Binobarin, bu masala keyinroq muffasal o'rganiladi. Bu yerda faqat bir omilga to'xtab o'tish joiz. Gap shundaki, avvallari, ya'ni "Sotsialistik rejalashtirish" davrida eng asosiy omil o'ta markazlashgan davlat, ya'ni Butunittifoq manfaatlari" edi; qolgan sharoitlarning qulaylik yoki noqulayliklardan qat'iy nazar, agar ya'ni davlat, Ittifoq uchun qaysi bir mahsulot zarur bo'lsa, u albatta yetishtirishi shart edi. Masalan, O'zbekistonda paxtadan tashqari boshqa qishloq xo'jalik tarmoqlari-bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilikni ham rivojlantirish mumkin edi, ammo markaz sanoati uchun paxta kerakligi tufayli bu yerda xo'jalikning tor sohasi, xom ashyoga yo'naltirilgan tizimi shakllandi.

Hozirgi bozor munosabatlariiga o'tish davrida vaziyat butunlay o'zgardi; endigi sharoitda yetakchi omil-bozor, iste'mol va talab omili muhim bo'lib qoldi. Qolgan omillarning ta'siri esa bunga nisbatan sustroq. Chunki, nimaga ixtisoslashuv, nima yetishtirishni davlat emas, bozor belgilaydi, davlat esa, bu jarayonni u yoki bu vositalar yordamida tartibga solib boradi.

HMT uchun yetishtirilgan mahsulot mahalliy ehtiyojni qondirgan holda albatta bozorga, almashuvga chiqarilishi kerak. Bundan ayon bo'ladiki, mazkur jarayonning asosida ishlab chiqarishning nafaqat mujassamlashuvi (konsentratsiyasi), balki uning ixtisoslashuvi ham yotadi. Ixtisoslashuv esa mahsulotning chetga yuborilishi bilan belgilanadi. Shu bois, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotning ortiqcha qismi boshqa joyga (mamlakat yoki rayonga) chiqarilishi lozim; mahsulotning shu joyning o'zida to'la, batamom iste'mol qilinishi ixtisoslashuv, HMT emas, bu oddiy natural xo'jalikdir. Bunday davlatlar jahon xo'jalik tizimiga kira olmaydilar, milliy iqtisodiyoti zaifligi sababli ular jahon bozorida ishtirok eta olmaydilar. Agar mamlakat ichida shunday mintaqalar mavjud bo'lsa, u holda uning yagona geoijtisodiy tizimi vujudga kelmaydi, iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanmaydi; xo'jalikning hududi tarkibini shakllanmaganligi natijasida ichki iqtisodiy integratsiya jarayonlari rivojlanmaydi.

HMT-ning rivojlanishida transportning roli katta. Chunki transport mahsulot ishlab chiqarilgan joy bilan uni iste'mol qiladigan rayon o'rtaсидаги aloqadorlikni bajaradi, transport harakati esa mahsulotning iste'mol rayonidagi tannarxiga kiradi.

HMT-da bir necha bosqich yoki daraja mavjud. Hozirgi sharoitda ular quyidagilar:

- Xalqaro mahnat taqsimoti;
- Davlatlararo mehnat taqsimoti;
- Mamlakat ichidagi mehnat taqsimoti;
- Yirik iqtisodiy rayonlar doirasidagi mehnat taqsimoti;
- Ma'muriy-iqtisodiy rayonlar (viloyatlar) ichidagi mehnat taqsimoti.

Xalqaro mehnat taqsimotining ilmiy asoslarini ingлиз iqtisodchilari Adam Smit va David Rikardolar yaratgan. Ular qiyosiy afzallik yoki qulaylik g'oyasini ishlab chiqishgan. Ushbu g'oyaga u yoki bu mahsulotni ma'lum bir vaqt davomida qayerda ko'proq va arzonroq ishlab chiqarilishi nazarda tutiladi. Mohiyatan shunga o'xshash "omillar" g'oyasini shved olimlari Xeksher va Olinlar oldinga surishgan. Bunda muayyan bir

mahsulotni ishlab chiqarishda qaysi omilning qulay yoki arzonligi e'tiborga olinadi. Masalan, respublikamizning qator hududlarida qishloq xo'jaligi hamda yengil va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda agroqlimiy sharoit va mehnat resursi omillari juda qulay. Shu bois bunday hududlar aynan qishloq xo'jaligi va xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Ta'kidlash kerakki, ilgarigi tizimda oxirgi ikki bosqichda hududiy mehnat taqsimoti ainalda yo'q edi. Masalan, O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni mamlakatga asosan paxta yetishtirib berardi; O'zbekiston doirasida esa bunday hududiy taqsimot yanada zaif edi.

SSSRning parchalanishi natijasida hududiy mehnat taqsimotining vertikal tizimida keskin o'zgarishlar yuz berdi: avvalgi ittifoqdosh respublikalar-endigi mustaqil davlatlar, jumladan, O'zbekiston jahon hamjamatiining alohida sub'yekti sifatida bu taqsimotning birinchi bosqichidan joy oldi, ya'nii beshinchi o'rindan birdaniga birinchi o'ringa ko'tarildi. Albatta, bunday "sakrash" oqibatida anchagina muammolar yuzaga keldi. Agar bu muammoni sobiq O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni darajasida ko'rmoqchi bo'lsak, hozirgi kunda qo'shni respublikalar o'rtasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, yagona iqtisodiy makonni shakllantirish juda qiyin bo'lib qoldi. Buning sabablaridan birlarcha respublikalarning asosan bir xil mahsulot, ya'nii paxta yetishtirishga ixtisoslashganidir.

Xuddi shunday vaziyat respublikamiz ichida yanada yaqqolroq ko'rindi. Binobarin, milliy iqtisodiyotning biryoqlama, paxta yakka hokimligiga yo'naltirilgan tiziminining o'miga turli tarmoqlarga ixtisoslashgan xo'jalik tarkibini vujudga keltirish zarur. Sobiq Ittifoqdan meros qolgan hududning tor ixtisoslashuvi ayrim viloyatlarda, masalan, Sirdaryo, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Xorazmda tamomila o'zgartirilganicha yo'q. Shu bois, mamlakatimizda ichki-mintaqalar, viloyatlar va hatto ma'muriy qishloq tumanlari doirasida mehnat taqsimotini chuqurlashtirish lozim.

HMT ixtisoslashuvga, bir joyning ikkinchi joydan xo'jalik yo'naliishi bo'yicha farq qilishiga, hududiy rang-baranglikka olib keladi. Bu esa iqtisodiy rayonlarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, hududiy mehnat taqsimoti ixtisoslashuv iqtisodiy rayonlar o'rtasida zanjirsimon aloqadorlik mavjud.

Ma'lumki, har bir fanning o'ziga xos va o'ziga mos birlamchi tushunchasi bor. Masalan, biologiyada hujayra, kimyoda molekula, fizikada atom, tarixda-davr va h.k. Geografiyaning bosh tushunchasi

rayondir. Iqtisodiy rayon esa iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchasi hisoblanadi.

Boshqa fanlarda bo'lganidek, birlanchi tuuncha ham oson va, ayni vaqtda, ham qiyindir. Umuman rayon deganda malum o'xshashlikka ega bo'lgan hududning bir qismi nazarda tutiladi. Tabiiy geografiyada, masalan, botqoqlik, tepalik, tog'lik, tekislik, cho'l va boshqa landshaft turlari rayon hisoblanadi, chunki ular shu jihatlari bilan atrof, qo'shni hududlardan farq qiladi. Iqtisodiy geografiyada tog'-kon, dehqonchilik, chovchilik, dam olish kabi mintaqalarni ajratish mumkin.

Rayon tushunchasining murakkabligi shundaki, u tashqaridan qaraganda oddiy ko'rinsada, ichki tuzilishi bo'yicha rang-barang, murakkab hududiy tizimdir. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayonini olaylik; ushbu rayon (mintaqalarni) respublika mehnat taqsimotida avtomobilsozlik, oziq-ovqat sanoati, paxta va pilla, meva yetishtirishga ixtisoslashgan. Ammo mazkur tarmoqlar vodiying barcha qismlariga ham mos emas, qolaversa, bulardan tashqarii mahalliy ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlari ham mavjud.

Mazkur tushunchanening yana bir mushkullik tomoni-uning hududiy ko'lami bo'yicha ko'p bosqichli, ko'p "qavatli" ekanligidir. Chunonchi, Janubi-sharqiyo Osiyo, Yevropa, Sibir, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Bekobod tumani, uning "Oybek" jamoa xo'jaligi ham rayondir. Demak, rayon ichida rayon, uning tarkibida yana "rayoncha" xuddi "matryoshka" o'yinchog'idek. Ehtimol, geografiya fanining muhim bir xususiyati aynan ana shunday turli masshabda fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lisdadidir.

Uchinchi qiyinchilik ilmiy adabiyotlarda rayonga o'xshash tushunchalarning mavjudligida bo'lsa kerak. Jumladan, ingliz tilidagi region, nemis tilidagi landshaft, fransuzcha peyzaj, o'zbek tilida mintaqalarni, tuman, nohiya kabilalar ham umuman olganda, hududning bir qismini bildiradi. Bu atamalarning barchasi ishlatalishga haqli, biroq ularning o'z o'rniда qo'llanilishi ma'qul. Masalan, region kattaroq hududni (xususan xalqaro iqtisodiy munosabatlari va siyosiy geografiyada) landshaft-tabiyyi geografik muhitni, peyzaj-qaysi birj oy manzarasini tavsiflashda qo'l keladi.

Yana boshqa bir chalkashlik bor: baynalmilal mazmunga ega bo'lgan "rayon" tushunchasi haqiqiy geografik borliq va shu bilan birga ma'muriy hududlarga ham tegishli. Uning ustiga, ushbu so'zni barcha holatlarda mahalliylashtirish-nohiya va tumanga o'girish maqsadga muvofiq emas. Shu nuqtai nazardan oddiy tabiiy geografik rayonlarni (tog', cho'l voha va

h.k.) tuman, iqtisiodi rayonlarni-iqtisodiy nohiya shaklida aytish mutlaqo noto`g`ri.

Iqtisodiy rayonlar dunyoning barcha mamlakatlarda, ularning maydonining katta-kichikligidan qat`iy nazar, mavjud. Bu rayonlar yirik iqtisodiy mintaqqa (zona), asosiy va mahaliy darajada bo`ladi. Shuningdek, iqtisodiy rayonlarni ma`muriy-hududiy birliklar, masalan, viloyat miqyosida ham ajratiladi-ki, ularni boshqarish boshqa tipdagi rayonlarga qaraganda osonroq va qulayroq.

Xo`sh, iqtisodiy rayonlar nima uchun kerak? Avvalambor bu rayonlarsiz iqtisodiy geografiya fanining o`zi ham bo`lmaydi (rayon-joy, yer, hudud, demak "geo"). Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, iqtisodiy rayon iqtisodiy geografiyadir. Binobarin, iqtisodiy geografiya fanining tarixi iqtisodiy rayonlarning shakllanishi, hududiy mehnat taqsimotining natijasidir.

Iqtisodiy rayonlarsiz, hududning ichki jihatdan iqtisodiy turlitumanligini anglamasdan turib mamlakat iqtisodiy geografiyasini o`rganish mumkin emas. Zero, har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati va xavfsizligi uni tashkil qilgan mintaqalar birligi bilan ifodalanadi; mintaqalar, ichki hududlarsiz "mamlakat" mavhum tushuncha bo`lib qolaveradi. Bundan tashqari, mamlakat iqtisodiy geografiyasini faqat xo`jalik tarmoqlari orqali "yoppasiga", umuman yoki "o`rtacha" o`rganib bo`lmaydi.

Nazariy va amaliy jihatdan iqtisodiy rayonlar har qanday davlatning mintaqaviy siyosatni olib borishda zarur. Sababi, davlat o`zining barcha ichki qismrlarga, uning imkoniyat va ehtiyojlari, muammolaridan kelib chiqqan holda "muomala" qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida davlatning mintaqaviy siyosati maxsus vositalar budget-kredit, soliq, investitsiya mexanizmlari yordamida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan tartibga solib, boshqarib boradi.

Unutmaslik zarurki, HMT mintaqalarning iqtisodiy mustaqilligini ta`minlashga yordam beradi. Ammo shu bilan birga, hududlararo iqtisodiy aloqalar ham kerak. Zero, hududlarning xo`jalik ixtisoslashuvni bo`yicha turlanishi ular o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni taqozo etadi.

HMT va iqtisodiy integratsiya natijasida turli miqyosdagи bozorlar yoki bozorlar muhiti vujudga keladi. Ular mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy va xalqaro darajada bo`ladi. Mamlakatlar doirasidagi bozorlar esa amaldagi iqtisodiy rayonlar chegarasini belgilaydi, chunki har bir bosqichdagi bozor o`zining ta`sir doirasiga, makoniga ega. Nemis olimi A. Lyosh ham o`z vaqtida iqtisodiy landshaftlar (rayonlar)-ni bozorlar

makoni, ta'sir radiusi yoki hududi bilan aniqlagan edi, hozirgi kunda esa yetakchi tarmoqlarni bozorga ixtisoslashgan tarmoqlar, deb ham aytishadi.

Har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining barkamolligi, mustahkamligi bosqichma-bosqich turli darajadagi bozorlarni o'z mahsuloti bilan ta'minlanishi, import mahsulotlarining o'rinni qoplovchi imkoniyatlarni yaratish negizida amalga oshiriladi. Xuddi shu maqsadda xalq iste'mol mollarini ko'proq yetishtirish ayni muddaodir.

Hozirgi davrning eng muhim muammolaridan biri- respublika ichida hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish, iqtisodiy rayonlar va viloyatlar xo'jalik tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bu o'rinda barcha hududlarning faqat yoki asosan paxtachilikka ixtisoslashuvi aslo shart emas; u bilan birga xo'jalikning yana boshqa sohalarini ham rivojlantirish zarur. Masalan, Farg'on'a iqtisodiy rayonida (paxtachilikdan tashqari) pillachilik, hog'dorchilik, to'qimchilik va mashinasozlik (avtomobilsozlik), Qashqadaryoda-neft va gaz sanoati, Qoraqalpog'istonda -kimyo sanoatining rivojlanishi va h.k. Ana shundagina mintaqalar mamlakat tashqarisidagi bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ochiq, erkin iqtisodiyot, bozor munosabatlariiga mos keladi, iqtisodiyotni yanada liberallashtirishga sharoit yaratadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, mamlakatlarning alohida, "berk", ya'nı eksport-importsiz rivojlanishi yaxshi iqtisodiy natijalar bermaydi. Shuning uchun ilg'or mamlakatlarda ochiq savdo, ya'nı "fritredizm" prinsipi mavjud. Bizning mustaqil mamlakatimiz ham xalqaro geografik mehnat taqsimotida, jahon bozori va xo'jalik tizimida o'ziga munosih va nufuzli o'ringa ega bo'lishi kerak. Respublikaning bunday faolligi esa mintaqalar-iqtisodiy rayonlar va viloyatlar salohiyati orqali amalga oshiriladi.

Hududiy mehnat taqsimotining yuqori bosqichida ham jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Eng muhimi, jahon xo'jalik tizimi yanada rivojlanib bormoqda. Bunga sabab bu tizimning globallashuvi, mamlakat va mintaqalararo mehnat taqsimotining takomillashuvi, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollandashuvi, yirik Trans milliy kompaniya va korporatsiyalarning butun dunyoni o'rgimchakdek o'rab olishi va boshqalardir.

Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatning eksport kvotasi, ya'nı tashqariga chiqariladigan mahsulotning yalpi ichki mahsulot qiymatidagi ulushi 10 foizdan kam bo'lsa, bunday davlatning milliy iqtisodiyoti berk va u jahon xo'jalik tizimida, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etmaysdi. Agar bu ko'rsatkich 40-50 foiz bo'lsa, u holda mamlakat

bunday tizimda faol qatnashadi. Hozirgi vaqtida butun jahon bo'yicha eksport kvotasi 25 foizni tashkil etadi.

E'tiborga olish joizki, avvallari jahon mamlakatlari u yoki bu mahsulot yetishtirishga moslashgan bo'lsalar (Braziliya -kofe, Kubashakar, Mug'iliston- teri, jun), endigi kunda ular mahsulotlarning turli xillariga ixtisoslashmoqdalar. Ayni vaqtida yetuk mamlakatlар ilmiy-tehnika taraqqiyotining oldingi saflarida borib, zamonaviy, ilmtalab ishlab chiqarish tarmoqlariga, yangi texnologiyalarga (nau-xau) ixtisoslashib bormoqdalar. Ulardagi mavjud ishlab chiqarish sohalari (ayniqsa ko'p mehnattalab va ekologik xavfli tarmoqlar) boshqa mamlakatlarga ko'chmoqda. Natijada, mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi farq kuchaymoqda, jahon iqtisodiyotining geografik tarkibida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro miqyosda mamlakatlarning ayrimlari quroloyaroq ishlab chiqarishga, yana ba'zi birlarining norasmiy ravishda narkobiznesga ixtisoslashuvi ham kuzatilmoqda. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish, xalqaro turizm ham qator mamlakatlarning rivojlangan industriyasiga aylanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining yanada chuqurlashuvi va intensivlashuvi natijasida dunyoning turli qismlarida mamlakatlarning yirik hududiy -iqtisodiy birikmalari vujudga kelmoqda. Chunonchi, 1957-yilda shakllangan Yevropa Hamjamiyati yoki Umumiy bozor -hozirgi Yevropa Ittifoqi 25 mamlakatni o'z doirasiga oldi va ular orasida mehnat taqsimoti rivojlanmoqda. Xuddi shunga o'xshash Osiyo-Tinch okeani regioni, Shimoliy Amerikada ham yirik mamlakatlararo iqtisodiy tizim (NAFTA) paydo bo'lgan. Ehtimol, kelajakda ular MDH hududida, jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasida ham shakllanishi mumkin. Buning oqibatida xalqaro mehnat taqsimotining asosiy sub'yekti sifatida alohida mamlakatlars emas, balki ko'proq mamlakatlararo iqtisodiy uyushmalar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Hududiy mehnat taqsimoti nima?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy mehnat taqsimoti qanday amalga oshiriladi?
3. Hududiy mehnat taqsimotining iqtisodiy rayonlashtirish bilan qanday aloqasi mavjud?
4. A.Smit va D.Rikardolar nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

5. O'zingiz yashayotgan viloyatning respublika mehnat taqsimotidagi o'mini ta'riflab bering.

## **ISHLAB CHIQARISHNI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILLARI**

Reja

1. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish haqida umumiy tushuncha.
2. Xom ashyo omili.
3. Yoqilg'i-energetika omili.
4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar.
5. Transport, ekologiya va bozor iqtisodiyoti omili.


Iqtisodiyot tarmoqlari o'z-o'zidan, tasodifiy hududiy tarqalmaydi, balki ma'lum shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga asos bo'ladi. Qonuniyatlar esa talabalarning behisob fakt va raqamlarni yodlab olishdan ozod qiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilgi, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy geografik o'rinni kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham oshib bormoqda (3-chizma).

Ushbu omillarni tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik guruhlarga birlashtirish mumkin. Ularning mohiyati va ta'sirchanligi jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib turadi. Chunonchi, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida xom ashyo, yoqilg'i, elektroenergiya va transportning hal qiluvchi ta'siri biroz susayib boradi. Ayni paytda, ijtimoiy (iste'mol) va ekologik omillar hamda bozor iqtisodiyoti munosabatlari ishlab chikarishni tashkil etishda ustuvor o'ringa ega bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar, omillar hisobga olinadi. Lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan faqat ayrimlari yetakchi, hal etuvchi rol uynaydi (1-jadval). Bu masalani tushuntirish uchun yaratiladigan mahsulot birligiga suv yoki elektr quvvati, ishchi kuchining qay darajada sarflanishini ko'rsatish kifoya. Boshqacha qilib aytganda, kasr maxrajida

*mahsulot birligi, uning suratida esa alohida-alohida omil turlari (masalan, 1 tonna shakar olish uchun qancha xom ashyo, ya'ni qancha qand lavlagi ishlataladi, qancha elektr quvvati yoki mehnat sarflanadi) turadi. Qaysi omil bo'yicha yirik son chiqsa, odatda, uning ahamiyati shuncha yuqori bo'ladi va u ko'rيلayotgan iqtisodiyot tarmog'ini joylashtirishda belgilovchi, aniqlovchi vazifani o'taydi.*



**3-chizma. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar**

Infrastruktura

Ishchi kuchi

Shuni alohida qayd etish lozimki, ma'lum tarmoqqa kiruvchi barcha korxonalar yoki kichik "tarmoqchalar" uchun bittagina omil tegishli bo'lmaydi. Jumladan, mashinasozlik farmog'iga kiruvchi ba'zi bir korxonalarni joylashtirishda xom ashyo (metall) ko'proq ahamiyatga ega bo'lsa, boshqasi uchun malakali ishchi kuchi muhim omil hisoblanadi.

Endi yuqorida ko'rsatilgan asosiy omillarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Xom ashyo.** Tabiiyki, barcha mahsulot xom ashvosiz yaratilmaydi. Ammo ayrim mahsulotlarni olish uchun xom ashyo boshqalariga qaraganda ko'proq sarflanadi. Shu bois bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xom ashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Sanoatning ba'zi tarmoqlari, masalan, tog'-kon, o'rmon, baliqchilik sanoati korxonalarining joylashuvi xom ashyo bo'limgan rayonlarda rivojlanmaydi. Bunday sanoat tarmoqlarining joylashuvi bevosita foydalı qazilmalar yoki tabiiy boyliklar geografiyasi bilan belgilanadi. Boshqa sanoat tarmoqlariniig hududiy tashkil etilishi esa biroz murakkabroq tusga ega. Bu borada bir qator fakt va raqamlar keltirish o'rini. Masalan, 1 t paxta tolasini olish uchun taxminan 3 t xom paxta, 1 t paxta yog'i uchun 5 t chigit, 1 t pista yog'i uchun 3 t kungaboqar. 1 t shakar uchun 7 t qand lavlagisi ishlataladi. Ushbu raqamlarni nisbiy (foiz) ko'rinishida berish foydadan xoli emas. Chunonchi, paxta tolasining oq paxtadan chiqishi 32-33 foiz, paxta yog'ining chigitdan olinishi 19-20, shakarni qand lavlagidan tayyorlash 14-15 foiz va shunga o'xshash. Demak, bu korxonalar xom ashyo rayonida yoxud unga yaqin maskanda joylashtirilishi shart.

Mineral o'g'itlar ichida kaliy o'g'itini ishlab chiqarish geografiyasi batamom xom ashyo omili bilan belgilanadi, chunki uni olish uchun ko'p miqdorda kaliy tuzi sarflanadi. Ayni paytda, azot (selitra) o'g'itini ishlab chiqaruvchi korxonalar ancha "erkin" joylashadi. Mazkur korxonalar qora metallurgiya markazlariga, suv manbalariga yaqin, neft' va gaz sanoati rivojlangan rayonlarda joylashtirilishi ham mumkin.

1—jadval

**Sanoat mahsulotlarining ayrim turlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar**

Mahsulotlar va tarmoqlar	Xom ashyo	Yoqilg'ji energetika	Ishchi kuchi	Suv	Transport	Ekologiya	Iqtisodiy geografiya	Iste'mol o'rini
Alyuminiy	+	++						
Misni tozalash		++						
Cho'yan	+	++						
Temir qotishmalari	+	++		+				
Po'lat	+	+						
Kaliy o'g'iti	++					+		
Fosfor o'g'iti	+					+		+
Azot o'g'iti	+					+		++
Sintetik tola		++				+		
Qishloq xo'jalik mashinalari								++
Radio, priborsozlik, aniq mashinasozlik			+					++
Sellyuloza-qog'oz sanoati	+			+	+			+
Sement	+					+		+
Paxta tolasi	++				+			
To'qimachilik sanoati	+		+		+			
Paxta yog'i	++							
Go'sht	+					+		+
Sut	+							+

Izoh: ++ hal qiluvchi ta'sir

+ kuchli ta'sir

Xom ashyoga asoslangan sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining geografiyasi eng avvalo mamlakat tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar joylanishi bilan bog'liq. Chunonchi, qishloq xo'jalik ekinlarini hududiy tashkil etishda suv, iqlim va tuproq sharoitlari katta ahamiyatga ega. Ular, ya'ni namlik, harorat va tuproq agroiqlimiy resurslarni tashkil etadi.

Xom ashyo omiliga asoslanib ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish masalalari tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, atrof-muhit tozaligini saqlash muammolarini hisobga olgan holda hal etish maqsadga muvofiqdir. Natijada, tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va ekologiyaga oid bilimlar o'zaro muvofiqlashtiriladi.

Yoqilg'i issiqlik elektr stansiyalari, qora metallurgiya sanoatining dastlabki-cho'yan eritish (domna pechida) bosqichini joylashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Ammo uning ta'siri har doim ham yetakchi kuchga ega emas. Issiqlik elektrostansiyalari yoki metallurgiya zavodlari iste'mol rayonlarida ham joylashtirilishi mumkin. Bunday hol neft va uning mahsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik elektr stansiyalarini qurishga taalluqli (yoqilg'ining quvurlarda keltirilishi iqtisodiy jihatdan ma'qulroq) bo'ladi.

Biroq qora metallurgiya (cho'yan erituvchi) zavodlarini joylashtirish qonuniyatlarini bir xil emas. Ma'lumki, qazib olinadigan temir rudasining taxminan 48-50 foizi foydali, bu degan so'z ulardan deyarli shuncha miqdorda cho'yan olinadi. Ammo bu "o'rtacha" raqam hamma joyda ham bir xil emas-ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17-19 foizni tashkil etadi. Bunday konlarga Uraldagi Qo'shonor yoki Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Tebinbuloq konlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu yerlardan qazib olinadigan rudani bevosita domna pechlarida eritib bo'lmaydi, sababi, unda kerakli mineraldan ko'ra foydasiz jinslar ko'proq. Shuning uchun bu ruda dastlab boyitilishi va uning tarkibidagi foydali mineralning hissasi oshirilishi kerak. Boyitilgandan so'ng ruda tarkibidagi temirning (rangli metallar uchun boyitish jarayoni ayniqsa muhim, chunki ularning rudalar tarkibidagi ulushi nihoyatda past) miqdori bir necha barobar ko'payadi. Lekin bu bilan ham uning hissasi yetarlicha bo'lmaydi. Shu sababdan, metallurgiya korxonalari ko'proq xom ashyo rayoniga yaqinroq joylashtiriladi.

Yer yuzida "boy" konlar ham yo'q emas. Jumladan, Kursk magnit anomaliyasi (Rossiya) doirasiga kiruvchi Belgorod yaqinidagi konlarda temirningrudadagi ulushi 60-65 foizgacha yetadi. Binoharin, bundan qazib olingan xom ashyo to'g'ridan-to'g'ri, boyitilmasdan domna pechlarida eritilishi mumkin. Shunday ekan, ularni tashib borish uchun transport

xarajallari va pirovard natijada eritilgan cho`yanning tannarxi uncha yuqori bo`lmaydi. Bu esa korxonalarни yoqilg'i (kokslanuvchi ko`mir) rayonida yoki unga yaqin joylarda qurishni taqozo etadi. Qozog'iston Respublikasidagi Qaraganda to'liq siklli metallurgiya kombinati bevosita ko`mir havzası rayonida joylashtirilgan, Lipetsk, Tula, Krivoy Rog kombinatlari esa xom ashyo, ya'nı temir rudasi konlariga yaqin qurilgan.

Ba'zan metallurgiya zavodlari xom ashyo va yoqilg'i rayonlari o'rtaida joylashtirilgan, chunki mazkur sanoat tarmog'i uchun bu ikki omilning ahamiyati deyarli bir xil. Bunga yorqin misol bo'lib Cherepovesk metallurgiya kombinati (Rossiya Federatsiasi) xizmat qiladi. U Pechora kokslanuvchi ko`mir havzası bilan Kola yarim oroli temir rudasi konlarining taxminan o'rtaida qurilgan. Ammo korxona aniq ikki oraliq masofada emas, u biroz g'arba "tortilgan", sababi Sankt-Peterburgning yirik mashinasozlik sanoatini po'lat va prokatga bo'lgan extiyojini qondirishdir. Korxona yaqinida katta suv ombori ham bor.

Shuningdek, ko`mir va temir rudasini bir-biri bilan hududiy (mayatniksimon) almashuvi asosida har ikkala rayonda shakllangan qora metallurgiya markazlari mavjud. Bu borada o'tgan asrning 30-yillarida amalga oshirilgan Ural-Kuznesk kombinati (UKK)-ni ko`rsatish o'rinni. Ushbu dastur hududiy ishlab chiqarish majmuuning dastlabki ko`rinishi bo'lib, uni hayotga tatbiq etishda ham xom ashyo rayonida - Janubiy Ural temir rudasi konlari asosida (eng yirik Magnitogorsk metallurgiya kombinati), ham yoqilg'i rayoni - Kuznesk toshko`mir havzasida, ya'nı Novokuzneskda bunday ulkan korxonalar buniyod etilgan edi.

Ma'lumki, Donesk-Dnepr ho'yı rayoni Ukraina davlatining asosiy yoqilg'i va qora metallurgiya bazasi hisoblanadi. U ilgari dunyoga dongi ketgan Uralni allaqachon orqada qoldirib, o'tgan asrning oxirgi choragida kapitalistik asosda gurkirab rivojlangan, o'sha paytlarda Janubiy sanoat rayoni deb atalgan o'lkadir. Hozirgi davrda hu yerda qora metallurgianing ikkita ixtisoslashgan rayoni shakllangan bo'lib, ular bir-birlari bilan xom ashyo va yoqilg'i almashuvi negizida ishlaydilar. Bu ham bo'lsa Donbass va Dnepr bo'yidagi bir guruh korxonalar uyushmasidir. Donbassda kokslanuvchi ko`mir, Dnepr bo'yida temir rудаси (Krivoy Rog havzası) bor. Mazkur mintaqada uchinchi, lekin oldingilarga qaraganda kichikroq metallurgiya rayoni, aniqrog'i markazi ham mavjud. Bu yerda Mariupoldagi korxonalar birikmasi nazarda tutilmokda. U Donbass ko`miri va Kerch yarim oroligidi Qamishburun temir rудаси negizida ishlaydi.

**Elektr quvvati.** Hozirgi zamon ishlab chiqarishini, hatto transport va qishloq xo'jaligini ham elektr quvvatisiz tassavur qilish qiyin. Bu

sohaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan maxsulotni, ya'nı elektr quvvatini jaŋ'arib, omborxonalarga yig'ib bo'lmaydi, undan ayni paytning o'zida foydalanish kerak; Bundan tashqari, elektr quvvati yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari (shoxobchalar) orqali uzoq masofalarga berilishi mumkin. Xuddi shu maqsadda Kansk-Achinsk, Ekibastuz ("Ikki bosh tuzi") ko'mir havzalarida yirik yoqilg'i-energetika majmualari harpo etilgan. Angren ko'mir havzasida ham xuddi shunday majmua yaratilgan. Ammo ba'zan murakkab tog' sharoitiga ega bo'lgan rayonlarda elektr quvvatini uzoqqa uzatish iktisodiy jihatdan ma'qul hisoblanmaydi. Bu quvvatdan mumkin qadar shu joyning o'zida foydalanish lozim bo'lib qoladi.

Odatda elektr, quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo uning arzon turiga urg'u beriladi. Arzon elektr quvvati suv stansiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha GESdan keyin ham qolaveradi, issiqlik elektr stansiyalarida esa ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz sarflanadi. Elektr quvvati omiliga quyidagi misollarni keltirish kifoya: I t titan ishlab chiqarish uchun (titan po'latdan bir necha marta yengil va ayni paytda ancha chidamli) 40-50 ming kvt/s, alyuminiy uchun 17-19 ming kvt/s, misni tozalash. temir qotishmalarini ishlab chiqarish, elektr oddiy pechlarida po'lat eritish uchun ularning har bir tonnasiga 8-10 ming kvt/s atrofida elektr quvvati sarflanadi. Tabiiyki, bunday korxonalarini arzon elektr energiya manbalariga yaqin joyda qurilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rossiyaning bir qator shaharlarda GES va alyuminiy zavodlari aynan bir joyda, bir markazda uchraydi. Masalan, Bratsk GES va Bratsk alyuminiy zavodi, Krasnoyarskdagi GES va alyuminiy zavodi va h.k. Bunday korxonalar birikmasi Volgograd, Volxov, Zaporoyje va boshqa shaharlarda ham mavjud. O'rta Osiyo mamlakatlari yagona bo'lgan Tursunzoda (Regar) shahridagi Tojik alyuminiy zavodi Norak GESta yaqin joyda qurilgan,

Demak, elektr enegiyasi bir qator sanoat korxonalarini o'z atrofiga "yig'ar" ekan. Shu sababli u yirik rayon va majmua hosil qilish qudratiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Tolimarjondagi bir qator nasos stansiyalari vositasi bilan sug'oriladi. Elektr quvvati Norak-Tursunzoda (Regar) - G'uzor orqali keladi. Hozirgi kunda esa shu yerning o'zida juda yirik mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tolimarjon IES qurilmoqda.

Suv va iqlim sharoitlari ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari ayniqsa kimyo, yog` och-sellyuloza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Jumladan, cho`yan erituvchi pechlarni sovitish uchun ham suv kerak. Ayni shu sababli temir rudasiga boy bo`lgan Rossiya Federatsiyasining KMA joylashgan Markaziy Qoratuproq rayonida qora metallurgiya sust rivojlangan. Bu yerda mazkur imkoniyatning yo`qligidan Stariy Oskol shahrida domnasi, birdaniga boyitilgan temir rudasidan (okatishlardan) po`lat erituvchi "Elektrostal" birlashmasi qurilgan. Bu korxona uchun elektr quvvati Voronej, Kursk atom elektr stansiyalaridan olinadi.

Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Bu omilniig ahamiyati qishloq xo`jaligi, dehqonchilik uchun nihoyatda katta. Chunonchi, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston Respublikasida an'anaviy dehqonchilik uning issiq va quruq iqlimi sharoitida faqat sun'iy sug`orish asosida olib boriladi. Paxta, meva, sabzavot, uzum va boshqa qishloq xo`jalik mahsulotlariga suv hamda issiq iqlim (ma'lum miqdordagi vegetatsiya haroratining miqdori) juda zarur. Shu bilan birga, issiq iqlim sharoitida sanoat korxonalarni ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip-gazlama ishlab chiqarishga o`xshash tarmoqlarni ko`proq rivojlantirish talab etiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida eng muhimmi aholi va mehnat resurslaridir. Albatta, har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo`lmaydi. Bu o'rinda ikki holni qayd qilish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatdan ko`p ishchi kerak Masalan, tikuv fabrikasi, konserva zavodi, paxta yetishtirish, uni qayta ishlash va x.k. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalarga mehnat resurslarining miqdori ko`p bo`lishi shart emas, aksincha "oz bo`lsa ham soz bo`lsin" ma'nosida ularga malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxonalar va tarmoqlar (radio yoki priborsozlik, aniq mashinasozlik va shunga o`xshash) malakali ishchi kuchi mavjud bo`lgan shaharlarda, ilmiy-texnik markazlarida joylashtiriladi.

O'zbekistonda mehnatga layoqatlari aholi soni juda ko`p. Ularning miqdori qishloq joylarda va sust rivojlangan kichik shaharlarda juda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o`rinlarini kengaytirish, yangi sanoat va boshqa korkonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish zarur.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo iste'molchi hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda, xalqning yashash sharoiti va darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda. Aholini ijtimoiy

muhofaza qilish, muvaqqat qiyinchiliklarga barham berish, unga kerak bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa extiyojlarni qondiruvchi mahsulotlarni yetarli darajada ishlab chiqarishni taqozo etadi. Shu sababli, iste'mol omili oziq-ovqat korxonalarini o'ziga "tortadi", ya'ni bunday zavod yoki fabrikalar bevosita aholi yashovchi maskanlarda joylashtiriladi.

Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zining talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularni transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarни iste'mol rayonlarida tashkil etishni nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo'jalik mashinasozligi o'sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerda rivojlanishi zarur.

Umuman, qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa, shunga mos mashinasozlik tarmog'i bu yerda yaxshi rivojlangan bo'lishi qonuniy bir holdir. O'zbekistonda paxta teruvchi, Belorussiyada - kartoshka, Ukrainada qand lavlagi, Shimoliy Kavkaz va Volga bo'yida g'alla yig'uvchi, Qirgizistonda pichan taxlovechi, Gruziyada choy teruvchi mashinalarni ishlab chiqarish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xuddi shunday, rayonlarni ma'lum bir sanoat tarmoqlariga ixtisoslashuvi o'sha sohalarga tegishli mashina, asbob-uskuna, jihozlar ishlab chiqarilishini talab etadi. Chunonchi, Uralda metalluriya sanoati uchun, Bokuda-neft, Donbassda - ko'mir, Petrozavodskda - o'rmon, O'zbekistonda to'qimachilik mashinasozligi rivojlangan.

Boshqa sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda ko'p iste'mol qilinadigan qishloq ho'jalik mahsulotlari - sut, piyoz, karam va boshqalarni shahar atrofi xo'jaligi doirasida tashkil etish kerak. Yoki: neftni keltirib, undan benzin, kerosin, mazut va shunga o'xshash qator mahsulotlarni olish, kimyo sanotini rivojlantrish yaxshimi yoki ularning har birini alohida-alohida keltirish-mi? Tabiiyki, bu yerda birinchi variant ma'qul roqdir. Xuddi shunga o'xshash: boshqa mamlakatlardan g'alla olish yaxshimi yoki u yerdan suxari, pechen'e, makaron, vermishel va boshqalarni keltirishmi?

Go'sht sanoatini joylashtirish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sanoat bevosita chorvachilik rayonlarida rivojlantrilsa, unda iste'molchiga faqat muzlatilgan go'sht keltiriladi. Bunday go'shtdan esa kolbasa, konserva va boshqa go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarib bo'lmaydi. Agar go'sht sanoati iste'mol rayonlarida joylashtirilsa-chi? Unga molni (chorvani) keltirish kerak, ammo bu davrda biroz bo'lsa-da u (chorva) o'z tirik vaznini yo'qotadi. Bundan tashqari, go'sht mahsulotini ishlab

chiqarish molning juni va terisi, qoni va suyagidan shu joyning o'zida foydalanish imkoniyatini bersa-da, mazkur zavodlarni (aniqrog'i kombinatlarni) yirik shahar ichida o'mashtirish ekologik nuqtai nazardan to'g'ri kelmaydi.

Bir vaqtlar yirik go'sht kombinati Toshkentning Beshyog' och dahasida, Bo'zsuv arig'i bo'yida qurilgan edi. O'z navbatida bu korxona ko'ncilik, poyafzal sanoatining aynan shu rayonida shakllanganiga sabab bo'lgandi. Keyinchalik mazkur korxonaning shahar ichida joylanishini ko'p jihatdan noma'qulligi sezilib qoldi va u Zangiota tumanidagi O'rtaovul shaharchasiga ko'chirildi. Demak, bu korxona o'z o'mini chovchilik rayonida ham emas, shaharda ham emas-ekologik bexatar, iste'molchilarga nisbatan yaqin joyda topdi.

Transport ham juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport shaxobchalarisiz xom ashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste'molchilarga yetkazilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi va uni "sof" holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga, transport masalasi iqtisodiy geografik o'rin omili bilan ham chambarchas bog'liq, chunki bu obyektning eng avvalo tashqi (hududiy) iqtisodiy munosabatlarni anglatadi.

Biz ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda ta'sir qiluvchi omillarni ko'rар ekanmiz, ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning ahamiyatini chetlab o'tolmaymiz. Bu omilning ta'siri bir qator tarmoqlarning hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko'rinadi (mashinasozlik, elektroenergetika va kimyo). Shubhasizki, mazkur sanoat tarmoqlariga tegishli ko'pgina korxonalar, ayniqsa hozirgi zamon mashinasozlik zavodlari yuksak darajada ilmiy-texnika salohiyatiga ega bo'lgan shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan barcha omillar qatorida ekologik omilning ahamiyati ham katta. Ekologik jihatdan ko'p sanoat tarmoqlari va eng avvalo kimyo, yog' och-sellyuloza, go'sht, vino, konserva, charm zavodlari, issiqqliqlik elektr stansiyalari va shunga o'xshash korxonalar "nomaqbul" hisoblanadi. Binobarin, ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lgani yaxshiroq.

Kimyo sanoati misolida ekologik omilning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etilishiga ta'sirini ko'rish mumkin, chunki bu sanoat korxonalarining joylashtirilishi chinakam erkin xususiyatga ega. Chunki, kimyo sanoati o'simlik, hayvonot, mineral xom ashysosi, suv, havo (azot)

asosida ham, boshqa sanoat chiqindisi (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti omilini ham unutmaslik kerak. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish joizki, bozor iqtisodiyoti munosabatlarga birdaniga o'tib bo'lmaydi, buning uchun barcha shart va sharoitlarni yaratish talab etiladi, ya'ni uning o'zining moddiy, maishiy va madaniy infrastrukturasi bo'lmog'i lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tarixan birmuncha uzoq davrni nazarda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti - bu ishlab chiqarish erkinligi, talabning ustuvorligi, raqobatdir. Bunday sharoitda ko'p ukladli iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirish, qulay investitsiya makonini shakllantirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu boradagi ilgarigi, an'anaviy fikr yuritishlarimiz tamomila o'zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda aksariyat narsani, shu jumladan, nimaga ixtisoslashuvni va qayerda joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa o'zining mintaqaviy va soliq, kredit, narx-navo, investitsiya siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib boradi.

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa Yevropada ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasi bozor iqtisodiyotiga mos ravishda yaratilgan va amaliyotda sinalgan. Masalan, "shtandort" nazariyasi doirasidagi aglomeratsion qulaylik yoki samaradorlik omili ham juda murakkab bo'lib, u o'zida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etilishining barcha shakllarini va, xususan, kooperatsiya va ixtisoslashuvni uyg'unlashtirilgan holda aks ettiradi. Qolaversa, ishlab chiqarish aglomeratsiyasi - bu korxonalarini mal'um bir nuqta yoki joyda to'planishi, mujassamlashuvi hamdir. U ayni paytda infrastruktura omilini o'zida singdiradi, chunki infrastruktura jihatdan ta'minlanganlik hududlarning investitsiya jalb qilish qobiliyatini (jozibadorligini) kuchaytiradi.

"Shtandort" nazariyasi (uni nemis olimi A. Veber yaratgan) mamlakatni industriyalashning dastlabki bosqichlariga juda qo'l keladi. U hududning iqtisodiy jihatdan uncha rivojlanmagan sharoitida barcha uchun va hamma vaqt kerak bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarmaydigan noyob sanoat tarmoqlariga taalluqlidir. Hududning iqtisodiy zichligi, uning murakkablashib va rivojlanib borishi bilan ishlab chiqarishni geografik tashkil etishda boshqa g'oya va omillardan foydalanishga to'g'ri keladi. Chunonchi, hamma uchun har doim lozim bo'lgan mahsulotlar, aholiga

maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari turli yiriklikdagi va turli funksiyali markazlarda pog'onasimon yoki iyerarxiyalı joylashtiriladi (bu borada V. Kristallerning "markaziy o'rinalar" g'oyasi katta ahamiyat kasb etadi).

### Savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarishni joylashtirish va uni hududiy tashkil etish o'rtasida qanday farq bor?
2. Xom ashyo mahsulotga nisbatan ko'p sarflansa, ya'ni mahsulotning xom ashyo sig'imi yuqori bo'lsa, ekologik vaziyat qanday bo'ladi? Misollar yordamida tushuntiring.
3. Yoqilg'i-energetika omilining iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirishga ta'siri qanday?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etish xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Transport tarmoqlarini joylashtirish qaysi omillarga bog'liq?
6. O'zingiz yashab turgan viloyat yoki shahar xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv xususiyatlarini yozma ravishda tavsiflab bering.

## TARMOQLAR VA TARMOQLARARO MAJMUALAR GEOGRAFIYASI

### Reja

1. Tarmoqlar haqida umumiy tushuncha.
2. Tarmoqlararo majmualar.
3. O'zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi.
4. Agrosanoat majmui va uning ichki tuzilishi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya gaichand rayon yo'nalishi asosida yaratilgan bo'lsa-da, unda tarmoqlarni o'rganish ham muhim o'rinni egallaydi. Albatta, bu yerda tarmoqlar o'z holicha, quruq statistik yo'sinda emas, balki geografik nuqtai nazardan, ya'ni ularni hududiy tashkil etilish xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganiladi. Ayni paytda mintaqqa iqtisodiyotini tahlil qilish, uni tashkil etuvchi tarmoqlar tizim-tarkib uslubiga asoslanib amalga oshiriladi.

Demak, tarmoqlar rayonlar yoki ularning hududiy tarkibi, rayonlar esa tarmoqlar tuzilishi vositasi bilan o'rganiladi. Xuddi ana shu ikki turli ko'rinishdagi tizim-tarkib uslubidan bir-biri bilan bog'liq va uyg'unlashtirilgan tarzda foydalana olish geografik fikrlashning muhim mezonii va talabidir.

Bu mavzuni yoritishdan oldin, odatdagidek, umumiy tushunchalarni ochib berish lozim. Aks holda har qadamda bu umumiy tushunchalarsiz "qoqlish", behuda orqaga chekinishlar bo'lishi turgan gap. Shu bois eng avvalo tarmoq tushunchasini tahlil qilishimiz o'rinnlidir.

Ma'lumki, xalq xo'jaligini tashkil etuvchi tarmoqlar muayyan belgilarga asoslangan holda ajratiladi. Ushbu masalani sanoat tarmoqlari misolida ko'rish mumkin. Sanoat tarmoqlari quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda ajratiladi. Bular:

- xom ashyo birligi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni qaysi maqsadda yaratilganligi;
- texnologik birlik.

Xom ashyo asosida mashinasozlik, o'rmon va barcha tog'-kon sanoat tarmoqlari ajratilgan. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida, jumladan, turli texnologiya yordamida har xil mahsulot - muzyorar kemalar yoki gigant ekskavatorlar, samolyotlar, avtomobil, stanok, asbob-uskunalar va hatto juda kichik ignalar, naylarni ishlab chiqarish va boshqalar kiradi, chunki ularning asosida faqat metall yotadi. O'rmon sanoatida ham xuddi shunday: o'rmon-yog' och negizida har xil texnologiyani qo'llab, turli maqsadlar uchun qog'oz, gugurt, qurilish materiallari, yog'och uylar, temir yo'l shpallari, gidroliz sperti kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Ikkinci belgi asosida oziq-ovqat, yengil, elektroenergetika, metallurgiya, qurilish sanoati va boshqa tarmoqlar ajratiladi. Chunonchi; oziq-ovqat sanoat korxonalarini turli xom ashyo va har xil texnologiyadan foydalaniib, faqat bir maqsadda, ya'nii aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ishlaydi. Qolgan sanoat tarmoqlari ham shunday: metallurgiya mashinasozlikni, elektroenergetika butun xalq xo'jaligini ta'minlashga qaratilgan.

Texnologik jarayonning umumiyligi birgina tarmoqni belgilash uchun xizmat qiladi, xolos. Bu ham bo'lsa kimyo sanoati, chunki unga kiruvchi barcha korxonalar har xil xom ashyo, turli maqsadlar (kimyo mahsulotlari barcha sohalarda bor) ko'zlab ishlaydi. Ularning barchasiga umumiy mezon - texnologik jarayonning birligi hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlari, ular ishlab chiqaradigan mahsulot xususiyatiga ko'ra, ikki guruhga ajratiladi: og'ir sanoat yoki "A" guruhi va yengil, oziq-ovqat sanoati yoki "B" guruh. Bu yerda birinchisi ishlab chiqarish vositalarini, ikkinchisi esa iste'mol mollarini ishlab chiqaradi. Umumiy qonuniyat "A" guruhini "B"-ga nisbatan ustuvor, tezroq rivojlanishidan iborat, chunki ishlab chiqarish vositalarisiz (mashina, yoqilg'i, qurilish

materiallari, metall va x.k.) iste'mol mahsulotlari, qolaversa, butun xalq xo'jaligini rivojlantirish qiyin.

Biroq bu qonuniyat barcha mamlakatlarda ham birday emas. Masalan, sobiq Ittifoq xalq xo'jaligini industriyalashda aynan shu maqsad ko'zlangan edi, ya'ni avval og'ir sanoat - ishlab chiqarish vositalari, so'ng qolganlari. Natijada, mamlakatda juda yirik sanoat korxonaları - mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, kimyo zavodlari, elektr stansiyalari barpo etildi. Ammo qolgan tarmoqlarga, ijtimoiy jabhalarga e'tibor kam edi. Ehtimol, shu ham geografiya fanining ko'proq iqtisodiy bo'lishiga, jamiyatda insonga-ijtimoiy sohalarga e'tiborsizlikka olib kelgan bo'lsa ajab emas.

Xorijiy mamlakatlarda esa industriyalash boshqacha yo'sinda olib borilgan: bu yerda asta-sekinlik (evolyutsion yo'l) bilan, ya'ni avval yengil (to'qimachilik), so'ngra boshqa sanoat tarmoqlari barpo etila boshlangan. Bizda traktorsozlik paxtachilik uchun kerak deb rivojlantirilgan bo'lsa, xorijda tekstil uchun mashina, dastgohlar, ular uchun esa, o'z navbatida, metall zarur degan ma'noda amal qilindi (ya'ni "pastdan yuqoriga").

O'rta Osiyo respublikalarida o'sha davrda, jumladan, hududimizda foydali qazilmalarning ochilmaganligi, temir yo'llarning kamligi, milliy ishchi kadrlarning yo'qligi qishloq xo'jaligi asosida rivojlanuvchi yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini qurishni talab etardi. Sanoat tarmoqlarining bunday rivojlanishi shaharlashuv jarayonining ham muhim mintaqaviy xususiyatini aniqlab berdi.

Hozirgi davrda respublikamizda og'ir sanoat bilan iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o'rtasida biroz nomuvofiqliklar vujudga kelgan, ya'ni ikkinchi guruh tarmoqlar ancha orqada qolib ketdi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida "B" guruh rivojini faoliashirish, ichki bozorni iste'mol mollar bilan to'ldirish muhim masala sifatida oldinga surilgan.

Hozirgi davrda jahon sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi jarayonlar namoyon bo'lmoqda:

- ilmiy-texnika taraqqiyotini belgilovchi sohalarning (elektroenergetika, mashinasozlik va kimyo) ildamroq rivojlanishi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti negizida yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;
- tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi va h.k.

Yuqorida asosan sanoat tarmoqlariga e'tibor berildi. Bu bejiz emas, chunki aynan ularning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari ko'proq

notabiy sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Qishloq xo'jalik va transport tarmoqlarida ham differensiatsiya va diversifikasiya (turlanish) hamda integratsiya (qo'shilib borish, umumlashish) jarayoni kechmoqda. Biroq, bu masalalar sanoat tarmoqlari tarkibida ravshanroq namoyon bo'ladi.

Mustaqil mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarkibida bir qator tarmoqlararo majmualar vujudga kelmoqda. Ular orasida yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, agrosanoat majmualarining ahamiyati katta. Sababi, yoqilgi-energetika va oziq-ovqat majmuasi yaxshi rivojlanmagan har qanday mamlakatni tom ma'noda iqtisodiy barkamol va mustaqil deb bo`lmaydi. Shu bois bu majmualarga taalluqli korxonalarni ko'proq va tezroq rivojlantirish maqsadiga muvofiqdir.

Metallurgiya (qora va rangli metallurgiya) majmuasini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa metallurgiya asosida rivojlanuvchi mashinasozlikka e'tiborni kuchaytirish lozim. Mashinasozlikni tarimoqlararo majmua sifatida qaralishiga sabab uning tarkibiy jihatdan juda murakkab, ko'p tarmoqlardan tashkil topganligidadir.

Mashinasozlik korxonalarini turli omillarga ko'ra joylashtiriladi. Ular orasida xom ashyo (metall), iste'mol, malakali ishchi kuchi va iqtisodiy geografik o'rinn asosiy mavqe'larni egallaydi.

Ko'p metallni talab qiluvchi korxonalar qora metallurgiya rayonlariga, malakali kadrlarga asoslangan mashinasozlik esa yirik, ilmiy-texnika yuqori darajada rivojlangan shaharlarda joylashadi.

O'zbekiston Respublikasida mazkur sanoat tarkibi asosan ikkinchi jahon urushi yillarda front chizig'idan ko'chirilib keltirilgan zavodlar, ularning asbob-uskunalarini negizida vujudga keldi. Bunga misol tariqasida hozirgi "O'zbekqishloqmash", "Chiriqximmash", Samarcanddag'i kinoapparatura, Andijondagi "Kommunar" va boshqa zavodlami ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda respublikamizda mashinasozlikning turli tarmoqlari va, xususan, avtomobilsozlik yuqori darajada rivojlangan. Boshqa sohalar orasida qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mashinasozligi, samolyotsozlik, elektr lampasi, kabel, traktor, transformator zavodlari ajralib turadi. Yirik mashinasozlik markazlari: Toshkent, Samarcand, Andijon, Chirchiq, Namangan, Asaka va boshqalar.

Ammo respublikamizda hozircha zamonaviy mashinasozlik yaxshi rivojlanmagan, metallni qayta ishlash, turli xil mashinalarni ta'mirlash va shunga o'xshash "passiv" mashinasozlik asosiy o'rinda turibdi. Binobarin, keljakda radio, televizor, kompyuter, suratga olish apparatlari, soat va shular kabi aniq va zamonaviy mashinasozlikning rivojlanishiga e'tibor kuchaytirish kerak. Buning uchun eng avvalo mahalliy aholidan yuqori

malakali ishchi kadrlarni tayyorlash lozim. Mehnat resurslarini qayta tayyorlash va ulardan samarali foydalanish O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini ildam rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi tufayli zamonaviy mashinasozlik korxonalarini chet el firmalari bilan hamkorlikda qurish tajribasi ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Asakada (Andijon viloyati) Janubiy Koreya, Samarqandda Turkiya bilan birqalikda yengil avtomashina va avtobus ishlab chiqaruvchi korxona yaratilgan, mavjud yirik sanoat korxonalarida ("Zenit", "Mikond", "Algoritm" va b.) chet mamlakatlar sarmoyasi va texnologiyasidan foydalanilgan holda zamonaviy elektrotexnika mahsulotlari, jumladan, radio, televizor va boshqalarni ishlab chiqish yo'lga qo'yilmoqda. Kelajakda bunday korxonalar soni yanada ko'payib, mashinasozlik sanoatining ichki tarkibi ancha faollashadi.

Xalq farovonligini, aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishda agrosanoat majmuasining roli katta. Bu majmua keng ma'noda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni transport orqali tashish, saqlash, qayta ishslash va niyoyat butun ishlab chiqarish jarayoni uchun kerak bo'lgan barcha sanoat korxonalarini o'z ichiga oladi. Uning o'zagini esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi va ularni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari tashkil etadi. Davlat va umumxalq ahamiyatiga molik rasmiy hujjatlarda agrosanoat majmuasiga qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati kiritiladi.

Bunday majmualarning shakllanishi obyektiv bo'lib, uning asosida qishloq xo'jaligi bilan sanoatning bir-biriga yaqinlashuvi, hamkorligi (kooperatsiyasi) yotadi. Agrosanoat majmuasini to'g'ri rivojlantirish juda katta va keng ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik mazmunga ega. Masalan, ular qishloq joylarga sanoat korxonalarini kiritishga, qishloq mehnat resurslaridan samarali foydalanishga, sanoat korxonalari chiqindisi negizida chorvachilikni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Agrosanoat majmualari ikki ko'rinishdagi tarkibga ega: tarmoq va hududiy tarkib. Geografik nuqtai nazardan ularning hududiy tashkii etilishidagi qonuniyatlarini o'rganish muhimroqdir. Bu yerda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvidagi xususiyatlarni, ularning mavsumiyligi hamda areal va mintaqaviy tashkil etilishidek tomonlarini alohida ta'kidlash lozim.

Agrosanoat majmualari dehqonchilik va chorvachilik negizida shakllanadi. Bizning sharoitimizda ko'proq birinchisi, eng avvalo

uzumchilik, bog'dorchilik bilan bog'liq bo'lgan sanoat korxonalarini tarqalgan.

Tabiiy sharoitning qulayligi asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga, bu esa yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga, ichki bozormi iste'mol mollari bilan ta'minlashga va, natijada, xalq farovonligini oshirishga olib keladi. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotning asosi bo'lgan qishloq xo'jaligiga va ayniqsa, dehqonchilikka e'tiborni kuchaytirish mam'lakatimizda dolzarb masala hisoblanadi.

Tarmoqlararo majmualar N.N.Kolosovskiy tomonidan 1947-yilda yaratilgan energiya ishlab chiqarish sikllariga o'xshab ketadi. Uning mohiyati-muayyan xom ashyo va energiya asosida ishlab chiqarishning uzlusiz texnologik jarayonini amalga oshirishdan iborat. Masalan, kokslanuvchi ko'mir va temir rudasi asosida cho'yan, po'lat, prokat hamda ularning chiqindilaridan foydalanib, har xil kimyoviy mahsulotlar, qurilish materiallari va boshqalarni ishlab chiqarish yoki mehnat resurslari va sug'orish inshootlari negizida paxta yetishtirish, paxta xom ashysini toplash, qayta ishlash, ip-gazlama va undan turli mahsulotlarni tayyorlash energiya ishlab chiqarish siklli (qora metallurgiyaning pirometallurgiya va to'qimachilik industrial tsikllar) asosida tashkil etiladi.

O'zbekistonda agroindustrial siklning dehqonchilik sanoati hamda chorvachilik-sanoati yo'nalishlari, to'qimachilik-industrial, neft-gaz, kimyo, rangdor metallar sikllari shakllanmoqda. Ishlab chiqarishni mazkur sikllar asosida tashkil etish muhim iqtisodiy va ekologik ahamiyatga ega. Bunda transport harajatlari qisqaradi, chiqindilaridan foydalinish esa atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirni kamaytiradi va h.k.

Shu o'rinda tarmoqlararo va hududiy majmualar o'rasisidagi farqni ham anglamoq zarur. Chunki ularning har ikkalasi ham majmua, ammo biri tarmoqlar va texnologik negizda vujudga kelsa, ikkinchisi turli tarmoqlarning muayyan bir hududda uyg'unlashuvini bildiradi. Binobarin, hududiy ishlab chiqarish majmualari tarmoqlararo majmualarga ko'ra geografiyaga yaqinroqdir. Ammo bu yerda ham tizim - tarkib qoidasiga muvosif ularni bir-biriga bog'liq holda qaramoq lozim. Ayniqsa, hududiy ishlab chiqarish majmualarini tahlil etishda ularning ichidagi tarmoqlararo aloqalarni ochib berish niroyatda ahamiyatlidir. Shu bilan birga, tarmoqlarni o'rganishda ularning hududiy tashkil etilishiga e'tibor berish kerak.

Shunday qilib, tarmoqlararo va hududiy majmualar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining muhim tadqiqot obyektlari hisoblanadi. Tabiiyki, majmuani yoki shunga o'xshash murakkab vogelikni kompleks, har

tomonlama o'rganish talab etiladi. Demak, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tadqiqot obyekti-hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar yoki komplekslar keng qamrovli yondoshishni nazarda tutadi. Geografik bilimning muhim xususiyatidan biri bo'l mish chinakam kompleks uslubiyoti ham shundan kelib chiqadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Tarmoqlar qaysi omillar asosida tashkil etiladi?
2. Ilmiy-tehnika taraqqiyotini belgilovchi tarmoqlar qaysilar?
3. Tarmoqlararo majmualarning joylanish va rivojlanish xususiyatlarini izohlab bering.
4. Iqtisodiy geografik tahlilda tarmoqdan hududga va hududdan tarmoqga o'tishning ahamiyatini qanday tushunasiz?
5. Energiya ishlab chiqarish sikllari nima?

## HUDUDIY ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARI

### Reja

1. Iqtisodiy rayon va hududiy ishlab chiqarish majmualari
2. HICHMLar shakllanishining nazariy asoslari.
3. O'zbekistonda HICHMLarning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Ijtimoiy sohalarda hududiy majmualar.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asosini bir qator ilmiy g'oya (konsepsiya), tushuncha va qonuniyatlar tashkil etadi. Ular jumlasiga umuman geografiya fanining bosh tushunchasi rayon, uning fundamental tushunchasi-hududiy mehnat taqsimoti, shuningdek, iqtisodiy geografik o'rinni va boshqalar kiradi. Hududiy ishlab chiqarish komplekslari yoki majmualari (HICHM) ham bu tushunchalar orasida muhim mavqega ega.

Rayon-fransuz tilidan olingan bo'lib (ingliz tilida-region), u hududning umumiyligi xususiyatiga ega bo'lgan ma'lum bir qismini anglatadi. Rayon turli bosqichli va maqsadli yoki yo'nalishli bo'ladi. Bizning fanimizga tegishlisi esa iqtisodiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy rayonlar deb ataladi.

O'z navbatida rayon, ayniqsa iqtisodiy rayon hududiy (geografik) mehnat taqsimotining natijasidir. Hududiy mehnat taqsimoti esa iqtisodiy geografik jarayon bo'lib, uning rivojlanish zaminida tabiiy sharoit va resurslarning hududiy jihatdan turli-tumanligi yotadi. Bu tabiiy hududiy tafovutlar xalq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishi va joylashuvining bir

joydan ikkinchi joyning farq qilishiga olib keladi, ularsiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining o`zi ham bo`lmaydi. "Hamma joyda bor narsa geografiyada aslo bo`lmastigi kerak", deb beziz aytishmagan.

Ko`rinib turibdiki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy tushunchalari bir-birlari bilan chambarchas bog`liq, shu bois ularni aloqdo`rlikda qarash katta ahamiyatga ega. Bu fikr hududiy ishlab chiqarish majmualariga ham daxldor. Uni o`rganish esa metodologik jihatdan tizim-tarkib uslubiga mos keladi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy va ijtimoiy geografisiyaning jahon ahamiyatiga molik bo`lgan nazariy yutuqlaridan biridir. Uni yaratishda taniqli rus olimi N.N.Kolosovskiyning xizmatini ko`rsatish joiz.

Ishlab chiqarishning hududiy birliklari to`g`risida ilk bor akademik I.G.Aleksandrov mamlakatni elektrlashtirish haqida fikr bildirilgan edi. Bu olim o`tgan asrning yigirmanchi yillarda turli yirik elektr stansiyalarini loyihalashda bevosita ishtirok etib, rayon kombinatlari (RK) to`g`risidagi nazariyasini yaratadi. O`ttzinchi yillarda esa bu muhim masalani chuqur o`rganib, rayon ishlab chiqarish kombinatlarini (RICHK) barpo etish lozimligini ta`kidladi. Keyinchalik N.N.Kolosovskiy I.G.Aleksandrovnning RICHK to`g`risidagi nazariy ishidan Ural, Sibir va Qozog`iston kabi yirik rayonlar misolida amaliy foydalandi, uni boyitdi va shu asosda o`zining rayon komplekslari (majmualari) to`g`risidagi ilmiy g`oyasini yaratdi.

N.N.Kolosovskiy 1947-yilda hududiy ishlab chiqarish (aniqrog`i, ishlab chiqarishnimng hududiy birikmalari yoki komplekslari) mavzusida o`z maqolasini chop ettirdi. Uning fikricha, bu nazariyaning asosiy mohiyatini ma`lum bir hududda yoki joyda ishlab chiqarish korxonalari va aholi manzilgohlarini bir-biri bilan bog`liq holda rivojlanishi va joyylanishi tashkil etadi. U ishlab chiqarishning hududiy majmuasini iqtisodiy geografiya fanining tarkibiy qismi ekanligini ta`kidlab, ayni paytda ma`lum hududda o`rnashgan ishlab chiqarish korxonalarining yig`indisi har doim ham majmua hosil qilmaydi, deb uqtiradi. Bunday holda korxonalarning oddiy hududiy guruhi tashkil bo`ladi, xolos. Demak, har qanday hududiy majmua bu korxonalar guruhi, ammo har qanday guruh majmua bo`la olmaydi.

Keyinchalik HICHM nazariyasini rivojlantirishga N.T.Agafonov, M.K.Bandman, T.M.Kalashnikova, A.T.Xrushev, M.D.Sharigin, K.N.Bedrinsev, Z.M.Akramov, O.Abdullayev, Q.Abirqulov, A.Ro`ziyev, O.B.Otamirzayev, A.S.Soliyev, A.M.Sodiqov kabi bir qator olimlar o`z hissalarini qo`shganlar.

Ma'lumki, hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning zaminida iqtisodiy rayonlar va HICHMLar vujudga keladi.

N.N.Kolosovskiy ishlab chiqarishning hududiy majmualari (yoki HICHM) tushunchasi iqtisodiy rayonlar o'rnini egallamasligi kerak, ular iqtisodiy rayonlarning asosini tashkil etadi, xolos deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, HICHM o'zining mazmun va mohiyati jihatidan, korxonalarining ma'lum bir nuqtadagi yoki joydag'i turg'un birikmasi sifatida iqtisodiy rayondan sezilarli darajada farq qiladi.

Biroq turli bosqichdagi iqtisodiy rayonlar ham HICHM tarzida ko'riliishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasida Farg'on'a vodiysi, Toshkent viloyati hududiy ishlab chiqarish majmualari va h. k. Savol tug'ilishi mumkin: haqiqatda yoki real voqelikda HICHM qayerda vujudga keladi va har qanday joyning ishlab chiqarish korxonalarini birlashmasini hududiy majmua deb atash mumkinmi? Bu yerda masalaga har tomonlama yondashish kerak va HICHMLarning mohiyatiga ko'ra har xil bo'lishini anglab olish zarur. Aks holda, chalkashliklar vujudga kelishi muqarrar.

Har qanday iqtisodiy rayon xo'jaligi o'zining mazmuni va maqsadiga muvofiq har tomonlama (kompleks) rivojlantirilishi lozim. Ana shu nuqtai nazardan iqtisodiy rayonlar xo'jaligini potensial HICHM sifatida ko'rish mumkin. Bu yerda tushunmovchilikka o'rin qoldirmaslik uchun bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarini-rayonlar darajasidagi majmualar sifatida qarash ma'nulroq. Ma'lum bir joyda (hududda) ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro bog'liq holda joylanishidan vujudga kelgan majmualar esa tom ma'nodagi hududiy ishlab chiqarish tarkiblari hisoblanadi. Iqtisodiy geografiya asoschisi N.N.Baran斯基ning shogirdlaridan biri M.K.Bandman bunday hududiy ishlab chiqarish majmualarini "dasturli" yoki mamlakat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim bir muammoni hal etishga, hir maqsadga qaratilgan majmualar qatoriga kiritgan.

Shu bilan birga, bunday majmualar har doim ham ma'muriy chegaralarga mos kelmaydi, ular bu darajadan keng yoki tor bo'lishi mumkin. Masalan, Qashqadaryoda vujudga kelayotgan HICHM ikki yo'nalishda bo'lib (agrosanoat va yokilg'i-energetika), u butun viloyat hududini egallamaydi, majmua asosan viloyatning quyi qismida, Qarshi dashti doirasida shakllanmoqda.

HICHM qaysi ma'noda tushunilmasin, ular iqtisodiy geografiyanı o'rganishda muhim va unumli g'oyadir. Bu rayon xo'jaligini alohida tizim

asosida yondashish va tarkib bo'yicha tahlil qilish, ishlab chiqarish korxonalari orasidagi aloqadorlikni bilishni talab etadi.

Tom ma'noda HICHMLar, odatda, yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarda, ulkan tabiiy boylik va ayniqsa yoqilg'i-energetika zahiralari asosida shakllanadi. Bunga misol qilib Angren-Olmaliq, Qarshi yoki Mirzacho'l, Buxoro-Navoiy majmualarini ko'rsatish o'rinni.

Albatta, tarixiy rivojlanish davomida avval o'zlashtirilgan yerlarda vujudga kelgan xo'jalikning hududiy tuzilmasini takomillashgan majmuaga aylantirishga qaraganda yangi joyda bu maqsadga erishish osonroqdir. Majmua yaratuvchi tarmoq sifatida esa ko'proq yoqilg'i-energetika sanoati asos bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. HICHMLarda arzon elektroenergiya manbaining mavjudligi energiyani ko'p iste'mol qiluvchi tarmoqlarni o'ziga "tortadi". Masalan, bu yerda alyuminiy zavodi barpo etilishi mumkin.


Markaziy Osiyo va, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida HICHMLar o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarga ega. Jumladan, bunday hududiy majmualar respublikada qulay tabiiy sharoitda, aholi va mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan rayonda va faqatgi na energetika emas, balki agrosanoat asosida ham vujudga kelmoqda. Demak, O'zbekiston HICHMLari sug'orilgan dehqonchilik, agrosanoat tarmoqlari va mehnatni ko'p talab qiluvchi korxonalarini o'z ichiga olar ekan. Bunga yaqqol misol bo'lib Farg'ona majmuasi xizmat qiladi (3-chizmaga qarang).

Keng ma'noda yoki haqiqiy hududiy ishlab chiqarish majmualari ham turli bosqichda bo'ladi. Chunonchi, hatto oddiy sanoat yoki agrosanoat tuguni ham bunday majmua sifatida ko'riliishi mumkin. Bu, shubhasiz, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida nihoyatda ilg'or va iqtisodiy jihatdan samarador bo'lib, viloyatlar yoki rayonlarning mamlakatimiz mehnat taqsimotida tutgan o'rnnini, "basharasi"ni (dotsent R. A. Hodiyev iborasi) belgilab beradi.

Ushbu g'oyaning ahamiyati milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishda katta mazmunga ega. Ayniqsa, mustaqil mamlakatning izchil mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda HICHM g'oyasini tatbiq etish juda qo'l keladi. Biroq bunday majmualarni katta hududlardan ko'ra kichik joyda ixcham qilib yaratish ko'proq samara beradi va ularni boshqarish ham qulay bo'ladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi kichik HICHMLar aynan shuni isbotlaydi.

Darvoqe, nazariy jihatdan to'g'ri bo'lgan bu g'oyaning amaliyotda (masalan, sobiq Ittifoq sharoitida) yaxshi natijalar bermaganligining asosiy sababi ham eng avvalo o'ta katta hududlarda bunday majmualarni

yaratishga intilish bo'ldi. Turli yo'nalishdagi HICHMlar G'arbiy Sibir, Janubiy Yoqutiston kabi ulkan hududlarda ko'zda tutiltan edi, amalda esa ular shakllanmadi. Chunki hudud benihoya katta, ishlab chiqarish esa faqat bir tomonlama, asosan xom ashyni qazib olishga ixtisoslashgan xo'jalik turkumi vujudga keldi, xolos.



4-chizma. Farg'ona vodiysi agrosanoat hududiy ishlab chiqarish majmuasining ichki tuzilishi

Boshqa tarmoqlar va ular uchun umumiy bo'lgan infrastruktura tizimi ham deyarli barpo etilmadi, ijtimoiy sohalar, ekologiya muammolari esa butunlay inobatga olinmadidi. Bundan tashqari, majmualarni boshqaruvchi tashkilot ham bo'lmadi. Xullas, haqiqiy HICHM vujudga kelmadidi.

Yuqoridaagi fikr shundan dalolat beradiki, bunday majmualarni kichik joyda yaratish ma'qul. Chunonchi, O'zbekiston sharoitida paxta tozalash zavodi bilan yonma-yon yoki uning yaqinida yog` zavodi qurish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar ular yaqinida paxtazorlar va chorvachilik fermalari bo'lsa, yana ayni muddao bo'lar edi.

Qulay sharoitlarda va ishlab chiqarishni hududiy jihatdan to'g`ri tashkil etib kattaroq majmualarni ham shakllantirish mumkin. Bu borada, Farg`ona vodiyisida, Mirzacho'l yoki Qarshi zonasida, Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati rayonida mukammal HICHMLarni yaratishga imkoniyatlari mavjud (4-chizma).

HICHMLar o'zlarining geografik joylashuvi hamda ixtisoslarshuviga qarab turli xil bo'ladi. Ular tog'-kon sanoati yoki agrosanoat asosida, dengiz yaqinida yoki poytaxt rayonlarida ham shakllanadi. Biroq bunday majmualarning barchasi uchun hududiy infrastruktura va iqtisodiy geografik umumiyligi xosdir.

Sanoatda tashkil etilgan HICHMLar sanoatni rayonlashtirish va uning tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, sanoat tugunlari va rayonlari chinakam HICHMLarni ifodalaydi, chunki ushbu geografik birliklarda ishlab chiqarish va infrastruktura, iqtisodiy geografik o'rinning umumiyligi yaqqol sezildi.

Qolaversa, sanoat tuguni va rayonlariga kiruvchi alohida sanoat punktlari va markazlarda ham shuni ko'rish mumkin. U holda sanoat korxonalarini bunday kichik (mahalliy) HICHMLarning birlamchi elementi vazifasini o'taydi. Ayni paytda ma'lum bir shahar doirasida, yirik sanoat markazlari chegarasida bir necha sanoat tugunchalari - mikrohududiy majmualarni ham ajratsa bo'ladi. Sanoat ishlab chikarishini bunday tashkil etish shakllari ayniqsa loyihalash tashkilotlarida ko'p qo'llaniladi. Ular xorijiy mamlakatlarda ham keng tarqalgan bo'lib, aglomeratsion samaradorlik tushunchasi xuddi shunday mikroiqtisod amalyoti bilan bog'liq.


Shunday qilib, ishlab chikarishning rivojlanishi va uning hududiy tashkil etilishining takomillasib borishi bilan bu boradagi tasavvurimiz ham o'zgarib boradi. Dastlabki oddiy ishlab chiqarish kombinati rayon

ishlab chiqarish kombinatiga aylandi. Rayon ishlab chiqarish kombinati hozirgi hududiy ishlab chiqarish majmuasi shakliga ega bo'ldi.

HICHMLar iqtisodiy geografiyaning boshqa bir muhim ilmiy g'oyasidan farq qiladi. Bu ham bo'sa energiya ishlab chiqarish sikllar nazariyasidir (uning xam asoschisi N. N. Kolosovskiy hisoblanadi).

Energiya ishlab chiqarish sikllari, avval ta'kidlaganimizdek, ma'lum bir asosiy ishlab chiqarish jarayoni atrofida muayyan xom ashyo va energiya negizida vujudga kelgan, texnologik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan (uyushgan) ishlab chiqarish turkumining turg'un .birligidir. Demak, bu yerda asosiy e'tibor ishlab chiqarishning texnologik aloqadorligiga beriladi, vaxolanki, HICHMDa bu vazifani hududiy birlik o'taydi. Ayni shu jihatdan energiya ishlab chiqish sikllari hududiylik xususiyatiga ega emas (ularni xaritadan ham ko'rsatib bo'lmaydi); sikllar ma'lum darajada mavhum, ishlab chiqarishning turkum yoki tartib birligini anglatadi. Binobarin, muayyan energiya ishlab chiqarish sikliga kiruvchi korxonalar yoki "zanjirchalar" mamlakat hududining turli joylarida mavjud bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga energiya ishlab chiqarish sikllari bu xalq ho'jaligi tarmog'i emas, hatto tarmoqlar birikmasi ham emas balki u umuman ishlab chiqarishning texnologik birligidir. Biroq bu yerda ham xuddi HICHM uchun o'zak (bosh) majmua hosil qiluvchi omil yoki tarmoq bo'lganidek, energiya ishlab chiqish tsiklida ham yetakchi ishlab chiqarish jarayoni asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, qora metallurgiyaning pirometallurgiya sikli uchun metall (cho'yan, po'lat va prokat) ishlab chiqarish, respublikamizdagi agrosanoat sikli uchun esa sug'oriladigan yerlarda paxta yetishtirish, uni qayta ishlash, to'qimachilikni rivojlantirish asosiy jarayon hisoblanadi.



**5-chizma. Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati hududiy ishlab chiqarish majmuasining tarmoqlar tarkibi**

Energiya ishlab chiqarish sikli tasvirini daraxt shaklida tassavur qilish qulay. Bunda daraxt tanasi asosiy ishlab chiqarish jarayoni, uning shox va shoxchalar esa ushbu jarayon atrofidagi texnologik jihatdan aloqador ishlab chiqarish korxonalarini anglatadi. Shu nuqtai nazardan energiya ishlab chiqarish sikllari HICHM va iqtisodiy rayonlar ichki tuzilishini, tarkibini tahlil etishda aniq va samarali usul bo`lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur siklning ekologik ahamiyati ham beqiyos, chunki u mohiyatan chiqindisiz, uzlusiz texnologik jarayonga (zanjirlarga) asoslangan.

HICHMlar iqtisodiy geografiyaning eng muhim tadqiqot obyekti. Ammo, ma'lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faqatgina iqtisodiy qismidan iborat emas. Shu bois, hududiy majmualar nafaqat iqtisodiy, ya'ni ishlab chiqarish geografiyasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial va siyosiy geografiyada ham mavjud.

Ijtimoiy-iqtisodiy majmualarga shahar yoki shahar aglomeratsiyalarini, hududiy sotsial majmualarga esa kichik aholi punktlari, turli kasb yoki millat vakillari yashaydigan hududiy birlik, maishiy xizmat ko`rsatish kombinatlari, mahalla va hokazolarni kiritish mumkin. Tabiiyki, ularning faoliyat doirasi, chegarasi har xil.

Yuqoridaq uch turdag'i hududiy majmualar birligi umumiy yoki hududiy ijtimoiy tizimlarni (majmualarni) shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy geografiyaning obyekti hisoblanadiki, unga ko`rilganlardan tashqari siyosiy geografik (hududiy-siyosiy), geosiyosiy birliklar kiradi. Shunday qilib, ijtimoiy geografiyaning asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq ravishda turli xil hududiy majmualarni ko`rsatish mumkin. Fanning bosh maslalaridan biri ana shu turli funksional turdag'i va yiriklikdagi majmualarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning o`zaro hududiy munosabatlarini keng va chuqur o`rganishdan iborat. Bu esa ma'lum maqsadga yo`naltirilgan dasturga yondashuv bo`lib, u tizim-tarkib, muammo-majmua uslubiga to`g'ri keladi va bunday mukammal hududiy birikmalarni boshqarishda katta ahamiyatga ega bo`ladi.

Xuddi shu ma'noda hududiy majmualar ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning eng samarali shakli hisoblanadi. Chunki korxonalarini alohida-alohida, tarqoq joylashtirgandan ko`ra ularni bir-biriga yaqin qurish katta samara beradi. Bunda har bir korxona uchun emas, balki ularning barchasiga yagona infrastruktura tizimi-yo`l, yer osti va yer usti qurilmalari, suv, elektr energiya va boshqa shaxobchalar quriladi, natijada anchagina (taxminan 40 foizgacha) kapital mablag' tejaladi. Ana shunday masofa transport harajatlarini kamaytirish hamda korxonalarining o`zaro

faoliyat ko'rsatishi tufayli yuzaga kelgan samaradorlikni iqtisodiy geografik samaradorlik deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi.

Masalan, paxta tozalash zavodlari, odatda, paxta yetishtiruvchi rayonlarda quriladi. Agar ularga yaqin joyda yog' zavodi qurilsa, yana ayni muddao bo'ladi, ushbu korxonalar chiqindilari asosida esa chovachilik fermalarini ham rivojlantirsa bo'ladi. Ko'riniib turibdiki, bir hududda ishlab chiqarishning qator korxona yoki tarmoqlari mavjud: paxta dalalari, paxta tozalash va yog' zavodlari, chorva fermasi. Ularning barchasi uchun yagona infrastruktura va aholi joylashuv tizimlari xizmat qiladi.

Yana boshqa bir misol: sho'x oqar tog' daryosiga GES qurildi, deb faraz qilaylik. GES, yani arzon elektr energiya asosida arzon energiya talab "jumladan alyuminiy zavodi tashkil etiladi, uning negizida esa kabel yoki elektr-texnika mashinasozligi, radio va priborsozlik rivojlanib borish uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Bulardan tashqari, suv ombori pastki hududlarni sug'orishda, uning atrofi sport, dam olish (rekreatsiya) zonalarini barpo qilishda ahamiyatlbo'ladi. Ko'rib turibsizki, bir hududda ishlab chiqarishning qator tarmoqlari mavjud.

Yuqoridagi misollardan ayon bo'lishicha, hududiy ishlab chiqarish majmualari ma'lum bir joyda ishlab chiqarish korxona va tarmoqlarini yagona infrastruktura hamda aholi joylashuvi va tizimlari asosida barpo etish va ularni o'zaro uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirishni anglatadi. Shu ma'noda ular, shubhasiz, iqtisodiy geografiya fanining eng katta yutug' idir.

Hududiy majmualar faqat iqtisodiyotgina emas, balki noishlab chiqarishda, jumladan, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etishda ham bor. Chunonchi, tibbiyot, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo majmualari (komplekslari) shular jumlasidandir. Masalan, korxona yonida dorixona, poliklinika, diagnostika (tashhis) markazi; bolalar uchun bog'cha va yaslining birgalikda joylashuvi; sartaroshxona, turli xil ta'mirlash korxonalarini, kimyoziy tozalash, hamunom va boshqalar bir joyda hududiy majmua shaklida tashkil etiladi.

Hududiy ishlab chiqarish (va noishlab chiqarish) majmualari kombinatlashuv jarayoni asosida vujudga keladi. Ma'lumki, ishlab chiqarishini ijtimoiy va hududiy tashkil etishning bu shaklida bir xom ashyodan bir necha xil mahsulot yetishtirish yoki bir hududda-joyda turli korxonalarini qurish mumkin.

Albatta, hududiy majmualarning iqtisodiy samaradorligi ma'lum bir chegarada yuzaga keladi. Agar bunday majmualar haddan tashqarii hududiy va tarkibiy jihatdan kattalashtirilsa, iqtisodiy samaradorlik evaziga

qator qiyinchiliklar, muamolar vujudga keladi: xom ashyo va mehnat resurslari yetishmaydi, transport harajatlari ko'paydi, ekologik vaziyat buziladi, boshqarish qiyin bo'ladi va h.k. Binobarin, hududiy majmualarning nisbatan kichikroq bo'lgani ma'qul (aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlarda xuddi shunday).

Mavzuning yakunida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xos turli ko'rinishdagi hududiy tushunchalarini ham eslatish ahamiyatidan holi emas. Bular: hududiy tarkib, hududiy tizim, hududiy majmua, hududiy birikmadir. Ushbu tushunchalar bir-biriga juda yaqin, ammo ularni o'z o'rnida ishlatalish to'g'riq bo'ladi. Masalan, hududiy tarkib va huudiy tizim (sistema) tizim-tarkib qoidasiga muvofiq keladi; har qanday tarkib undan kattaroq bo'lgan tarkib yoki tizimning bir qismi va ayni vaqtida o'zidan pastda (ichkarida) turgan hududiy birliklar uchun tizimdir.

Hududiy majmua mohiyatan turli soha yoki korxonalarning ma'lum bir joydagi birligi, uyushmasidir. Aynan ana shunday, yagona infrastruktura tizimi asosida vujudga kelgan hududiy majmualar katta iqtisodiy va ijtimoiy samara beradi.

### Savol va topshiriqlar

1. Majmua haqida nimalarni bilasiz?
2. HICHM lar va kombinatlashuv o'ritasida qanday aloqadorlik mavjud?
3. HICHMLar g'oyasini kim yaratgan va nimalarga asoslangan?
4. Nima sabahdan sobiq Ittifoq davrida HICHMLar g'oyasi yaxshi samara bermadi?
5. Noishlab chiqarish sohalaridagi hududiy majmualarni ta'riflab bering.
6. Hududiy tarkib, tizim, majmua, birikma haqidagi fikringizni yozma ravishda ifodalab bering.

## GEOGRAFIYA FANIDA TABIAT VA JAMIYAT MUNOSABATI

### Reja

1. Geografiyada tabiat va jamiyat munosabatining asoslari.
2. Geografik determinism.
3. Geografiya va chegaralar.
4. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishga ta'siri.

Tabiat bilan jamiyat, tabiat va inson munosabati geografiya fanining bosh falsafiy masalasidir. Aynan shu masala tabijiy va iqtisodiy,

aniqrog'i, ijtimoiy geografiyanı birlashtiradi, o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini taqozo etadi.

Tabiat va inson o'rtaсидаги munosabat ikki tomonlama bo'lib, u doimo muvozanat holatini saqlab qolmog'i lozim. Ushbu dialektik va dinamik muvozanat eng avvalo insonning tabiatga qay darajada ta'sir ko'rsatishiga, uning tabiat qonunlarini qanchalik e'tiborga olganligiga bog'liq.

Yer shari va uning alohida qismlarining ta'sirini shunga mos holda tabiiy geografiya o'r ganadि. Biroq, bu jutlikning ikkinchi tomonini, ya'ni jamiyatni yoki insonni faqat iqtisodiy geografiyaga taalluqliligi noto'g'ridir, chunki "inson va tabiat" yoki "tabiat va jamiyat" bo'lishi mumkin, ammo "tabiat va iqtisod" uncha qovushmaydi. Shuning uchun iqtisodiy geografiya garchi ijtimoiy geografiyaning asosiy qismi bo'lsa-da, murakkab jamiyat hayotini o'r ganuvchi fan albatta keng qamrovli ijtimoiy geografiya hisoblanadi.

Tabiat inson, jamiyat rivoji uchun eng avvalo sharoit yaratadi va bu sharoit qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Binobarin, mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini faqat tabiiy omillar bilan belgilash nodurustdir. Bunday holda biz geografik determinizmning noto'g'ri talqiniga o'tib qolamiz.

Ma'lumki, jamiyat rivojlanishi turli xil tabiiy, tarixiy, siyosiy, texnologik va boshqa omillarga bog'liq. Shularga mos holda geografik, biologik, tarixiy, texnologik determinizm haqida so'z yuritish mumkin. ("dete"-belgilash, aniqlash ma'nosini bildiradi). Deterministik dunyoqarash hodisa va vogeliklar ostida yotgan sabab-oqibat aloqadorligini, dialektik qonuniyatlarni anglab olishga yordam beradi. Biroq uni haddan tashqari bo'rttirib yuborish ham xatodir. Sababi-jamiyat rivojlanishi faqat u yoki bu omilgagina emas, balki ko'pgina sharoit va omillar majmuiga bog'liq. Ayni vaqtida, determinizmni tamomila inkor etish ham nodurustdir, chunki yuqoridaq omilarning ta'siri u yoki bu darajada albatta mavjud.

O'tmishda, masalan XVII-XIX asrlarda geografik determinizmga juda katta e'tibor berilgan, hatto kishilarning xarakteri, yurish-turishi, davlat tuzumi ham faqat mamlakatning tabiiy sharoiti (ayniqsa iqlimi va yer usti tuzilishi), geografik joylanishi bilan tushuntirilgan. Ma'lumki, tog' va tekislik, sovuq yoki issiq, cho'l yoki vohada yashovchilar bir-birlari bilan xulq-atvor, bo'y-bastlari, yuz-ko'rnishi va yurish-turishlarida farq qiladilar. Bu haqda vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy ham yozgan edi: "Odamlar tuzilishining, surat, tabiat va ahloqda turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning

turlichaligidan hamdir". Bu albatta haq gap. Lekin tabiiy geografik omillar orqali mamlakat va rayonlarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, ularning siyosiy tuzumini uzil-kesil izohlash ham to'g'ri emas.

Geografik determinizmni jamiyat rivojlanishida birdan-bir omil sifatida qarash ayniqsa Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniyada keng tarqalgan edi. Germaniya va Shvetsiyada hududga siyosiy mazmun berish asosida, geografik determinizmning siyosat bilan qo'shilish natijasida o'ta reaksiyon geografik siyosat, geosiyo sat vujudga kelgan edi. Uning asoschilari nemis F.Ratsel va shved R.Chellen bo'lgan (XIX asr). Aynan ana shunday mafkura, jahонни qayta taqsimlash haqidagi geosiyo siyosatlar jahon urushlarini, xalqaro mojarolarni keltirib chiqargan.

Fransiyada vujudga kelgan possibilizm (Vidal de La Blash) tabiatga bo'lgan munosabatni biroz "yumshatilgan" yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu g'oya asosida tabiiy sharoitning undan foydalanish uchun imkoniyat yaratishi, unga moslashgan va muvofiq holda xo'jalik yuritish yotadi. Demak, bunday dunyoqarash haqiqatga birmuncha yaqindir, ammo bu yerda ham tabiat ustunligi va ayni vaqtida insон kuch-u-qudratining tabiat oldida zaifligi sezilib turibdi.

Umuman olganda, tabiat va jamiyat ikkiligida u yoki bunisiga katta urg'u berish ham nodurustdir; ular tarozuning ikki pallasidek doimiy muvozanatda bo'lmog'i lozim. To'g'ri, insoniyat taraqqiyotida avvallari tabiat ustunlik qilgan, keyinchalik esa jamiyatning tabiatga ta'siri kuchayib ketgan, shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya va industrilashtirish, aholi soni va zichligining ortib barishi kabilar muvozanatning buzilishiga, ekologik halokat va buhronlarga olib kelgan. Shuning uchun 1992-yilda Rio-de-Janeyro (Braziliya) shahrida bo'lgan BMT-ning atrof-muhitga bag'ishlangan navbatdagi yig'ilishida "barqaror rivojlanish" ("konsepsiya ustoychivogo razvitiya") g'oyasi qabul qilingan. Unga muvofiq, jamiyatning rivojlanishi, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish tabiat zarariga, bo'lajak avlod hisobidan bo'imasligi kerak.

Tabiat qonunlari ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot qonunlaridan vujudga kelishi, davomiyligi, tezligi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan tabiat jamiyat oldida zaif, passivga o'xshab ko'rindi. Ammo bu I.V. Michurin aytganidek, "Tabiatdan in'om-ehson kutmasdan, undan ko'proq olish kerak" degan ma'noni bildirmaydi. Tabiat qo'zg'olsa, uyg'onса undan qudratli kuch yo'q. Masalan, yer qimirlashlar, yong'in, suv toshqini, sunami va bo'ronlar har qanday taraqqiy etgan mamlakatni, jamiyatni ham halokatga keltirishi mumkin.

Yer yuzida va uning turli qismlarida bo'lib o'tayotgan cho'llashuv, tuproq eroziyasining kuchayishi, o'rmonzorlarning qisqarishi, suv va havo (atmosfera)-ning buzilishi oqibatda turli kasalliklarning vujudga kelishi ekologik muammolarni umumbashariy, global muammolarga aylantirdi. Tabiat bizning har birimizdan qandaydir uzoqda, olisda-okeanda, tog' yoki tekislikda, cho'l, o'rmonzor voha va vodiyya, daladagina emas, balki u bevosita atrofimizda va doimo bizga ta'sir qilib turibdi (shu nuqtai nazaridan inson tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi) Binobarin. Yer barcha xalq va millatning umumiy uyi va tabiatni e'zozlash, tozaligini saqlash, unga oqilona munosabatda bo'lish jahon xamjamiyatidagi barcha davlatlarning burchidir. Ushbu muammo yuqoridaan, maxsus buyruq va ko'rsatkichlar bilan hal etilmaydi; buning uchun ekologik fikrlash, ekologik bilim va yuksak ekologik madaniyat talab etildi.

Mohiyatan ekologik fikrlash geografik dunyoqarashga juda yaqin, chunki har ikkisida ham ta'sir va aks ta'sir, o'zaro aloqadorlik kompleks va hududiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu bois, geografiya fanining ekologik madaniyatni shakllantirishda o'rni katta.

Yer yuzining tabiati har xil, dunyo mamlakatlarning rivojlanganlik darajasi ham bir xil emas. Tabiatda ham, jamiyat taraqqiyotida ham o'ziga xos sikllik mayjud; Yer shari tabiatida muayyan hududiy tartib, zonallik qonuniyatlar bor, jahon hamjamiyati esa murakkab geosiyosiy tizim sifatida turli davlat va ularning chegaralari bilan bo'lingan. Tabiatda issiq mintaqalar bilan bevosita sovuq iqlim mintaqasining yontma-yon turmaganidek, dunyo siyosiy xaritasi va geoiqtisodiy makonida ham rivojlanish darajasi tubdan bir-biridan farq qiluvchi davlatlarning o'zaro qo'shnichiligi kam uchraydigan holatdir.

Shu bilan birga ba'zi tabiiy geografik qonuniyatlar iqtisodiy geografiyaga ham ma'lum darajada xosdir. Chunonchi, tog' vertikal mintaqalari faqat tabiat bilan emas, balki xo'jalik yuritish, hududiy mehnat taqsimoti bilan ham farqlanadi, hatto tekislik, iqlim mintaqalari ularga xos va mos iqtisodiyot va aholi joylashuv, xo'jalik ixtisoslashuv tizimiga ega. O'zbekiston Respublikasining dunyo okean va dengizlaridan uzoqda, ichkarida joylashuvi uning kontinental iqlimidan tashqari geosiyosiy va iqtisodiy geografik mavqeini ham belgilaydi va h.k.

Tabiatda ham, jamiyatda, dunyo geosiyosiy tizimida ham chegaralar bor. Ammo tabiat chegaralari ma'muriy chegaralar singari qat'iy, "Xitoy devori"dek tirik, jonli tabiatni sun'iy ravishda ikkiga bo'lmaydi, ajratmaydi; tabiat chegaralari ancha turg'un, ma'muriy chegaralar esa o'zgaruvchan. Shuning uchun tabiiy geografik

qonuniyatlarni o'rganishda ma'muriy chegaralar bilan cheklanish umumgeografik bilimni egallashga ziddir. Chunki har qanday chegara ma'lum bir holatning oxiri bo'lsa, boshqasining boshlanishi, avvalidir, ya'ni u o'tkinchi xarakterga ega. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi tabiiy geografiyasini Turkiston tabiatidan ajratib, uning ma'muriy chegara doirasida o'rganib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotda, dunyo siyosiy xaritasida ham chegaralar o'ziga xos xususiyatga ega. Eng avvalo ma'muriy chegaralar har qanday suveren davlatning muhim belgisi, shartidir. Geografiyada esa bu chegaralarning shakli ("geometriyasi") o'zar o'qishni davlatlarning siyosiy tarixi, iqtisodiyotning, aholi joylashuvining xususiyatlarini ham aks ettiradi. Masalan, davlatlar o'rtaida oddiy va to'g'ri chiziq shaklidagi chegaralar (Afrikadagi ayrim mamlakatlar, O'zbekistonning Turkmaniston va Qozog'iston bilan chegarasi, Indoneziya chegarasi va h.k.) ularning bir vaqtlar boshqa mamlakat qaramida bo'lganligi ushbu hududning xo'jalik jihatidan uncha ahamiyatga ega emasligi va aholisining siyrak joylashganligidan darak beradi. Qadimdan o'zlashtirilgan hududlarda esa davlat chegaralari o'ta murakkab, "arrasimon", meandra shaklida bo'ladi. Sababi, bunday joylarda hududning har bir "qarichi" katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

Biz oldinroq tabiat va jamiyatni o'zimizning qadimgi ikki pallali qo'l tarozusiga o'xshatgan edik. Agar bu tarozuda tabiat "toshi" og'irlik qilsa, uning iqtisodiy hamda demografik sig'imi past, ya'ni jamiyat qismi yengillik qiladi. Bunday holat qadimda mavjud bo'lgan, hozir esa jamiyatning tabiatga ta'siri, bosimi oshib bormoqda. To'g'ri, tabiat jamiyatga xizmat qiladi va ma'lum ma'noda unga bo'ysinadi, ammo jamiyat ham tabiatni e'zozlashi, avaylab-asrashi kerak.

Tabiat va jamiyat, umuman olganda, yaxlit, bir butun, murakkab tizim; ularni bir-biriga qarama-qarshi yoki birini ikkinchisidan ustun qo'yish ham noto'g'ri. Xuddi shunga o'xshash tabiiy geografiya bilan ijtimoiy (iqtisodiy) geografiya ham o'zarlo aloqada: tabiiy sharoit va resurslar ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish nuqtai nazaridan, iqtisodiyot esa uning tabiatga ta'siri jihatidan o'rganilishi lozim. Shuning uchun tabiiy geografiyada insonni, iqtisodiy geografiyada esa tabiatni, ekologik oqibatlarni unutmaslik kerak.

Iqtisodiy geografiya tom ma'noda (masalan, AQSh-da) qishloq xo'jalagi, tog'-kon, o'rmonchilik va baliq sanoatidan iborat. Demak, uning tadqiqot doirasasi bevosita tabiat va tabiiy resurslar foydalanish bilan bog'liq. Hozir ham tabiiy sharoit va boyliklarga iqtisodiy baho berish,

tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti iqtisodiy geografiya fanida muhim o'rinni egallaydi.

Masalan, geografik o'rinni tahlil qilganda mamlakat yoki mintaqaning dengiz va okeanlarga, yirik yoqilg'i-energetika, magistral yo'llarga uzoq-yaqinligi, boshqa davlatlar bilan chegaradoshligi kabi jihatlariga e'tibor bermoq lozim. Hudud ichkarida (Farg'ona vodiysi), chekkada (Qoraqalpog'iston Respublikasi), o'ziga xos geosiyosiy vaziyatda (Surxondaryo viloyati) yoki tranzit holatda (Samarqand, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari) joylashganligini ularning iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazardan turlicha baholash mumkin. Shuningdek, mamlakatning asosiy kiradigan va chiqadigan "darvozalari" (Olot, Qo'rg'on tepe, Qo'ng'iroq tumanlari), chegaraga yaqin yoki tutash hududlarning geografik o'rnlari ham o'ziga xos iqtisodiy geografik mazmun kasb etadi.

Geografik o'rinning turli bosqich va turlarini tahlil qilishda uning ijebiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlarini ham aniqlash talab qilinadi. Shu bilan birga mintaqasi, mamlakatning geografik o'rnni yaqin kelajakda o'rGANISH imkoniyatlari va, shu asosda, hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari oldindan bashorat qilinsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi (masalan, Buyuk Ipak yo'lining tiklanishi, TRASEKA loyihasining amalga oshirilishini Ohangaron va Farg'ona vodiylariga ta'siri).

O'rGANILAYOTGAN hududning yer ustti tuzilishi, ya'ni relyefini ham iqtisodiy geografik nuqtai nazardan baholash katta ahamiyatga ega. Sababi-tog'lik yoki tekislik relyef o'ziga xos xo'jalik sig'imi va transport tizimiga ega. Bu jihatdan ayniqsa hudud yer ustti tuzilishining har xilligi geografik mehnat taqsimotini rivojlanishiga qulaylik yaratadi.

Relyef, uning geologik tarixi va tuzilishi qazilma boyliklar mavjudligi, ularning turlanishga ta'sir etadi. Chunki, tekislik, tog'landshaftlarining o'ziga xos qazilma resurslari bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda qazilma boyliklarning ko'p yoki kamligidan ko'ra uning o'zaro joylashuvi, hududiy birikmalari muhimroq. Chunonchi, tog'relyefi, daryo, rangdor metallar rudasi yoki toshko'mir va temir ruda konining bir-biriga yaqinligi rangli va qora metallurgiya korxonalarini qurishda nihoyatda ayni muddaadir.

Iqlim sharoiti, agroiqlimiy omillar-havo harorati, vegetatsiya davri, tuproq, namlik kabilar qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etish jihatidan o'rGANILISHI lozim. Iqlimning quruq yoki namligi, tuproq qatlamlari agrar sohaning muayyan yo'nalishlarini rivojlantirishga imkon beradi. Shu o'rinda, ayniqsa bizning sharoitimizda suv resurslariga ham jiddiy e'tibor bermoq zarur.

O'rganilayotgan hududning xususiyatidan kelib chiqqan holda uning o'rmon va hayvonot olamini ham tahlil qilish mumkin. Masalan, bunday yondoshuv Kanada, Rossianing Sibir o'lkasi, Braziliya kabilarni o'rganishda katta mazmunga ega.

Tabiiy geografik komponentlar alohida-alohida ("donalab") ko'rib chiqilgandan so'ng, ular majmua shaklida baholanishi kerak. Zero, tabiatda ham, iqtisodiyotda bo'lganidek, barcha hodisalar o'zaro aloqadorlikda va ular o'ziga xos geotizimni tashkil qiladi. Masalan, tog', cho'l, o'rmon, botqoqlik landshaftining organik va neorganik dunyosi, jonli va jonsiz tabiat turlicha. Bunday landshaft shakllari iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy tashkil qilish, aholining joylanishi va salomatligida ham alohida mazmunga ega.

Shunday qilib, tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorlikda, doimiy harakatda. Binobarin, iqtisodiy geografiyada "tabiat-aholi-xo'jalik" uchligiga katta ahamiyat beriladi. Ushbu tizimga to'rtlik, ya'ni "tabiat-aholi-xo'jalik-tabiat" shaklida ham qarash mumkin. U holda bunday yondashuv tsikllik va ekologik mazmunga ega bo'ldi.

Ayni vaqtida tabiat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga mos ravishda tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy (sotsial) muhit yoki makonni ajratish mumkin. O'z navbatida, geoijtisodiy, sotsial va tabiiy muhit ajralmas birlikni, yaxlit geografik muhitni shakllantiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tabiat faqat omil sisfatidagina emas, balki, aksincha, unga jamiyatning ta'siri nuqtai nazaridan qarash hozirgi kunda zarurdir. Sababi, yer yuzida inson qo'lli yetmagan tabiat burchagi deyarli qolmadi. Binobarin, inson, jamiyat (antropogen, texnogen omillar) ta'sirida o'z holatini o'zgartirgan joylarni qayta tiklash, rekultivatsiya qilish muhim muammo hisoblanadi.

Tabiat va jamiyat munosabati o'rtaida inson, uning salomatligi, boshqacha qilib aytganda, demotsentrik prinsip turishi kerak. Zero, hozirgi davrda eng muhim muammo hatto aholining o'sib borishi ham emas, balki kishilarning hayoti, barkamol yashashi uchun sog' lom atrof-muhitni, qulay ekologik vaziyatni saqlab qolishdir.

### Savol va topshiriqlar

1. Tabiat va jamiyat aloqadorligi geografiya fanida qanday mazmunga ega?
2. Geografik determinizm nima va unga Sizning munosabatingiz qanday?
3. Notabiyy geografik fanlar turkumini qanday atash to'g'riroq: iqtisodiy geografiyami yoki ijtimoiymi?

- O'zingiz yashab turgan joy yoki tanlagan mamlakatingiz geografik o'rni va tabiiy sharoitiga iqtisodiy baho bering.
- Atrof muhitni saqlash to'g'risidagi "Barqaror rivojlanish" tushunchasining ma'nosi nima?
- Tabiatda va iqtisodiy-siyosiy hayotda chegaralarning mohiyati qanday?
- Tabiiy va iqtisodiy geografiyaga tegishli qanday qonuniyatlarini bilasiz? (Misollar yordamda tushuntiring).

## TABIIY RESURSLAR GEOGRAFIYASI

### Reja

- Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar haqida tushuncha.
- Ishlab chiqarishni joylashtirishda tabiiy resurslarning ahamiyati.
- Yoqilg'i-energetika resurslari.
- Mineral resurslar.
- Tabiatdan foydalananish va atrof-muhit muhofazasi.

Tabiiy muhit inson hayot faoliyati, ijtimoiy ishlab chiqarishning manbai hisoblanadi. U o'z tarkibiga tabiiy sharoit va tabiiy resurslarini oladi. Tabiiy sharoit keng ma'noga ega bo'lgan tushunchadir. Bunda eng avvalo joyning iqlimi, yer usti tuzilishi, geografik o'rni kabilalar nazarda tutiladi. Tabiiy sharoit inson yashashi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Binobarin, tabiiy sharoit to'g'risida so'z ketganda, odatda, uning qulay yoki noqulayligi, yaxshi yoki yomonligi ko'z oldimizga keladi. Ammo qaysi bir soha uchun noqulay bo'lgan tabiiy sharoit, boshqalari uchun qulay bo'lishi mumkin. Masalan, botqoqlik yoki cho'l landshafti qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga qulaylik yaratmaydi, lekin u o'sha joyda yashovchi o'simlik va hayvonot dunyosi (biotseno) uchun qulaydir.

Shunday qilib, tabiiy sharoit ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi, ammo unga sharoit yaratadi. Tabiiy sharoit ko'p hollarda iqlim sharoitini aks ettiradi. Biroq u tuproq, o'simlik, yer usti tuzilishi va boshqalarni ham anglatadi. Chunonchi, yer usti tuzilishi, ya'ni joyning relyefi iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishda turlicha ma'no kasb etadi. Agar joy tekis bo'lsa, albatta u aholi joylashuvi, ishlab chiqarishni rivojlantirishga qulay. Ammo joyning qiyaligi, balandligi, uning asosan tog'lardan tashkil topganining ham ma'lum ijobiy tomonlari bor.

Shu bois, mamlakat yoki boshqa hudud yer usti tuzilishining turli-tumanligi-bu uning "baxtidir", chunki bunday sharoitda hududiy mehnat taqsimoti keng miqyosda rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Mamlakatimizning 20-21 foizini tog' va tog'oldi rayonlardan iyuorat ekanligi, cho'l, voha va vodiylarning mavjudligi o'ziga xos geografik manzarani tashkil etadi. Aynan shuning uchun ham respublikamizda chorvachilik, dehqonchilik, tog'-kon, qayta ishlash sanoat tarmoqlari, rekreatsiya va turizm rivojlanib hormoqda. Agar bu yerda relyefning faqat bir shakli (tog' yoki tekislik) mavjud bo'lganda, tabiiyki, xo'jalikning ixtisoslashuvi va uning tarmoqlar hamda hududiy tarkibi ham asosan bir tomonlama bo'lar edi.

Ta'kidlash joizki, iqtisoldiyot va ijtmioiy hayotning qaysi bir sohasida tabiiy sharoit bo'lgan komponentlar boshqa tarmoqda tabiiy resurs bo'lishi mumkin. Jumladan, yer, suv, iqlim ko`p hollarda tabiiy sharoit hisoblanadi, ammo ularning hosilasi bo'lgan tuproq, namlik, harorat qishloq xo'jaligi uchun resurs (agroqlimiy resurs) vazifasini bajaradi. Xuddi shunday, quyosh nuri, dengiz, yoki ko'l, qumlik, o'rmon muhim rekreatsiya resursi hiosblanadi.

Tabiiy sharoitning jamiyat rivojlanishi, inson hayot-faoliyati va hatto uning hulq-atvori, bo'yи-basti, yuz tuzilishiga ta'siri bor. Bu fanda geografik determinizm deb ataladi. Darhaqiqat, yer yuzi aholisining asosiy qismini dengiz atroflarida yoki tabiiy sharoit qulay bo'lgan hududlarda yashashi, bunday geografik o'ringa ega bo'lgan mamlakatlarning nisbatan tez rivojlanishi, daryo boshi va uning quyi qismida yashovchi kishilarning salomatligi ma'lum jihatdan geografik omillarga bog'liq. Biroq, barcha hodisa va vogelikni faqat geografik sharoit bilan to'la-to'kis izohlash ham noto'g'ridir.

Tabiiy resurslarning ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'siri ularning "xom ashyo talabchanligi" yoki sig'imiini tashkil qiladi. Masalan, ba'zi xom ashyo turlari o'z massasini (hajmini) to'la tayyor mahsulotga o'tkazsa, boshqalarida ularning faqat bir qismidan foydalilaniladi. Chunonchi, o'simlik yog'ini ishlab chiqarish, rangli metallar qazib olish kabilarning xom ashyoga bo'lgan talabi yuqori, ammo olinadigan mahsulot miqdori juda oz. Albatta, bu yerda ko'proq qancha mahsulotni olganimizni o'ylaymiz, ammo qancha chiqindi paydo bo'lganini esa nazardan qochiramiz. Vaholanki, xom ashyoga nisbatan qancha kam tayyor mahsulot olinsa, u tarmoqning chiqindisi va, binobarin, atrof-muhitga, ekologik vaziyatga salbiy ta'siri ham shunga yuqori bo'lgan.

Tabiiy resurslarning turlari ko'p: ular o'simlik va hayvonot, yoqilg'i-energetika, mineral xom ashyo, agroqlimiy resurslardan iborat.

Iqtisodiy geografiya fanida u yoki bu joyda qaysi bir tabiiy resurs xilining ko'pligi emas, balki ularning har xilligi, aniqrog'i-hududiy birikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tog' landshafti, yog'in-sochinning ko'pligi, sho'x oqar daryolar, rudali konlarning mavjudligi rangdor yoki qora metallurgiya sanoatini huudiy majmua sifatida rivojlantirish uchun juda yaxshi imkoniyat tug'diradi. Shuningdek, kokslanuvchi ko'mir, temir rudasi, suv manbalarining bir joyda mujassamlashganligi, yoki ularning hududiy birikmalari ham qora metallurgiyaning pirometallurgiya siklini rivojlantirishga, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirishga qulaydir.

Qazilma boyliklarning paydo bo'lish sharoiti va tarixiy davri, geografik joylanishi har xil. Qolaversa, ular mal'um bir qonuniyatlar asosida joylashadi va bu masalalar bilan maxsus geokimyo fani shug'ullanadi. Sobiq Ittifoqda ushbu fanning asoschilari va yirik namoyondalari V.I.Vernadskiy va A.E.Fermenslar bo'lgan.

Qazilma boyliklarning paydo bo'lishi o'sha joyning telyesi, geologik tuzilishi va tarixiga bog'liq. Shu bois, yer yuzining ba'zi joylarida turli xil konlar ko'p, ba'zilarida esa bunday imkoniyat yo'q. Demak, qazilma boyliklarning tarqalishi bir xil emas. Qizig'i shundaki, bunday resurslar asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'p va shuning uchun ham ular jahon bozoriga ko'proq mineral xom ashyo, yoqilg'i resurslarini chiqaradilar (eksport qiladilar).

Qazilma boyliklardan foydalananish ularning umumiyl zahirasi, sifati, joylanish sharoiti, geografik o'rni, transport infrastrukturasi bilan ta'minlanganligi, qazib olishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda mahalliy yoki xalqaro bozorda talab ehtiyojning mavjudligiga bog'liq. Odatta, qazilma boyliklar zaxirasi ularning geologik o'rganilganligiga qarab turli xil kategoriyalarga (A,V,S, proqnoz zahiralar va x.k.) bo'linadi. Eng yaxshi va mukammal o'rganilgan konlar sanoat zaxirasi hisoblanadi va ular ishlab chiqarish jarayoniga ja'b etiladi.

Shuningdek, qazilma boyliklar zaxirasi, ularning barcha miqdor, sifat ko'rsatkichlari va ehtiyojning mavjudligiga ko'ra balans va nobalans guruhlarga ajratiladi. Bunda konlarning hozirgi davrdagi iqtisodiy ahamiyati asos bo'lib xizmat qildi.

**Yoqilg'i-enegetika resurslari.** Har bir mamlakat milliy iqtisodiyoti xavfsizligini ta'minlashda eng avvalo uning yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishishi muhimdir. O'zbekiston Respublikasi ham o'zining

siyosiy mustaqilligiga erishgandan so'ng iqtisodiyot sohasida aynan shu imuamimoga ustuvor ahamiyat berdi va hozirgi kunda uning to`la yechimini qo`lga kiritdi.

Yoqilg'i balansini mamlakatda foydalaniadigan turli yoqilg'i turlarining (ko'mir, tabiiy gaz, neft, yonuvchi slanes, torf, o'tin) nisbati tashkil qiladi. Hozirda dunyo bo'yicha bu balansning taxminan 30 foizi ko'mir, 67 foizi neft va gazga to'g'ri keladi.

Ko'mirning ham har xil turlari bor va ularning issiqlik chiqarish qobiliyati bir xil emas. Albatta, bu borada toshko'mirning iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori, qo'ng'ir ko'mirning ahamiyati esa ancha past. Garchi bu turdag'i ko'mir asosan ochiq usulda (karyerlarda) qazib olinsada, uni uzoqqa tashib bo'lmaydi (parchalanih, maydaanib ketadi), uzoq vaqt davomida omborxonalarda saqlab bo'lmaydi (namligi sababli yonib ketishi mumkin), qora metallurgiyada ishlatib bo'lmaydi (oltingugurti ko'p, u temirning yemirilishi, ya'ni korroziyasiga olib keladi). Shuning uchun qo'ng'ir ko'mir ko'proq qazib olinadigan joylarning o'zida issiqlik elektr stansiyalarida ishlatiladi.

Butun dunyo bo'yicha bir yilda o'rtacha 3,5 mlrd tonna toshko'mir va 1 mlrd tonna qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi (O'zbekistonda 2,5 mln. t atrofida). Aniqlangan ko'mir konlарining umumiyl zaxirasi, olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, 200 yildan ko'proq muddatga yetadi.

Toshko'mir konlari AQSh, Xitoy, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Hindiston, JAR, Avstraliyada ko'p. Kokslanuvchi ko'mirning asosiy qismi esa xususan Avstraliya, Germaniya, Xitoy va AQShda joylashgan. Ko'mir eksport qiluvchi mamlakatlar-Avstraliya, Kanada, JAR, Kolumbiya.

Dunyoning eng yirik ko'mir konlari Donbass (Ukraina), Kansk-Achinsk, Pechora, Kuzbass (Rossiya), Appalachi (AQSh), Rur (Germaniya), Sileziya (Polsha) va b.

O'zbekistonda asosiy ko'mir havzasi Angren qo'ng'ir ko'mir koni hisoblanadi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatining Sharg'un va Boysun konlарida zaxirasi uncha katta bo'limgan toshko'mir konlari ham bor.

Yoqilg'i manbai sifatida neftning ahamiyati katta. U jahon eksport tarkibida o'z qiyamatiga ko'ra birinchi o'rinda turadi. Neftning aniqlangan aniq zahirasi 140 mlrd tonnadan zyoidroq. Uning 1G'10 qismidan ko'proq'i Lotin Amerikasida, 70 foizi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada joylashgan. Birgina Saudiya Arabistonida mavjud neft zaxiralarining qismi to'g'ri keladi. Agar neft hozirgi darajada qazib turilsa, uning aniqlangan zaxirasi 30-50 yilga kifoya qiladi.

Aytish mumkinki, Yevrosiyo materigida uni meredian yo`nalishida ikkiga bo`luchchi yer osti neft "kanali" mavjud. U janubda Fors qo`ltig`idan boshlanib Iroq, Eron, Kaspiy dengizi, Ozarboyjon, Turkmaniston va Qozog`istonning g`arbiy qismini, Ural tog`ining ikki tomonida joylashgan Volga bo`yi, Komi Respublikasi, G`arbiy Sibir neft konlarini birlashtiradi va shmidtida Qora dengiziga chiqadi.

Umuman olganda, neftning zaxirasi bo`yicha Saudiya Arabistoni, Rossiya, Iroq, Venesuela, Eron, Quvayt, Birlashgan Arab Amirligi va boshqalar ajralib turadi. Jahon bo`yicha qazib olinadigan neftning 14 foizi Shimoliy Amerikada, 15 foizi-Lotin Amerikasiga, 9 foizdan ko`prog`i G`arbiy Yevropaga, 1G`10 qismi MDH mamlakatlarda joylashgan.

Birinchi o`rinda esa Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika turadi (35%). Jami qazib olinadigan neftning 25 foizi jahon okeanining shelf qismiga to`g`ri keladi (Meksika qo`ltig`i, Fors qo`ltig`i, Shimoliy, Yapon, Kaspiy dengizlari va h.k.) O`zbekistonda neft zaxirasi uncha katta emas. Uning deyarli 87-90 foizi Qashqadaryo viloyatida joylashgan. Bir yilda qazib olinadigan neft 8 mln tonna atrofida.

Tabiiy gazning butuň dunyo bo`yicha zaxirasi 140 trln. kub.m. Uning bir yilda 2,3 trln kub metrdan qazib olinishi saqlanib qolinsa, mavjud tabiiy gaz zaxirasi yana 60 yilga yetishi mumkin.

Tabiiy gaz zaxiralining 40 foizga yaqini Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarda, 1G`3 qismi Rossiyada joylashgan. Shuningdek, bu borada Turkmaniston va O`zbekiston ham ajralib turadi.

Dunyo bo`yicha qazib olinadigan tabiiy gazning hududiy tarkibi quyidagicha: Shimoliy Amerika (30,2 %), G`arbiy Yevropa (11,4 %), Rossiya (23,6%), Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari (12,4%). O`zbekistonda bir yilda taxminan 55 mlrd kub.m. tabiiy gaz qazib olinadi. Uning ham asosiy qismi Qashqadaryo viloyatiga to`g`ri keladi.

**Mineral xom ashyo resurslari.** Sanoat ishlab chiqarishida mineral resurslarining o`rnı beqiyos. Xususan, bu borada temir rудаси, marganes, xrom, volfram, nikel, molibden, vannadiy, kobal't, uran, mis, rux, qo`rg`oshin, magniy, titan, olmos, oltingugurt, kadmiy, simob, surma, boksit, qalay kabilar muhim ahamiyatga ega.

Dunyo bo`yicha temir rудаси bir xil tarqalmagan. Ularning sifati, ya`ni rудада temirning hissasi 16 foizdan 70 foizgacha farqlanadi. Temir ruda zaxiraları ayniqsa Braziliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, AQSh, Rossiya, Ukraina, Qozog`istonda ko`p. Eng yirik konlarga Minas-Jeraks (Braziliya), Yuqori ko`l (AQSh), Labrador (Kanada), Shimoliy Shvesiya, Kursk magnit anomaliyasi (Rossiya), Krivbass (Ukraina) va

boshqalar misol bo'la oladi. O'zbekistonda yirik temir ruda konlari topilmagan. Uncha katta bo'lмаган Tebinbulоq temir ruda koni Qoraqalpog'istonning Sultonvoy tog'ligida joylashgan. Respublika sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan temir rудаси hamda kokslanuvchi ko'mirning yo'qligi qora metallurgiyani to'liq sikl darajada rivojlantirish imkoniyatini bermaydi.

Yer yuzida eng ko'p tarqalgan metal alyuminiy hisoblanadi. Ammo tabiatda alyuminiy sof holda uchramaydi, u boksit, aluniy, krolin, siyenit kabi xom ashylardan olinadi. Ularning eng muhim boksitdir. Dunyo mamlakatlari orasida boksit zahiralariga Gvineya, Malayziya, Avstraliya, Hindiston, Vengriya, Braziliya, Yameyka, Gayana, Surinam boy.

Endi boshqa metallarning geografiyasini ko'rib chiqamiz: marganes, bo'yicha Xitoy, JAR, Braziliya, Gabon, Hindiston, Ukraina, Gruziya; xromit bo'yicha esa JAR, Turkiya, Hindiston, Qozog'iston ajralib turadi. Nikelga Rossiya, Kanada, Kuba; misga-Zambiya, Kongo, AQSh, Xitoy, Qozog'iston, Chili, Kanada, Rossiya boy. Polimetal rudalar (qo'rg'oshin, rux, kumush) Rossiya, Kanada, Avstraliya, AQSh, Kanadada ko'p.

Qalay asosan Myanma, Tayland, Malayziya, Indoneziya va Kolumbiyada, kobalt-Kanada, Rossiya, Kongo, Zambiyada ko'proq tarqalgan. Volframning yirik konlari Xitoy, Rossiya, O'zbekiston va Koreyada joylashgan. Vanadiy esa deyarli butunlay JAR, AQSh, Rossiya hamda Xitoyga to'g'ri keladi. O'zbekistonda uran, volfram, mis, polimetall, rudalar koni mavjud. Oltin zahirasi bo'yicha respublikamiz dunyoda 4-nchi, qazib olish bo'yicha esa 7-8 o'rinnlarda turadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun azot, fosfor va kaliy turlarining ahamiyati katta. Fosforitning yirik konlari Shimoliy Afrika mamlakatlari (Marokash, Jazoir, Tunis), Rossiya (Kola yarim orolidagi Xibin apatlari), Qozog'iston (Qoratov) kabi mamlakatlarda topilgan. Shuningdek, bu xom ashyo Xitoy, Isroil, Jordaniya, Braziliya, JAR va ayrim boshqa mamlakatlarda ham mavjud. O'zbekistonda mustaqillik yillarda Navoiy viloyatida fosforitning yirik zaxiralari aniqlandi va ulardan hozirda foydalanimoqda.

Kaliy tuzi xususan Rossiya, GFR, AQSh, Kanada, Fransiya va Belorusda ko'p. Respublikamizda bunday agronomik xom ashyo Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida bor.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va hududiy tashkil etishda yer-suv resurslarining roli katta. Dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlari jami yer fondining 1G'3 qismi yoki 5 mlrd gektarga yaqinini tashkil etadi. Shundan

28 foizi haydaladigan yerlar va 70 foizi yaylovlardan iborat. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha 24 so'tixdan haydaladigan maydon to'g'ri keladi. Bu jihatdan Osiyo eng orqada, eng oldingi o'rnlarda esa Avstraliya va Yangi Zelandiya (1,87 ga) turadi.

O'rmon boyliklari ham yer yuzida har xil tarqalgan. Ayniqsa Rossiya, Braziliya, Kanada, AQSh, Hindiston, Finlandiya, Shvetsiya bu borada keskin ajralib turadi. Ayni vaqtida, umumiy maydonning o'rmon bilan qoplangan qismi yoki ko'satskichi Avstraliya, Jazoir, Saudiya Arabistoni, Misr Arab Respublikasida past. Bunday boyliklar Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonda ham juda oz.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yerlarining unumtdorligi pasayib bormoqda. Uning tarkibida eroziyaga uchragan va ikkilamchi sho'rlangan yerlar hissasi ko`p. Shu bilan birga, o'rmon zaxiralari ham kamayib bormoqda. Bulaming ogibatida atrof-muhit, geoekologik muammolar jahonning ayrim mamlakatlarda keskin tus olmoqda. Jumladan, bunday muammolar O'zbekiston Respublikasida ham mavjud.

Ekologik muammolar faqat yer va o'rmon hamda suv resurslaridan foydalanish tufayli vujudga kelmaydi. Ularga sanoat va urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi, qazilma boyliklarni tobora ko`p olinishi ham ta'sir qiladi. Masalan, bundan 40 yil muqaddam dunyoda yiliga 1 mlrd tonna neft qazib olingen bo'lsa, bu ko'satskich hozirgi kunda 3,5 martaga ko'paydi. Agar o'sha davrda yiliga 5 trln. kub.m tabiiy gaz olingen bo'lsa, hozirda u deyarli 5 martaga ortdi.

Umuman olganda, har yili yer qa'ridan 100 mlrd tonnadan ortiq turli xil mineral resurslar va yoqilg'i qazib olinadi. Tabiatga bunday munosabat, uning boyliklarini olish va evaziga katta miqdorda chiqindilar chiqarish albatta ekologik vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish barchadan yuksak ekologik madaniyat va bilimni talab etadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar orasida qanday farq bor?
2. Geoximiya fani nimalarni o'rganadi?
3. Tabiiy resurslarning hududiy birikmalatinining ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Yoqilg'i balansida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
5. Neft, gaz va ko'mir konlarining geografiyasi qanday?

- Mineral resurslar va ularning turlari jahon mamlakatlari bo'yicha qanday tarqalgan?
- Nima uchun o'ta rivojlangan Yaponiya mamlakati mazkur mavzuda umuman tilga olinmadi?
- Kontur kartaga dunyodagi eng yirik konlarini tushiring.
- O'zbekiston Respublikasi qanday tabiiy resurslarga boy va ulardan foydalanishdagi muammolarni asoslab bering.

## DUNYO AHOLISINING GEOGRAFIYASI

### Reja

- Aholi haqida umumiy tushuncha.
- Dunyo aholisining o'sishi.
- Aholining tabiiy harakati va migratsiyasi.
- Aholining tarkibi va joylanishi, mehnat resurslari.
- Shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni.

Aholi muayyan bir hududda (yer shari, mamlakat, viloyat, tuman va h.k.) yashovchi kishilarning umumiyligi, birligidir. U muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi va ayni vaqtda u o'zi yaratgan moddiy va ma'nnaviy boyliklarning iste'molchisidir. Binobarin, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining markazida aholi turadi turli hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'rganish ham demotsentrik prinsip asosida olib boriladi. Aholining yana bir muhim funksiyasi-uning o'z-o'zini takror barpo qilishidir.

Turli xil fan va ijtimoiy hayotda aholi tushunchasi bilan bir qatorda halq, millat, odam, inson, haloyiq, el, jamoa, kishi kabi so'zlar ishlataladi. Bulardan geografiya fani uchun eng muhimmi aholidir.

Aholi bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni demografik statistika beradi. Bu borada xususan aholi soni, jinsi, millati, tili, dini, yoshi, bandligi, tug'ilishi, o'limi, tabiiy va migratsion harakati, oila haqidagi ma'lumotlar katta ahamiyatga ega. Shu va shunga o'xshash ma'lumotlar aniqroq darajada vaqt-vaqt bilan (ko'pgina mamlakatlarda taxminan har 10 yilda bir marta) o'tkaziladigan aholi ro'yxati natijalaridan olinadi.

Qolgan oraliq yillar bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar esa biroz taxminiylar xarakterga ega bo'ladi.

Yer shari aholisi yildan-yilga oshib bormoqda. U ayniqsa o'tgan asrning 60-nchi yillarda tez o'sdi (bir yilik o'rtacha ko'payish 2,00-2,50 foizga yetdi). Aholi sonining bunday, birdaniga tez ko'payishini maxsus adabiyotlarda "demografik portlash" yoki "demografik revolyutsiya" deb atashadi. Buning negizida qator rivojlanayotgan mamlakatlarda (asosan Afrika va Osiyo davlatlarida) o'lim ko'rsatkichlarining keskin pasaytirilishi va tug'ilish darajasining nisbatan yuqori holatda saqlanib qolishi yotadi.

Hozirgi davrda "demografik portlash" bosqichi tarixiy mazmunga ega, ya'nii u o'tdi. Ana shu davr "fanda demografik o'tish davri" deb nomlangan.

So'nggi yillarda dunyo aholisining o'rtacha bir yillik ko'payishi taxminan 75-85 mln kishini yoki 1,2-1,3 foizni tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, har yili Yer yuzi aholisi deyarli 3 ta O'zbekiston Respublikasi aholisi miqdorida ortib boradi. Biroq, ta'kidlash joizki, o'tgan asrda barchani tashvishga solgan aholining tez o'sish muammosi (Mal'tusning reaksiyon g'oyasi) hozirgi kunda o'z keskinligini yo'qtdi.

*2-jadval*

#### Dunyo aholisining o'sishi (mln. kishi)

Yillar	Aholi soni	Yillar	Aholi soni
1000	288	1850	1181
1500	436	1900	1617
1650	545	1950	2507
1750	728	2004	6396
1800	911		

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, oxirgi ming yillikda Yer yuzi aholisi deyarli 21 marta ko'paygan. Mutloq ravishda 1000-2004 yillar davomida dunyo aholisi 6108 ming kishiga yoki har yili o'rtacha 61 milliondaga o'sib borgan. Albatta, bunday o'sish ko'rsatkichi asosan o'tgan asrning ikkinchi yarmi hisobidan vujudga kelgan.

1000-1500 yillarda mutlaq ko'payishi 148 mln, o'rtacha bir yillik ko'payish 296 ming kishini tashkil etigan. Qolgan davrlarda bu ko'rsatkichlar, yuqoridaqilarga mos holda quyidagicha (hisob-kitoblar taxminiy xarakterga ega):

- 1500 – 1650 yy.: 109 mln va 725 ming kishi;
- 1650 – 1750 yy.: 183 mln va 1830 ming kishi;
- 1750 – 1850 yy.: 453 mln va 4530 ming kishi;

1850 – 1950 yy.: 1326 mln va 13260 ming kishi;  
 1950 – 2004 yy.: 3889 mln va 72018 ming kishi;

Demak, mutlaq raqamlarda dunyo aholisi sonining ko`payishi ortib borayotgan bo`lsa-da, so`nggi yillarda nisbiy ko`rsatkichlarning borgan sari pasayishi kuzatiladi. Avval ta'kidlaganimizdek, nisbiy ko`rsatkichlarining eng yuqori darajasi XX asrning ikkinchi yarmiga to`g'ri keladi.

Dunyo aholisining qit'alar bo'yicha tarqalishi ham har xil.

3-jadval ma'lumotlariga qaraganda, aholi soni bo'yicha birinchi o'rinda Osiyo qit'asi turadi (3875 mln yoki jami aholining 60,6 foizi shu yerda yashaydi). Ikkinchi o'rinda Afrika -885 mln (13,8%), uchinchi o'rinda Yevropa-728 mln (11,4%); Amerikada 691 mln (10,8 %) va Okeaniyada 33 mln kishi (0,5 %) yashaydi.

3-jadval

### DUNYO AHOLISI (2004 YIL O'RTASIDAGI MA'LUMOT)

Qit'alar	Maydon i, ming kv. km	Aholi soni, mln. kis	Aholi tabiiy harakati, %			Ortacha umr ko`rish yili		Shahar aholisi, %
			tug'ilish	o'lim	tab ko`pa yish	erkak lar	ayo llar	
Butun dunyo	134258	6396	21	9	13	65	69	48
Afrika	30333	885	38	14	24	51	53	35
Shimoliy Afrika	8520	191	26	7	19	65	68	46
G'arbiy Afrika	6145	263	42	15	27	50	51	36
Sharqiy Afrika	6369	270	41	18	23	43	45	22
Markaziy Afrika	6620	107	45	17	28	46	49	35
Janubiy Afrika	2678	53	25	14	11	51	52	50
Shimoliy Amerika	19964	326	14	8	6	75	80	79
Markaziy Amerika	2483	146	26	5	21	71	76	68
Karib mintaqasi	235	39	20	8	12	67	71	62

<b>Janubiy Amerika</b>	<b>17888</b>	<b>365</b>	<b>21</b>	<b>6</b>	<b>15</b>	<b>67</b>	<b>74</b>	<b>79</b>
<b>Evropa</b>	<b>23015</b>	<b>728</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>-2</b>	<b>70</b>	<b>78</b>	<b>74</b>
<b>Shimoliy Yevropa</b>	<b>1752</b>	<b>96</b>	<b>12</b>	<b>10</b>	<b>2</b>	<b>75</b>	<b>80</b>	<b>82</b>
<b>G'arbiy Yevropa</b>	<b>1109</b>	<b>185</b>	<b>11</b>	<b>10</b>	<b>1</b>	<b>75</b>	<b>82</b>	<b>79</b>
<b>Sharqiy Yevropa</b>	<b>18835</b>	<b>299</b>	<b>10</b>	<b>15</b>	<b>-5</b>	<b>63</b>	<b>74</b>	<b>68</b>
<b>Janubiy Yevropa</b>	<b>1318</b>	<b>149</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>0</b>	<b>75</b>	<b>81</b>	<b>74</b>
<b>Osiyo</b>	<b>31796</b>	<b>3875</b>	<b>20</b>	<b>7</b>	<b>13</b>	<b>66</b>	<b>69</b>	<b>39</b>
<b>G'arbiy Osiyo</b>	<b>4729</b>	<b>209</b>	<b>27</b>	<b>6</b>	<b>21</b>	<b>66</b>	<b>70</b>	<b>63</b>
<b>Markaziy va Janubiy Osiyo</b>	<b>10780</b>	<b>1587</b>	<b>26</b>	<b>8</b>	<b>18</b>	<b>62</b>	<b>63</b>	<b>30</b>
<b>Janubiy va Sharqiy Osiyo</b>	<b>4500</b>	<b>548</b>	<b>22</b>	<b>7</b>	<b>15</b>	<b>66</b>	<b>70</b>	<b>38</b>
<b>Sharqiy Osiyo</b>	<b>1788</b>	<b>1531</b>	<b>12</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>70</b>	<b>74</b>	<b>46</b>
<b>Okeaniya</b>	<b>8574</b>	<b>33</b>	<b>17</b>	<b>7</b>	<b>10</b>	<b>72</b>	<b>77</b>	<b>72</b>

Jahon harnjamiyatidagi 11-ta mamlakatlarining har birida 100 mln kishidan ko'proq aholi bor. Ularning barchasida 3853 mln yoki dunyo jami aholisining 60,2 foizi joylashgan. Ushbu ro'yxatda Xitoy Halq Respublikasi "karvonboshi" hisoblanadi. Mazkur mamlakatga Yer yuzi aholisining har 5 tadan bittasi to'g'ri keladi. Ikkinchisi o'rinda - Hindiston (1069 mln); jami Xitoy va Hindistonda 2356 mln yoki dunyo aholisining 36,8 foizi yashaydi. Demograflar bashoratiga ko'ra, 2050 yilda Hindiston aholi soni bo'yicha Xitoydan o'tib ketadi.

AQSh va Indoneziyada 292 va 221 mln.kishidan, Braziliyada 177., Rossiya, Bangladesh va Pokistonda 145-150 mln kishidan aholi bor. Afrika davlatlaridan "yuz millionliklar" guruhiga faqat Nigeriya kiradi (134 mln). U asrimizning o'talariga kelib dunyonining 5-nchi mamlakatiga aylanadi.

3-jadvalda 60 mln dan ortiq aholiga ega bo'lgan davlatlar ro'yxati ham keltirilgan. Qizig'i shundaki, Yevropaning biror mamlakati oldingi guruhdan (ya'ni 100 mln.kishidan ortiq) o'rin olomagan. Ushbu guruhda esa Germaniya va Fransiya mamlakatlari joy olgan.

4-jadval.

**Aholi soni bo'yicha eng katta mamlakatlar (2003 yilda)**

t.r.	Mamlakatlar nomi	Aholisi, mln. kishi
1.	Xitoy	1288,7
2.	Hinduston	1068,6
3.	AQSh	291,5
4.	Indoneziya	220,5
5.	Braziliya	176,5
6.	Pokiston	149,1
7.	Bangladesh	146,7
8.	Rossiya	145,5
9.	Nigeriya	133,9
10.	Yaponiya	127,5
11.	Meksika	104,9
12.	Germaniya	82,6
13.	Filippin	81,6
14.	Vyetnam	80,8
15.	Misr Arab Respublikasi	72,1
16.	Turkiya	71,2
17.	Efiopiya	70,7
18.	Eron	66,6
19.	Tailand	63,1
20.	Fransiya	59,8

Yer yuzi aholisining joylanishi nihoyatda notekis. Jami quruqlik maydonining (145 mln kv km) taxminan 10 foizida aholi deyarli yashaymadi. Bunga Antarktida, Grenlandiyaning asosiy qismi hamda Shimoliy Muz okeanidagi ba'zi orollar kiradi.

Jami aholining taxminan 30 foizi dengizlardan 50 km masofadagi quruqlikda, yarmi 200 km-gacha, 3G'4 qismi 500 km-gacha bo'lgan hududlarda joylashgan. Aholi joylashuvining gipsometrik balandliklar bo'yicha joylashuvi ham o'ziga xos. Masalan, 60 foizga yaqin aholi dengiz sathidan 200 metrgacha bo'lgan balandlikda, 11% foizi 500-1000 m., 4 foizi 1000-1500 m., 2 foizi 1500-2000 m. va atigi 1 foizi 2000 m va undan baland bo'lgan joylarda yashaydi.

Umuman olganda, aholi joylashuvi iqlim sharoiti qulay, sug'orma dehqonchilik, sanoat, transport rivojlangan hududlarda zich-o'rtacha har bir kv. km-ga 47 kishi to'g'ri kelgan holda Hind-Gang pasttekisligida,

Sharqiy Xitoy, Yava, Yapon orollari, O'rta Osiyo vodiy va vohalarida, Shimoliy Amerikadagi Buyuk ko'llar atrofida u juda zich joylashgan. Ayni vaqtda, Sahroi Kabirda, Markaziy Osiyo cho'l va tog'larida, Braziliya va Afrikaning nam tropik o'rmonzorlarida, Rossiya hamda Kanadaning tundra mintaqasida aholi zichligi nihoyatda past. Vaholanki, dunyo aholisining 2G'3 qismi Yer yuzining atigi 8 foiz maydonida mujassamlashgan.

4-jadval ma'lumotlardan ayonki, Bangladeshda har 1 kv.km maydonga 1018 kishi to'g'ri keladi. Falastin hududida bu ko'rsatkich 526, Janubiy Koreyada 482, Livanda 400 kishidan ortiq. Yevropaning eng aholi zich joylashgan mamlakatlari Niderlandiya va Bel'giya hisoblanadi.

Tasavvur qiling: dunyoning "birinchi" mamlakati, yani Xitoyda aholi zichligi 134 kishi, "ikkinchi" davlati-Hindistonda 325 kishini tashkil qiladi. Ko'rniib turibdiki, hunday mamlakatlarning demografik sig'imi yoki "yuki" nihoyatda katta. Taqqoslash uchun eslatamiz: O'zbekiston Respublikasida aholi zichligi 56 kishi, shu jumladan, Andijon viloyatida 550 kishidan ortiq (lekin uning maydoni atigi 4,1 ming kv.km., xolos).

Dunyo aholisi faqat tabiiy ko'payish, ya'ni tug'ilish va o'limning nisbati asosida ko'payib boradi. Ma'lumki, aholining tabiiy harakati (odamning tug'ilishi, vafot etishi tabiiy holligidan aholining ushbu harakati "tabiiy harakat" yoki "aholining takror harpo bo'lishi" deb ataladi). Mazkur ko'rsatkichlar, qulayroq raqamga ega bo'lishi uchun, odatda, protsentda (foizda) emas, promilleda, ya'ni har 1000 kishiga nisbatan hisoblanadi. 3-jadvalda dunyo va uning alohida yirik qismlari bo'yicha bu ko'rsatkichlar keltirilgan. Masalan, 2003 yilda har 1000 kishi aholiga dunyo bo'yicha o'rtacha 21 kishi tug'ilgan, 9 kishi vafot etgan va tabiiy ko'payish 13 kishiga to'g'ri kelgan.

**Aholi eng zinch joylashgan mamlakatlar (2003 y)**

T.r.	Mamlakatlar nomi	Zichlik, kishi/kv.km.
	Yer shari bo'yicha, o'rtacha	47
1.	Bangladesh	1018
2.	Falastin	526
3.	Janubiy Koreya	482
4.	Livan	403
5.	Niderlandiya	397
6.	Bel'giya	340
7.	Yaponiya	337
8.	Hindiston	325
9.	Isroil	318
10.	Filippin	272
11.	Vyetnam	243
12.	Buyuk Britaniya	241
13.	Germaniya	231
14.	Italiya	190
15.	Pokiston	187
16.	Nigeriya	145
17.	Xitoy	134
18.	Pol'sha	119
19.	Indoneziya	116
20.	Fransiya	108

Tabiiy ko'rsatkich, jumladan, tug'ilishning umumiy koefitsiyenti Afrikada 38 promille, shu jumladan, G'arbiy Afrika mamlakatlarida 42, Sharqiy Afrikada 41, Markaziy Afrika davlatlarida 45 %. Eng past ko'rsatkich Yevropada kuzatiladi. Bu yerda o'limning yuqoriligi tufayli tabiiy ko'payish emas, balki tabiiy kamayish (ya'ni depopulyatsiya) sodir bo'lmoqda.

Alovida mamlakatlar doirasida tug'ilish eng yuqori bo'lganlarga Gvineya-Bissau, Liberiya, Syerra-Leone (50 %), Niger (55 %) kiradi. Ularning barchasi Afrika qit'asida joylashgan. Lekin o'lim ko'rsatkichlari ham bu mamlakatlarda nihoyatda yuqori (20-30 promille). Demak, bunday davlatlarda aholining "aylanma harakati" juda katta, aholi takror barpo etilishining samaradorligi esa o'ta past.

Osiyo mamlakatlari orasida Afg'oniston ajralib turadi: tug'ilish 48, o'lim 21 va tabiiy ko'payish 27 promille, taqqoslash uchun: O'zbekistonda bu ko'rsatkichlar: 24; 8 va 16 promille.

Aholi tug'ilishining eng past ko'rsatkichlari (10 promilledan kam) asosan Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. Masalan, Latviya, Avstriya, Germaniya, Bolgariya, Chexiya kabi davlatlarda u 9 %. Ayni vaqtida, o'limining ham yuqoriligi sababli aksariyat Yevropa davlatlarida aholi tabiiy harakatining natijasi salbiy. Ularga Estoniya, Latviya, Litva, Germaniya, Belorus, Bolgariya, Chexiya, Vengriya, Moldaviya, Ruminiya va boshqalar misol bo'la oladi. Rossiyada tug'ilish 10, o'lim 17 va tabiiy kamayish 7 promille. Ukrainada bu ko'rsatkichlar, yuqoridagilarga mos holda, 9; 16 va minus 7 kishini tashkil qiladi.

Migratsiya, ya'ni aholining doimiy yashash joyini o'zgartirgan holda ko'chib yurishi, alohida hududlar (qit'a, mamlakat, viloyat va h.k.) aholisi sonining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy omillar asosida yuzaga keladi. So'nggi yillarda sobiq Ittifoqning parchalanishi oqibatida aholining tashqi migratsiyasi kuchayib ketdi.

Dunyo mamlakatlari orasida Kanada, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil kabilalar aholisi asosan halqaro migratsiya tufayli shakllangan.

Aholining tabiiy harakati natijasida uning iqtisodiy faol qismi shakllanadi. Ushbu toifaga ishlaydigan va rasman ishsiz maqomida qayd etilganlar kiradi. Rossiya va sobiq Ittifoqda "mehnat resursi" tushunchasi qabul qilingan bo'lib, unga mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi (erkaklar 16-59, ayollar 16-54 yosh) hamda 16 yoshga yetmagan va nafaqa yoshida bo'lgan, ammo ishlab chiqarishda band bo'lganlar kiradi. Shu bilan birga, mehnat qilishga layoqatli yosh guruhidagi nogironlar mehnat resurslariga kiritilmaydi.

Dunyo miqyosida iqtisodiy faol aholi jami aholining 45 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda, aholining takror barpo bo'lish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turlicha. Iqtisodiy faol aholining nofaol aholiga nisbati "demografik yukni" belgilaydi. Har qanday mamlakat o'zining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatidan kelib chiqib, nafaqagva chiqish yili (muddatini) qonuniy asoslاب beradi va, shu bilan birga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish siyosatini amalga oshiradi.

Aholini o'rganishda uning milliy, diniy va boshqa xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda,

dunyoda 5 mingdan ortiq xalqlar mavjud. Turli elat va qabilalarning qo'shilishi (konsolidatsiya va assimlyatsiyasi) natijasida millatlar shakllanadi. Xalqlar esa kishilarning til, yashash tarzi va madaniyati bir xil bo'lgan tarixiy birligidir.

- Ayrim mamlakatlarda asosan bir millat, ya'ni tub (titul millati) ko'p. Bunga Portugaliya, Norvegiya, Vengriya, Gretsya, Yaponiya, Bangladesh, Shimoliy Koreya, Saudiya Arabiston, Misr Arab Respublikasi, Tunis, Kuba, Braziliya, Kolumbiya va boshqa mamlakatlar misol bo'la oladi. Ayni vaqtida yaxudiy, rus, arman, turk kabi millatlar ko'pgina mamlakatlarda tarqalgan. Birgina Yangi Gvineya orolida 200 dan ortiq tillar mavjud.

Tojikiston Respublikasining Tog'li Badaxshon avtonom oblastida ham turli xil yoki shevalarda so'zlovchi pomir tojiklari ko'p. Umuman olganda, 100 mln kishidan ortiq 7 ta asosiy xalqlar bor. Ular (xitoy yoki xan, hinduylar, amerikaliklar, bengallar, braziliyaliklar, rus va yamonlar) jami aholining 40 foizini tashkil etadi.

Dunyo xalqlari turli tillarda so'zlashishlari bilan ham farq qilishadi. Yer yuzida, olimlar fikricha, 4-5 ming tillar mavjud. Eng ko'p xitoy tilida gaplashadiganlar-1200 mln; ingliz tilida 450, hind va urdu tillarda-350, ispan tilida-300 mln kishi so'zlashadi. Shuningdek, bengal, indonez, portugal, arab tillarida (170 mln-dan), yapon (123 mln.) hamda nemis va fransuz tillarida 100 mln.dan kishilar gaplashadilar. Rus tilida so'zlashadiganlar ham ancha ko'p. Shunday qilib, 12 ta asosiy tilda dunyo aholisining 2G'3 qismi so'zlashadi. BMT-da esa rasman 6 ta tilda muloqot olib boriladi (ingliz, fransuz, ispan, rus, arab va xitoy).

Aholining diniy tarkibi bo'yicha eng qadimiy din buddizm hisoblanadi (eramizdan avvalgi IV asrda vujudga kelgan). Unga hozirgi vaqtida 300 mln.kishi e'tiqod qiladi. Eng ko'p aholi xristian diniga mansub-1,2 mlrd kishi, shundan yarmi katoliklar. Ammo so'nggi yillarda islam dini kuchayib bormoqda (1 mlrd kishidan ortiq), induistlar -700 mln kishini tashkil qiladi.

Aholi shahar va qishloqlarda yashovchilarga bo'linadi. Hozirgi vaqtida dunyo aholisining taxminan yarmiga yaqini (aniqrog'i 47%) shahar joylarda yashaydi. Ammo "shahar" tushunchasi turli mamlakatlarda har xil. Masalan, Islandiya va Daniyada shahar maqomini olish uchun atigi 200 kishi, Kanadada 1000 kishi, Rossiyada 12.ming, Qиргизистонда 10 ming, O'zbekistonda 7 ming, Turkmaniston yoki Gruziyada 5 ming kishi kerak. Shu bilan birga, jami shahar aholisining yarmidan yoki 2/3 qismidan ko'prog'i qishloq xo'jaligidagi band bo'lmaganlar ham talab etiladi.

Hozirgi mavjud shaharlarning eng qadimiysi Falastindagi Ierixon shaharidir. Uning yoshi 5000 yilga yaqin. Rim 3000 yil, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrizabz, Qarshi 2500-2700 yillik tarixga ega.

Eng qadimiy shaharlar Yaqin Sharqda paydo bo`lgan bo`lsa, sharq, xususan, Xitoy va Yaponiya shaharlari avvallari nisbatan yirik bo`lgan. Yevropada eng birinchi "millioner" shahar London faqat 1800 yilda paydo bo`lgan. O`rta asrlarda o`zimizning Samarqand, Buxoroga o`xshash shaharlar hozirgi dunyoga mashhur London, Parij, Vena, Praga, Moskva kabi shaharlardan ancha katta bo`lgan.

100 foiz urbanizatsiya ko`rsatkichiga ega bo`lgan shahar - "mitti" davlatlar bor (Singapur, Vatikan, Monako, San-Marino va b). Bel'giya, Isroil, Quvayt, Urugvayda urbanizatsiya darajasi, ya`ni jami aholida shaharliklar hissasi 90 foizdan yuqori. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar ham katta urbanizatsiya ko`rsatkichiga ega (80-90 foiz). Taqqoslash uchun: O`zbekistonda bu ko`rsatkich 36,5 foizga teng. Xitoy yoki Hindustonda shaharliklar umumiy aholi sonining taxminan 30 foizini tashkil etsa bu ko`rsatkich Burundi yoki Ruandada atigi 6-8 foizga yetadi, xolos.

Dunyoda taxminan 85 ming shahar tipidagi aholi manzilgohlari mavjud. Shundan 370-dan ko`proq`ning har birida 1 million va undan ko`proq aholi yashaydi. Ularning aholisi taxminan 1,1 mlrd kishi yoki dunyo aholisining 1G`5, jami shaharliklarning 1G`3 qismi aynan ana shu "millioner" shaharlarga to`g`ri keladi.

BMTning ma'lumotlariga binoan 29ta megashahar (mega-ulkan, katta) mavjud. Yirik shaharlar asosida shahar aglomeratsiyalari vujudga keladi, ularning bir-biriga qo'shilib ketishi esa megapolislarni shakllantiradi: Bosvash, Chigpits, Sansan, Tokaydo shular jumlasidandir. Eng yirik aglomeratsiyalar: Tokio (28 mln), Bombey, San-Paulo, N`yu-York aglomeratsiyalarining har birida taxminan 18-19 million kishidan aholi yashaydi.

So`nggi yillarda dunyo urbanizatsiyasini, ya`ni an'anaviy shahar aholisi ulushining ko`payib borishini rivojlangan mamlakatlar emas, balki rivojlanayotgan mamlakatlar belgilab bermoqda. Shu bois, London, Parij, Vena, Moskva, Sankt-Peterburg kabi shaharlar aholisi o'smayapti, aksincha, Shanxay, Bombey, San-Paulo, Rio-de-Janeyro, Stambul, Tehron, Lagos, Kalkutta, Pekin kabilar tez o'smoqda. Demak, tarix "g`ildiragi" ya`ni sharqqa, ya`ni Osiyoga qaytmoqda.

## Savol va topshiriqlar

1. Geografiyada aholi qanday tushuniladi?
2. Jahon aholisi o'sishi qanday xususiyatlarga ega?
3. Dunyo aholisining hududiy tarkibini ta'riflab bering.
4. Aholi zichligi qaysi mamlakatlarda va nima sababdan yuqori?
5. Dunyo aholisining til va diniy tarkibi qanday?
6. Urbanizatsiya jarayonining geografik xususiyatlarini asoslab bering.

## SIYOSIV GEOGRAFIYA VA JAHON SIYOSIY XARITASI

### Reja

1. Siyosiy geografiya, uning obyekti va predmeti.
2. Siyosiy geografiya va geosiyosat.
3. Siyosiy geografik o'rinni.
4. Respublika va monarxiya tipidagi davlatlar.
5. Alohida qit'alarning siyosiy geografiyasini.

Siyosiy geografiya keng ma'nodagi ijtimoiy geografiyaning bir qismidir. U iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial geografiya bilan bir qatorda o'zining alohida blokini shakllantirmoqda. Ushbu blokga harbiy va elektoral (ya'ni saylovlar) geografiyasini ham kiritish mumkin.

Siyosiy geografiyaning tadqiqot obyekti bo'lib hududiy siyosiy tizimlar (sistemalar) xizmat qiladi. Uning predmeti esa muayyan mamlakat yoki butun jahon miqyosida jamiyatning siyosiy-hududiy tashkil etilishini, o'rganishdan iborat. Shuningdek, bu fan davlatlar va ularning chegaralari (limologiya), davlat tuzumi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, mamlakat doirasida siyosiy partiya va kuchlarning joylanishi, hududiy tarkibini o'rganadi. So'nggi yillardagi jahon hamjamiyati va geosiyosiy tizimidagi muhim o'zgarishlar hamda davlatlararo tashkil etilgan harbiy-siyosiy uyushma yoki ittifoqlar siyosiy geografiya tadqiqot predmetini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur fanning tarixi ham ancha uzoq. Agar keng ko'lalma qaraydigan bo'lsak, uning vujudga kelishi dastlabki davlatlarning paydo bo'lishiga borib taqaladi, chunki siyosiy geografiya uchun davlat (demak, uning hududiy yaxlitligi, chegarasi, boshqarish tashkilotlari, harbiy va siyosiy kuchlari) asosiy mazmun kasb etadi.

Ammo siyosiy geografiyaning fan sifatida shakllanish tarixi uncha uzoq emas. Dastavval "siyosiy geografiya" tushunchasi, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, XVIII asrning 20-50-yillarida Peterburgda

(Rossiyada) xizmatda bo`lgan nemis olimlari G.V.Kraft va X.N.Vinsgeymlar tomonidan tilga olingan. Ular ushbu tushunchani geografiya fanining bir qismi, tarixiy geografiya va statistika (davlatshunoslik) bilan aloqadorligini ta'kidlashgan. Siyosiy geografiyaning haqiqiy fan sifatida shakllanishini esa ko`pchilik nemis geografi va sotsiologii Fridrix Fon Ratsel nomi bilan bog`laydilar. U 1898-yilda shu nomda kitob nashr ettirganligi uchun siyosiy geografiyaning "otasi" deb tan olingan. Shu bilan birga, Ratselning aynan mazkur asari tufayli shved R.Chellen "geosiyosat" tushunchasini yaratdi.

Siyosiy geografiya geografiya va siyosatshunoslik qirrasidagi ijtimoiy geografiya sanidar. U, o`z navbatida, tarix va geosiyosat bilan ham yaqindan aloqa qiladi. Biroq, geosiyosat va siyosiy geografiya bir-biriga juda yaqin bo`lsa-da, ularning orasida farq bor: geosiyosat asosan davlatlarning tashqi siyosati, siyosiy geografiyaning tadqiqot obyekti esa ularning ichki hududiy-siyosiy tuzilishidir. Ayni vaqtida, har ikki fan ham jahon geosiyosiy tizimi, siyosiy xaritasi bilan ish tutadi.

Hozirgi vaqtida jahon siyosiy xaritasida 200dan ortiq mustaqil davlatlar mavjud (1998-yil ma'lumotiga ko`ra 193 ta, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilinganlari 185 ta bo`lgan). Birgina XX asrda suveren davlatlar soni yaqin 4 marta ko`paygan, shu jumladan, Afrikada 4 tadan 53 taga, Osiyoda 9 tadan 48 taga yetgan; Okeaniyada 1900-yilda birorta mustaqil davlat bo`lmagan bo`lsa, hozirgi kunda ularning soni 14 tani tashkil etadi.

Yer sharidagi davlatlar o`zlarining katta-kichikligi, geografik o`mi va joylanishi, siyosiy tuzumiga ko`ra bir xil emas. Chunonchi, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, AQSh, Hindiston, Avstraliya, Braziliya kabi hududi nihoyatda katta mamlakatlar bilan bir qatorda o`nga yaqin juda kichik, "mitti" davlatlar ham bor (eng kichigi Rim shahri ichidagi Vatikan bo`lib, uning maydoni 400 km<sup>2</sup>, aholisi 1 ming kishidan iborat). Aholi soni bo`yicha dunyoning eng katta davlatlari Xitoy, Hindiston, AQSh, Indoneziya, Jazoir, Sudan, Kongo, Saudiya Arabistoni va boshqalardir (hozirgi kunda 100 milliondan ortiq aholiga ega bo`lgan 11 davlat mavjud).

Geografik joylanishiga ko`ra mamlakatlar orolda, yarim orolda, dengiz va okeanlar bo`yida, materik ichkarisida joylashganligi bilan farq qilishadi. Masalan, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Kipr, Yaponiya, Mal`div Respublikasi, Kuha, Fillipinga o`xshash hamda Okeaniyadagi kichik davlatlar orollarda, Janubiy va Shimoliy Koreya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Norvegiya, Shvesiya kabilar yarim orollarda joylashgan.

Ko'pchilik davlatlar bevosita jahon okeani va dengizlari bo'yicha o'mashgan, ayrimlari esa (Boliviya, Paragvay, Nepal, Butan, Afg'oniston, Qozog'iston, Armaniston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Avstriya, Lyuksemburg, Shvetsariya, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi va hokazo) materik ichida. Masalan, O'zbekiston Respublikasi jahon okeaniga chiqishi uchun eng kamida 2 xorijiy mamlakat hududidan o'tishi kerak. Bu borada u dunyoning geosiyosiy xaritasida ikki mamlakatdan biri hisoblanadi.

Mamlakatning ichki jihatdan tashkil etish va boshqarish ko'proq uning hududi qiyofasiga va geoshakliga ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan mamlakat hududining ixcham (kompakt) bo'lgani ma'qul. Bunga misol qilib, Fransiya yoki Pol'sha davlatlarini keltirish mumkin. Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya yoki Chili davlatlarining hududi esa "cho'zinchoq" uzoq masofaga cho'zilgan. Bunday holat, albatta, transport va boshqa infrastrukturta tizimini rivojlantirish, aholiga xizmat ko'rsatish va hatto harbiy-strategik jihatdan ham qulay emas.

Xuddi shu nuqtai nazardan davlatlar huđudining yaxlit, bir butun yoki anklav, eksklav shakllariga ega bo'lishi ham ma'lum mazmunga ega. Anklav shakli mamlakat hududining boshqa mämlakat hududiga suqilib kirishi (dengiz qo'llig'i, yoki yarim orollatga o'xshab) demakdir. Bunga misol Toshkent viloyatining chekka shimoli-sharqiylar qismi, Tojikiston Respublikasi So'g'd viloyatidagi Zafarobod tumanlarini kiritish mumkin. Eksklavda esa davlat chegarasining yaxlit emasligi, uning kichikroq huđudini asosiy huđuddan tamomila ajtalib qolgan holai tushuniladi. Masalan, AQShning Alyaska va Gavayi orollari (49, 50-shtatlari), o'zimizning O'zbekistondagi Farg'ona viloyatining Shohimardon qishlog'i, yoki So'x tumani, Rossiya Federatsiyasining Kaliningrad viloyati va b.).

Siyosiy geografiyada davlat chegarasi, uning shakli ham katta ahamiyat kasb etadi. Odatda, bu chegaralar ikki vazifani bajaradi-ular hududlarni bir-biridan ajratib, baryer sifatida va, ayni vaqtda, ikki davlatni bog'lab, ular o'rtaida, iqtisodiy integratsiya maydoni darajasida xiznat qilishadi. Shu bilan birga, chegaraga tutash rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi o'ziga xos bo'ladi.

Davlatlarning siyosiy geografik o'rni va siyosiy tuzimi ham har xil. Siyosiy geografik o'rni deganda ma'lum bir davlatning boshqa (qo'shni va jahon hamjamiyati) davlatlariga hamda yirik davlatlararo harbiy va siyosiy uyushmalarga, Jaxon okeaniga nisbatan tutgan o'rni tushuniladi. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasining hozirgi siyosiy geografik o'rmini uncha qulay deb bo'lmaydi.

Mamlakatlarning davlat tuzumi asosan ikki xil, ya'nı monarxiya va respublika shaklida bo'ladi. Monarxiya davlat tuzumining eng qadimgi shakli bo'lib, u oliv davlat hokimiyatining yakka bir shaxsga-monarxga (podshoh, qiro, shoh, amir, sulton va h.k.) bo'ysunishini bildiradi. O'z navbatida, monarxiyaning ham turli ko'rinishlari mavjud, Masalan, mutlaq monarxiyada davlat boshlig'ining roli cheklanganigan va unga barcha oliv mansablar taalluqli bo'ladi, davlat rahbarligi avloddan-avlodga meroz sifatida o'tib boradi (Birlashgan Arab Amirligi, Qatar, Oman, o'tmishda Rossiya va b.).

Cheklangan monarxiyada davlat boshlig'ining funksiyasi konstitutsiya yoki parlament orqali cheklangan. Masalan, Shvetsiya konstitutsion monarxiya, Buyuk Britaniya esa parlament monarxiya tuzumiga ega (bu mamlakatda asosiy vazifani prem'er-ministr bajaradi).

Yuqoridagilardan tashqari, monarxiyaning mutloq teokratik ("teo"-xudo, din) shakli ham mavjud. Bunday tipdagi mamlakatlarda (Vatikan, Saudiya Arabistoni, Bruney) davlat rahbari ayni vaqtida diniy boshliq hisoblanadi. Vatikanda monarx Rim Papasi, Saudiya Arabistonida esa barcha rahbarlik (prem'er ministr, Oliy sud'ya, Oliy qo'mondon va hokazo) faqat yakka-yu-yagona qiroqla bo'ysunadi.

Davlat tuzumining respublika shakti ham ancha qadimiy (San-Marino Respublikasi 301-yilda tashkil topgan). Respublika ham, o'z navbatida, prezident va parlament respublikasi shaklida bo'ladi. Birinchisida saylangan prezident ayni vaqtida davlat va hokimiyat boshlig'idir; u hatto parlamentni oldindan tarqatib yuborish huquqiga ham ega. Respublikaning bunday ko'rinishi AQSh, Braziliya, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa davlatlarda amal qildi.

Parlamentar respublikada prezident huquqi biroz cheklangan bo'lib, unda hokimiyat parlamentga shaklan bo'ysunsa-da, u amalda asosiy boshqaruvchi shaxs hisoblanadi (Germaniya Federativ Respublikasi, Malayziya, Hindiston, Avstriya, Pol'sha, Italiya va b.).

Hozirgi davrda yer sharida respublika tuzumidagi davlatlar ko'pchilikni tashkil qildi. Ularning umumiy soni 150 ga yaqin, monarxiya tuzumiga esa taxminan 30 ta davlat kiradi.

Davlat tuzumi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan ham bog'liq. Odatda, davlatlar ma'muriy-hududiy tuzulishining ikki -unitar va federativ shakli mavjud. Unitar davlatlarda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organ bitta, konstitutsiya ham yagona. Ularning ichidagi ma'muriy

birliklar, masalan, viloyat, rayon kabilarning huquqi uncha katta emas. Bunday davlatlar soni juda ko'p: Fransiya, Ukraina, Turkmaniston, Belorus', Qozog'iston, Qirg'iziston, Yaponiya va h.k.

Federativ davlatlarning ichki siyosiy tuzilishi ancha murakab: bu yerda "davlat ichida davlatlar" mavjud bo'ladi. Yagona davlat tarkibidagi respublika, shtat, okrug, yer, kanton, provinsiya kabilalar o'zlarining konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlariga ega. Ularning siyosiy jihatdan mavqeい ham ancha yuqori. Chunonchi, AQSh, Braziliya, Hindiston, Meksikaga o'xshash 20 ga yaqin federativ davlatlar tarkibida shtatlar (state, shtat-davlat demakdir), GFRda "yerlar", Rossiyada -respublikalar mavjud.

Davlat ma'muriy tuzilishining konfederatsiya shaklida uning ichki birliklari o'zlarining mustaqilligini to'la saqlagan bo'ladi. Bunday geosiyosiy tizim Shvetsariyada kuzatiladi; Shvetsariya konfederatsiyasi alohida kontonlardan iborat.

Dunyo siyosiy xaritasida tom ma'nodagi koloniya va mustamlakalar deyarli yo'qolgan bo'lsa-da, siyosiy jihatdan qaram yoki bo'ysunuvchi huđudlar hanuzgacha bor. Bularga Portugaliya, Daniya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning yer sharining turli chekkalarida qolgan avvalgi mustamlakalari, kichik, to'la mustaqil bo'lmagan hududlari kiradi. Ular, masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Okeaniya, Karib dengizi havzasida joylashgan.

Shu o'rinda Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik davlatlariga ham to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, "Buyuk Britaniya" dastavval 1707-yilda Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning qo'shilishidan tashkil topgan edi. 1931-yilda vujudga kelgan Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga hozirgi vaqtida 50 dan ortiq davlatlar, shu jumladan, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Kanada kiradi (umumiy maydoni 30 mln. km<sup>2</sup>, aholisi esa dunyo aholisining 1G'6 qismini tashkil qiladi). Hamdo'stlik tarkibidagi tuzumga ega bo'lgan davlatlar oliv hokimiyat sifatida Buyuk Britaniya qirolichasiga bo'ysunadi.

Dunyo siyosiy geografiyasini yaxshiroq bilish uchun uni alohida qit'alar doirasida taxlil qilish maqsadga muvofiq.

Yevropa. Maydoni, Rossiya Federatsiyasisiz, 5,9 mln.kv.km. bo'lib, uning hududida 40 dan ortiq mustaqil davlatlar bor. Ulardan 32 respublika, qolgani monarxiya (asosan konstitutsion monarxiya) tipidagi davlatlar; 5 davlat federativ tuzilishga ega. Maydoni jihatdan nisbatan katta davlatlar Fransiya, Ukraina, Ispaniya, GFR; shu bilan birga, bu yerda 6 ta "mitti" davlatlar ham joylashgan: Andorra, Lixtenshteyn, Vatikan, Monako

, San-Marino, Mal'ta (eng kichigi Vatikan). Yevropada birorta 100 mln.dan ortiq aholisi bo'lgan davlat yo'q. Eng katta davlat GFRda 85 mln.kishi atrofida aholi yashaydi. Ayni vaqtida Estoniya aholisi 1,5, Islandiya-0,3, Lyuksemburg-0,4 mln, Andorrada 40, Lixtenshteyn va Monakoda 27 mingdan, San-Marinoda 22, Vatikanda atigi 1 ming kishi aholi bor, xolos.

Ko'rinish turibdiki, Yevropaning siyosiy xaritasi ancha murakkab; bu yerda davlatlar juda "zich" joylashgan, o'rtacha har bir davlatga taxminan 1,4 mln.kv.km-dan maydon to'g'ri keladi. Agar Rossiyaning Osiyo qismini hisobga olmasak, Yevropaning umumiy maydoni 10 mln.kv.km., aholisi 695 mln.kishi (Rossiya Federatsiyasining 75 foiz aholisi Yevropada, shuncha foiz maydoni Osiyo qit'asida joylashgan.) Turkiyaning ham asosiy hududi Osiyoda o'rashgan.

Yevropa siyosiy geografiyasini Shimoliy, G'arbiy, Janubiy, Markaziy va Sharqiylar mintaqalari doirasida o'rghanish tavsija etiladi. Shu bilan birga, ushbu qit'aning siyosiy geografik tahsilida "janjallii" yoki siyosiy mavqeい aniq bo'llagan hududlar, harbiy, siyosiy-hududiy birlashma va ittifoqlarga ham e'tibor berish kerak. Masalan, sobiq Yugoslavia hududdidagi Kosovo, Korsika oroli, Moldaviyadagi Dnestr bo'yи respublikasi, Shimoliy Irlandiya kabilar siyosiy jihatdan barqaror hududlar hisoblanmaydi. Gibraltar esa (6,5 kv.km) 1713-yildan beri Buyuk Britaniya qaramog'ida.

Ma'lumki, 1949-yilda AQSh tashabbusi bilan NATO (Shimoliy Atlantika bloki) tashkil qilingan. Hozirgi kunda uning tarkibiga 20 ta yaqin davlatlar kiradi. Ularning ko'pchiligi, ya'nii 14 tasi Yevropada joylashgan. So'nggi yillarda ushbu tashkilot sharqqa tomon kengayib bormoqda.

Shuningdek, 1973-yilda tashkild topgan Yevropada havfsizlik va hamkorlik bo'yicha tashkilot (OBSE) ham asosan Yevropada faoliyat ko'rsatadi. Unga barcha Yevropa davlatlaridan tashqari AQSh va Kanada ham a'zo bo'lgan (jami 40 ga yaqin mamlakatlari). Inson huquqlari, demokratiyani himoya qilish maqsadida 1949-yilda Yevropa Ittifoqi ham tashkil qilingan.

NATOning "poytaxti" Bryussel' (Bel'giya), Yel-niki Strasburg shahri (Fransiya). Ayni vaqtida Shvetsariya, Norvegiya, Shvetsiya, Avstriya, Irlandiya va Mal'ta betaraf mamlakatlardir.

Osiyo qit'asida Janubi-G'arbiy, Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy va Markaziy Osiyo siyosiy geografik mintaqalari ajratiladi. Umumiy maydoni, Rossiyan hisoblamaganda, 31 mln.kv.km., aholisi 3,8 mlrd. kishidan ortiq. Eng katta davlatlar XXR, Saudiya Arabiston, Hindiston, Qozog'iston, Mo'g'iliston, Indoneziya, Eron. Ularning har birining

maydoni 1 mln. v. km.-dan (Xitoyniki 9,6 mln. kv. km). Eng kichik davlatlar qatoriga Singapur va Baxreyn (1 ming kv.km), Bruney (5 ming), Maldiv Respublikasi (0,3 ming kv.km) kiradi.

Aholi soni bo'yicha dunyoning eng katta davlatlari: XXR (2003-yil o'rtalarida 1,3 mlrd.ga yaqin), Hindiston (1,07 mlrd.), Indoneziya (206 mln. atrofida). Shuningdek, Osiyoda aholisi 100 mln. kishidan ziyod bo'lgan Bangladesh, Pokiston va Yaponiya davlatlari ham joylashgan. Ayni vaqtida Quvaytda 2 mln, Kiprda 0,7, Katarda 0,6, Butanda 0,8, Bruney va Mal'div Respublikasida 0,3 ming kishidan aholi yashaydi.

Davlat tuzumi bo'yicha respublikalar ko'proq. Shu bilan birga bu yerda yakka-yu-yagona imperiya shaklidagi davlat ham saqlanib qolgan (Yaponiya). Markaziy Osiyo va Kavkazorti mustaqil davlatlari, Suriya, Kipr, Isroi, Pokiston, Bangladesh, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Livan, Xitoy, Indoneziya, Mo'g'iliston va boshqalar respublika, Yaponiya, Baxreyn, Bruney, Butan, Katar, Quvayt, Saudiya Arabiston, Malayziya, Nepal, Oman, Tailand kabilar monarxiya tipidagi davatlarga kiradi.

Osiyoda ham "issiq" yoki "olovli", baxs va munozarali hududlar ko'p. Ular jumlasiga Falastin, Kurdist'on, Kipr, Afg'oniston, Tog'li Qorabog', Abxaziya, Checheniston, Janubiy Osetiya, Kashmir, Tayvan, Sharqiy Timor, Sinzyan-Uyg'ur avtonom oblasti, Tibet, Janubiy Kuril orollari va boshqalar kiradi. Shuningdek, Janubiy va Shimoliy Koreya, M'yanma (avvalgi Birma), Shri Lanka, Kaspiy dengizi muammolari ham mavjud.

Hududiy-siyosiy tashkilotlardan quyidagilar bor:

- 1945-yilda tashkil topgan Arab mamlakatlari Ligasi (markazi-*Qohira shahri*);

- 1989-yilda vujudga kelgan Osiyo-Tinch okeani davlatlarining iqtisodiy hamkorligi (ATES). Unga 20dan ortiq mamlakatlar, shu jumladan, AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Rossiya, Yangi Zelandiya, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Filippin, XXR, Meksika, Chili, Tailand, Malayziya va boshqalar kiradi.

- 1993-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) tashkil topgan. U Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'izistonni birlashtiradi.

Afrika siyosiy geografik jihatdan eng "yangi" va ayni vaqtida eng murakkab qit'a hisoblanadi (umumiy maydoni 29,6 mln.kv.km, aholisi 870 mln kishiga yaqin). Afrikaning ko'pchilik mustaqil davlatlari o'tgan asrda, xususan, uning 60-yillarida vujudga kelgan. Shu bilan birga, bu yerda "eng

yosh" mustaqil davlat -Namibiya (avvalgi Janubi-G'arbiy Afrika) joylashgan bo'lib, u bu maqomni 1990-yilda olgan.

Afrika siyosiy xaritasi chindan ham o'zbek xonatlasni eslatadi, u nihoyatda rang-barang. Qit'ada 50 dan ortiq davlat bor; qizig'i shundaki, ularning aksariyati respublika shaklidagi siyosiy tuzumga ega. Monarxiya tuzumi faqat Lesoto, Marokash va Svazilendda mavjud, xolos.

Maydoni bo'yicha eng katta davlatlar: Jazoir yoki Aljir (2,4 mln kv.km.), Sudan ( 2,5 mln), Kongo ( avvalgi Zoir 2,3 mln.), Liviya ( 1,8 mln), Chad ( 1,3 mln), Mali ( 1,2 mln), Janubiy Afrika Respublikasi (1,2 mln kv.km), Angola (1.2 mln kv.km), Misr Arab Respublikasi (1,0 mln). Mavritaniya ( 1,0 mln), Niger (1,3 mln). Shu bilan birga, kichikroq davlatlar ham yo'q emas, ular asosan orollarda joylashgan (masalan Kabo-Verde mamlakatining maydoni atigi 4 ming kv.km. ga teng).

Aholi soni bo'yicha faqat Nigeriya "yuzmingliklar" qatoridan joy olgan. Qolgan davlatlar ichida bu jihatdan Misr Arab Respublikasi, Efiopiya (Habashiston), Kongo, JAR ham biroz ajralib turadi. O'rtacha bir Afrika davlatiga 560 ming kv.km yer maydoni va 15 mln kishidan aholi to'g'ri keladi.

Afrikada, boshqa qit'alarga o'xshash siyosiy-hududiy tashkilotlar kamroq. Bu yerda 1963-yilda tuzilgan Afrika birligi tashkilotini ko'rsatish mumkin, xolos (markazi Addis-Abeba shahri). Unga 30-dan ortiqroq qit'a davlatlari kiradi.

Afrika mamlakatlarini siyosiy geografik jihatdan Shimoliy, G'arbiy, Markaziy yoki Ekvatorial Afrika hamda Sharqiylar va Janubiy Afrika mintaqalariga bo'lish mumkin. Albatta, siyosiy-iqtisodiy nuqtai nazardan Shimoliy va Janubiy Afrika nisbatan yuqoriyoq darajada rivojlangan, Markaziy Afrika esa bu borada eng orqada turadi. Ayni vaqtda, Saxroi Kabirdan janubda joylashgan davlatlar ham ajratiladi.

Qit'alar orasida Afrika siyosiy jihatdan eng harakatchan, o'zgaruvchan , mojaroli region hisoblanadi. Bu yerda boshqa mintaqalarga qaraganda, o'tgan asrda tez-tez davlat to'ntarishlari bo'lib o'tgan.

Amerika iqtisodiy, tarixiy va siyosiy geografiyasi ichki tafovutlarga ega. Uning umumiyligi maydoni (Grenlandiya orolisiz) 42,5 mln.kv.km. Grenlandiya bilan birgalikda Amerika Osiyodan sal kichikroq, ammo qolgan materiklarning barchasidan katta.

Amerikaning siyosiy-hududiy tuzilishini Shimoliy Amerika, ya'ni AQSh va Kanada, Lotin Amerikasi va O'rta Amerika miqyosida tahlil qilish ma'qul. Birinchisining tarkibidagi AQSh davlati respublika tizimiga ega bo'lgan federativ mamlakatdir (u 50ta shtatdan iborat). Kanada ham

federativ davlat bo'lib, u Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga kiradi. Binobarin, bu yerda davlat boshlig'i qonun bo'yicha Buyuk Britaniya qirolichasi hisoblanadi. Kanada tarkibiga katta huquqa ega bo'lgan 100 ta provinsiya kiradi.

AQSh va Kanada davlatlari maydoni jihatdan uncha katta farq qilmaydi (9,6 va 10,0 mln. kv. km.), ammo aholi soni AQShda Kanadaga qaraganda deyarli 9 marta ziyod (AQShda, 2003-yillar ma'lumotlariga ko'ra, 292 mln, Kanadada 32 mln kishi yashaydi).

Lotin Amerikasi 33 mustaqil davlatlarni o'z ichiga oladi. Ularning barchasi respublika davlat tizimiga mansub. Ushbu mamlakatlarning "Lotin Amerikasi" deyilishiga sabab ularning aksariyati lotin tillarida (ispan va portugal) so'zlovchi xalqlar guruhiga kirishidir. Shundan taxminan 1G'3 xalqlar portugal tilida (Braziliya), 3G'5 qismidan sal ko'prog'i ispan tilida so'zlashadilar.

Mazkur qit'a ham Afrikaga o'xshab o'tgan asrda siyosiy jihatdan ancha o'zgaruvchan bo'lgan; bu yerda juda ko'p siyosiy to'ntarilishlar bo'lib o'tgan (masalan, Kuba, Gvatemala, Panama, Nikaragua, Chili va boshqalar).

Hudud va aholi soni bo'yicha eng katta mamlakat Braziliyadir (maydoni 8,6 mln. kv.km, aholisi 172 mln. kishidan ortiq). Meksika Qo'shma Shtatlarining maydoni 2,0 mln kv.kmga yaqin, aholi soni esa 100 mln. kishini tashkil qildi. Argentina, Kolumbiya va Peru davlatlarining maydoni ham ancha katta (mos ravishda 2,8; 1,1 va 1,3 mln. kv.km), ammo ularning har birida 25-40 mln.dan aholi yashaydi, xolos. Lotin Amerikasining qolgan mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasidagi davlatlarda demografik salohiyat bundan ham oz. Masalan, Beliz, Gayana, Surinam, Barbados, Grenada aholisi hatto 1 mln. kishiga ham yetmaydi.

Amerika hududida davlatlararo turli iqtisodiy va siyosiy ittifoqlar mavjud. Ularga, jumladan 1992-yilda tashkil qilingan Shimoliy Amerika erkin savdo mintaqasi (NAFTA), 1948-yilda vujudga kelgan Amerika davlatlararo tashkiloti (u barcha Lotin Amerikasi mamlakatlari hamda AQSh va Kanadani birlashtiradi), 1975-yilda tashkil topgan 26 mamlakatlarni o'z tarkibiga oluvchi Lotin Amerika iqtisodiy tizimi (markazi Karakas shahri) misol bo'la oladi.

Shimoliy va Janubiy Amerikada ham mojaroli va siyosiy barqarorlikka ega bo'lmagan hududlar bor. Ular, masalan, Kanadaning Kvebek provinsiyasi, Folkland, Malvin orollari va boshqalardir. Shuningdek, bu yerda AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiyaga siyosiy jihatdan tobe hududlar anchagina (Puerto-Riko, Bermud, Mikelon

orollari va h.k.). Yer sharidagi eng katta orol-Grenlandiya rasman Daniya qirolligiga bo'ysinadi. Maydoni 2,2 mln kv.km.

Avstaraliya va Okeyaniyada mustaqil davlatlar soni ancha kam bo'lib, ularning barchasi faqat XX asrning ikiinchi yarmida tashkil topgan. Ushbu geografik obyektlarning umumiyligi maydoni taxminan 8,6 mln. kv.km., aholisi atigi 32 mln kishi. Eng katta davlat Avstraliya hisoblanadi. U dastavval, Avstraliya Ittifoqi nomini olgan, so'ngra 1951-yilda to'la mustaqillikka erishgan. Ammo hozir ham u rasman Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga qaraydi. Avstraliya federativ davlat, u 6 ta shtatdan iborat. Yangi Zelandiya ham 1951-yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan. Uning maydoni 271 ming kv.km., aholisi 4 mln.ga yaqin.

Shunday qilib, Avstraliya va Yangi Zelandiya ushbu regionning eng yirik davlatlaridir (Avstraliya bir materikni to'liq egallagan dunyodagi yagona mamlakatdir). Papua-Yangi Gvineya ham Tinch okeanning janubidagi katta davlatlar qatoriga kiradi. U Yangi Gvineya orolining sharqiy qismi bilan yana 600 dan ko'proq orollarni o'z ichiga oladi (maydoni 462 ming kv.km., aholisi 4,5 mln. kishi). Papua-Yangi Gvineya 1975-yilda mustaqillikka erishgan, Hamdo'stlik tarkibidagi davlatdir.

Solomonov orollari alohida davlat maqomida 1978-yilda, Vanuatu Respublikasi 1980, Fidji Respublikasi 1987-yilda, Palau Respublikasi 1994-yilda tashkil topgan. Shu bilan birga, AQSh va Fransiya qaramog'idiagi kichik hududlar saqlanib qolingan.

Shunday qilib, jahoning siyosiy xaritasi doimo o'zgarishda. O'tgan asrning eng muhim siyosiy o'zgarishlari Ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan kapitalistik va sotsialistik lagerning paydo bo'lishi va 90-yillarda sobiq SSSR ning barbos bo'lishi va uning hududida mustaqil davlatlarning shakllanishi hamda yuqoridagi lagerlarning barham topishi bilan bog'liq bo'ldi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Siyosiy geografiya fanining obyekti va predmeti nima?
2. Siyosiy geografik o'rinni tushunchasining mohiyati nimada?
3. Respublika va monarxiya tipidagi davlatlarni jahon siyosiy xaritasidan toping.
4. Unitar va federativ davlat degenda nimani tushunasiz?
5. Yevropa siyosiy xaritasini ta'riflab bering.
6. So'nggi yillarda jahoning qaysi qismlarida mamlakatlarning parchalanib borishi va, aksincha, qaysilariga ularning birlashishi kuzatilmoqda?

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SIYOSIY VA IQTISODIY GEOGRAFIK O'RNI

## Reja

1. O'zbekiston Respublikasining siyosiy geografik o'rni.
2. Respublikamizning O'rta Osiyo mintaqasida iqtisodiy aloqalar qilish imkoniyatlari va muammolari.
3. O'zbekistonning Jahon Okeaniga chiqish yo'llari
4. Respublika tabiiy resurslari va demografik salohiyatidan foydalanishda uning geoiqtisodiy hamda geosiyosiy o'mining ahamiyati.

Vatanimiz milliy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlash ko'p jihatdan uning barcha ichki va tashqi imkoniyatlaridan foydalanishni talab etadi. Bu o'rinda geografik omillarning ahamiyati ham sezilarlidir. Jumladan, respublikamizning iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni, uning maydoni, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi, yer-suv, mineral xom ashyo va mehnat resurslarining hududiy tarkibi, transport shaxobchalari va ularni birlashtiruvchi katta-kichik shaharlarning to'ri va tizimi, shaharlashuv (urbanizatsiya) jarayoni va infrastruktura tarmoqlarining joylanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojiga ta'sir etmay qolmaydi. Bunday turli xil va murakkab geografiyaga oid omillarni to'g'ri aniqlash va baholash ushbu fanning zamonaviy mavqeini yanada oshirishga, uning amaliy (konstruktiv) yo'nalish va nufuzini ko'tarishga zamin yasaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy geografik o'rinni va, shu jumladan, siyosiy geografik mavqe tabiiy geografik o'ringa nisbatan tarixan o'zgaruvchan hisoblanadi. Binobarin, bir vaqtlar qulay bo'lgan holat keyinchalik noqulay yoki, aksincha, bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan yondashganda, o'lkamizning qadimgi iqtisodiy va siyosiy geografik o'mi ancha qulay bo'lgan. Zero, o'sha davrlarda quruqlik transporti-karvon yo'llari katta ahamiyat kasb etgan, vatanimiz esa mag'rib va mashriq mamlakatlarini tutashtiruvchi xalqaro savdo yo'llari o'tgan hududda-Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan.

Hozirgi davrda u yoki bu davlat siyosiy-iqtisodiy rivojlanishi, eng avvalo, suv transportiga bog'liq, chunki yer yuzida quruqlikdan ko'ra suv ko'proq, dengiz yoki okeanlar orqali aloqa esa boshqa vositalarga nisbatan qulay va arzon. Shuning uchun mamlakatning Jahon okeaniga chiqishi yoki uning yirik daryolar yordami bilan bunday imkoniyatga ega bo'lishi siyosiy geografik o'mining yaxshilanishiga yordam beradi. Mamlakatimiz

Prezidenti I.Karimov O'zbekiston Respublikasi geosiyosi o'mining aynan shu tomonlariga katta ahamiyat bermoqda, vatanimizni jahon bozoriga chiqishi uchun yangi yo'llar va "darvoza"lar ochish asoslarini qidirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Yevrosiyoning o'rtaida, Markaziy Osiyo siyosiy geografik mintaqasida joylashgan. U bevosita jahon okeaniga chiqish imkoniyatiga ega emas. O'tmishda yurtimiz iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan Amu va Sir daryolari esa hozirgi kunda tobora quriyotgan, olamshumul ekologik fojianing sababchisi va umuman taqdirlari nomalum Orol dengizida tugaydi, aniqrog'i, unga arang, nihoyatda "madori yoki darmoni qurigan, charchagan" holda yetib boradi, xolos. Demak, mamlakatimizning iqtisodiy geografik o'rni, bu jihatdan olganda, aytarli darajada emas. Bunday o'ta kontinental geografik mavqe erkin iqtisodiy zonalar, muhim xalqaro integratsion hududlarni tashkil etishga biroz bo'lsa-da ta'sir ko'rsatdi.

Qo'shnilarimiz-sobiq ittifoqdosh respublikalar: Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston mustaqil davlatlari hamda siyosiy-iqtisodiy sohada barqarorlik yo'liga o'tayotgan Afg'oniston Respublikasi ham bu mavqeni tubdan yaxshilashga sezilarli yordam bera olmaydi. Biroq ular orqali dengiz va okeanlarga, yirik xalqaro yo'llarga chiqish mumkin. Bu borada qurilgan Seraks-Mashhad temir yo'lli, qurilishi ehtiymoli mavjud bo'lgan Termiz-Qarochi, Termiz-Bandar Abbas va Xitoy Respublikasi bilan tutashtiruvchi yo'llarni nazarda tutmoqdamiz.

Qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatlil iqtisodiy aloqalar yuritishning vaqtincha yana bir qiyinchiligi yoki noqulayligi mavjud. Bu ham bo'lsa, sobiq "Butun ittifoq mehnat taqsimoti"dan meros bo'lib kelgan bu o'lkkalar milliy iqtisodiyotining bir-biriga monandligidir. Chunki ilgari ushbu respublikalar o'ta markazlashgan Sovet davlati hududiy siyosatining alohida obyekti bo'lmagan, aksincha, ular (Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston) yagona iqtisodiy rayon sifatida qabul etilgan, xolos. Natijada, bu joylarning xo'jaligi asosan bir tomonlhma xom ashyoga va paxta yakkahokimligiga yo'naltirilgan iqtisodiyotdan iborat bo'lib qolgan. Tabiiyki, bunday sharoitda qo'shnilarining bir-biriga beradigan yoki oladigan mahsuloti juda oz bo'ladi (masalan, paxta ularning barchasida bor).

Ko'rinish turibdiki, sobiq O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni chinakam xom ashyo o'lkasiga aylantirilgan, uning ichida esa hududiy mehnat taqsimoti amalda to'laqonli bo'lmagan, xo'jalik haqiqiy kompleks tusini olmagan,

rivojlanish darajasi ham bir xil bo`lgan. Bundan ijtimoiy sohalar, xalqning turmush sharoiti va darajasi katta zarar ko`rgan.

Darhaqiqat, O`rta Osiyo respublikalari ko`p jihatdan bir-biriga yaqin, ularning geografik o`rni, tarixi, xo`jalik yuritish tizimi, milliy urf-odatlari, an`analari, dini umumiylikka ega; "bir ariqdan" suv ichishlari ham bu imamlakatlarni yaxlit geosiyosiy birlikda rivojlanishini taqozo etadi. Biroq umumiylilik yagona yoki mutlaqo bir xillikdan iborat emasligini yoddan chiqarmaslik keraq. Binobarin, hududining asosiy qismi tog`liklardan iborat Tojikiston yoki Qirg`izistonda va, aksincha, yer yuzasi, tabiiy sharoiti bo`yicha nisbatan farq qiladigan O`zbekiston yoki Turkmanistonda xo`jalikning tarmoqlar va hududiy tarkibi biroz bo`lsa-da o`zgacha shakllanishi kerak edi. Boshqacha qilib aytganda, bu respublikalar ham, o`z navbatida, ichki imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqqan holda, o`zlarining iqtisodiy geografiyasini, hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirmoqlari zarur edi. Buning ogibati bo`lsa kerak, hozirgi kunda mintaqaga mustaqil davlatlari iqtisodiy jihatdan yaqin qo`slnisi bilan emas, balki ko`proq "uzoq" xorijdagi yurtlar bilan hamkorlik qilishga majbur va muhtoj bo`lmoqda.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo`jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishslash sanoatiga oz bo`lsa-da ixtisoslashgan respublikalarda o`tish davri birmuncha yengil ko`chmoqda. Ayni paytda, og`ir sanoati rivojlangan sobiq ittifoqdosh respublikalarda bu davr talaygina qiyinchiliklarga olib keldi (bundan ozmi-ko`pmi kapitalistik rivojlanishni bosib o`tgan Boltiqbo`yi davlatlari istisno). Masalan, og`ir sanoat taraqqiy etgan Ukraina va Belorus respublikalarida "gorizontal" iqtisodiy aloqalar buzilganligi sababli, milliy iqtisodiyotni tiklash va mustahkamlash nisbatan mushkullik bilan bormoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O`zbekistonning qulay iqlim sharoiti, qishloq xo`jaligining tarixiy an`analari va bu tarmoqning rivojlanishi uchun mahalliy qishloq aholisining (ishchi kuchining) ko`pligi uning milliy mustaqillik yo`lidagi buyuk imtiyozlaridan hisoblanadi. Tabiiy geografik va demografik vaziyatning ancha qulayligi bu yerda tegishli sharoitlar hamda zamонавиу texnologiyani joriy qilish, ekologik muvozanatni sog`lomlashtirgan holda mainlakatimizni yaqin orada o`tish davrining obyektiv qiyinchiliklaridan chiqib olishga yordam beradi.

Mamlakat rivojlanishining muhim geografik omili-bu uning chegara chiziqlari, ularning sodda yoki murakkabligidir. Xuddi shu ma'noda qaraganda, respublikamizning chegarasi, ayniqsa Qirg`iziston va Tojikiston davlatlari bilan tutash chiziqlari ancha murakkab. Tabiiyki,

bunday vaziyat mamlakatda narx-navo, pul muomalasi, savdo-sotiq va boshqa masalalarda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi va u Markaziy Osiyo mintaqasida yagona iqtisodiy zona tashkil etilishining zarurligidan dalolat beradi.

O'zbekiston davlat chegarasi chizig'ining umumiyligi 5300 km ni tashkil etadi yoki "o'rtacha" har bir qo'shni davlatga 1600 km ga to'g'ri keladi. Bunda qo'shnichilik chizig'i ayniqsa Qozog'iston va Turkmaniston bilan uzun. Jumladan, Qozog'iston-O'zbekiston chegarasi taxminan 2000 km dan ziyod yoki umumiyligi chiziqning 40 foizga yaqinini tashkil qiladi. Turkmaniston bilan mavjud sarhad esa bundan bir oz kam. Bu jihatdan keyingi o'rirlarda Tojikiston va Qирг'изистон turadi, Afg'oniston Respublikasiga esa eng qisqa chegara chizig'i to'g'ri keladi.

Har bir davlatning "markaziyligi", siyosiy geografik o'rning muhim ko'rsatkichi uning qo'shnichilik qiladigan mamlakatlar soni, ularning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Albatta, O'zbekiston Respublikasining 5 ta mustaqil davlatlar bilan chegaradoshligi uning yirik siyosiy geografik mintaqaga markazida o'rashganligini ifodalaydi. Bunday holat esa kelajakda, shubhasiz, o'z ijobjiy samarasini beradi.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi Turkmanistonning Fron bilan uzoq masofada chegaradoshligi ham o'zgacha ma'noga ega bo'ldi. Ilgari noqulay bo'lgan bu "devor" endilikda esa hamkorlikning buyuk mintaqasiga aylandi. Qurilib ishga tushirilgan (1996-y.) Seraks-Mashhad temir yo'lli bunga misol bo'la oladi. Ushbu xalqaro yo'l O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining ham uzog'ini yaqin qilishi muqarrar.

U yoki bu mamlakatning rivojlanishida uning hududining kattakichikligi ham muhim hisoblanadi. Bu jihatdan O'zbekiston Respublikasi (maydoni 448,9 ming kv.km) qulay imkoniyatlarga ega. Asosiy vazifa - ana shu hududiy salohiyatdan to'laroq va samarali foydalanishdir.

O'zbekiston Respublikasi o'zining hududi bo'yicha jahon hamjamatiyatida ancha ko'zga ko'rinarli mavqega ega. Uning maydoni Buyuk Britaniya, Bel'giya, Daniya, Shvetsariya, Niderlandiya va Lyuksemburg kabi davlatlar hududining umumiyligi hajmidan ham katta. O'zbekiston o'zining yer maydoniga ko'ra Yevropada Shvetsiya, Afrikada Marokash, Osiyoda Iroq davlatlari bilan deyarli teng. Shubhasiz, bunday ulkan hududda uning tabiiy boyliklaridan to'la foydalanish, barcha infrastruktura tarmogi bilan ta'minlash asosida kelajagi buyuk davlatni barpo etish imkoniyatlari mavjud.

Respublika hududining geografik qiyofasi, chunonchi, uning shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa uzoq masofa cho'zilganligini bir ma'noda baholab bo'lmaydi. Masalan, mamlakatning bunday tashqi geografik qiyofasi ayni paytda uning tranzit yoki "o'tuvchanligini" boshqa qo'shni davlatlar bilan yaqindan aloqa qila olishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi sababli, u orqali mintaqadagi boshqa davlatlar o'zlarining tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirmoqdalar. Istiqlbolda esa bunday imkoniyatlar yanada kengaytirilishi mumkin.

O'zbekiston hududi g'arbdan sharqqa 1425 km ga, shimoldan janubga 930 km ga cho'zilgan. Respublika hududining 70 foizdan ziyodini tekisliklar tashkil etadi. Mamlakatning bunday qiyofasi, geografik xususiyatlari uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini hududiy tashkil etishda mal'um ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, respublikaning qiyofasi (konfiguratsiyasi) uni ichki jihatdan tashkil etishda, boshqarish va aholiga xizmat ko'rsatishda biroz qiyinchiliklarni tug'diradi. Binobarin, mamlakatning hududiy tuzilmasini yirik magistral yo'llar va shaharlar vositasi bilan yaxshilash zarur. Umumdavlat va mintaqaviy ahamiyatga molik bo'lgan katta siyosiy-iqtisodiy markazlar, yo'llar bu tizimning asosiy tayanch nuqtasi, tugunlari sifatida xizmat qilmog'i lozim.

Aynan shu maqsadda mamlakat ichidagi temir va avtomobil yo'llarni ko'paytirish va takomillashtirish kerak. Temir yo'llarning yangilarini qurish, ularni elektrlashtirish eng yaqin va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu borada Xorazm viloyati va Janubiy Qoraqalpog'istonni Buxoro va Navoiy viloyatlari (Uchquduq shahri) bilan bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu yo'llar Quyi Amudaryo mintaqasini mamlakatimizning boshqa rayonlari bilan bevosita aloqa qilishi uchun imkoniyat yaratdi. Qurilish tugatilayotgan G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lli ham xuddi shunday ahamiyatga ega bo'ladi.

Davlatimizning ichki va tashqi transport vositalarini yaxshilash, uning barcha boyliklaridan: mineral, yer-suv va boshqa resurslardan to'laroq foydalanishga yordam beradi.

Respublika aholisi (2005-yil 1-yanvar holatida 26,5 mln. kishiga yaqin) va uning nisbatan tez sur'atlarda ko'payishi ham iqtisodiy va siyosiy omil hisoblanadi. Bu esa, pirovard natijada, ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan bozor munosabatlariiga o'tish, kuchli va izchil ijtimoiy siyosatni amalga oshirish hamda miqdoran ko'p bo'lgan mehnat resurslaridan to'la va samarali foydalanishni taqozo qiladi. Ishlab

chiqarishni va, xususan, sanoat korxonalarini qishloqlarda qurish, bu joylarda zamonaviy infrastrukturani barpo etish kabi masalalar dolzarbdir. O'z navbatida, joylarning infrastruktura jihatidan ta'minlanganligini yaxshilash, sog'lom investitsiya muhitini shakllantirish xorijiy sarmoyalarni jalb etishga, qo'shma korxonalarни qurishga qulay sharoit yaratib beradi.

Respublika aholisining asosiy qismining (64 foiz) qishloq joylarda yashashi, milliy iqtisodiyot negizini qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat (agrosanoat majmui) tashkil etilishi mustaqil mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini amalga oshirishda e'tiborga olinishi kerak. Chunonchi, qishloq bilan shahar joylar munosabatini, shaharlashuv jarayonini yangicha talqin qilish talab etiladi. Ushbu murakkab muammoni ilgarigidayoq an'anaviy tarzda, "Yevropacha" andoza asosida ko'r-ko'rona yuqori darajada shaharlashgan, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarini bosib o'tgan, bozor munosabatlari tajribalariga boy bo'lgan davlatlarga taqlid qilish, qanday bo'lmasisin, ularga bu borada tenglashishni hashorat qilish o'rinsiz, albatta. Aksincha, mazkur masalada o'zimizga, o'tmishimiz va hozirimizga xos va mos yo'll bo'lmog'i darkor. Bu o'rinda tariximiz, madaniyatimiz tomirini "osiyocha" (sharqona) tusga ega ekanligini, o'tmishda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning yuksak darajada taraqqiy etganligi, binobarin, shaharlashuv jarayonini ham boshqacha yo'nalishda rivojlantirish kerakligini unutmaslik lozim.

Ilg'or mamlakatlar tajribasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va joylashuvini mutloq birday barobarlashtirib yoki tenglashtirib bo'lmasligidan dalolat beradi. Zero, barcha xalq xo'jaligi tarmoqlarini, ma'muriy-hududiy birliklarini ayni bar payting o'zida va bir hil darajada rivojlantirish mumkin emas. Shunday ekan, ustuvor tarmoqlar va rayonlarni (shahar yoki "o'sish qutblarini") tanlab olish, ularni jadaloq rivojlantirish imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilish iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Tarixiy shakllangan milliy iqtisodiyotning tarmoqlar va HUDUDIY tarkibini yaxshilash ham geografik omillar qatoriga kiradi. Jumladan, qishloq ho'jaligini zamonaviylashtirish va uning asosida qayta ishslash (yengil va oziq-ovqat) sanoatini keng miqqosda rivojlantirish mamlakatimiz oldida turgan vazifalardandir. Shu bilan birga xalq xo'jaligi tarmoqlarini hozirgi sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda hududiy jihatdan tashkil etish, O'zbekistonning mintaqaviy siyosatini ilmiy asosda yaratish va uni izchil amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu

muammolar yechimi mamlakatni bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tish davrida ishlab chiqarishni davlat tomonidan bevosita va bilvosita tartibga solib borish, uni boshqarish, ichki ma'muriy-hududiy tuzilmasini tobora takomillashtirish bilan ham bog'liq bo`ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston hududi tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan bir xil emas. Bu yerda poyonsiz cho'l va sahrolar bilan bir qatorda tog'liklar va ularning o'rtaida (ichida) joylashgan, maydoni nisbatan kichik, ammo katta iqtisodiy va demografik salohiyatga ega bo'lgan voha va vodiylarning mavjudligi, ularning o'zaro hududiy munosabati mamlakat rivojlanishidagi geografik omillar sirasiga kiradi. Bunday iqtisodiy gsografiq vaziyatni hisobga olgan holda xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish tajribalaridan foydalanish ham e'tibordan xoli emas. Ayniqsa, kichik korxona va hududiy ishlab chikarish majmularini joriy etish, shaharlar va rayonlardan birinchi navbatda rivojlantirilishi lozim yoki mumkin bo'lganlarini aniqlash, ekologik va ijtimoiy muammolarni ijobjiy hal etish, infrastruktura tarmoqlarini takomillashtirish ijtimoiy-iqtisodiy geografiya oldida turgan dolzarb muammolar va yo'nalishlarni belgilab beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizning geosiyosiy mavqeidan kelib chiqqan holda uning turli xalqaro (mintaqaviy) tuzilmalarda ishtiroyini ham hisobga olish kerak. Bu borada, xususan, O'zbekistonning MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi kabi mintqaviy tashkilotlarda faol qatnashishi uning jahon hamjamiatidagi mavqeini mustahkamlashga, milliy iqtisodiyotini globallashuv jarayoniga kirib borishida katta ahamiyatga ega bo`ladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rinneganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasidagi eksklav va anklav hududlarni aniqlang.
3. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarida qaysi yo'nalish oldindi o'rinda turadi?
4. Respublikamizning qaysi joylarida kelajakda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish imkoniyatlari mavjud?
5. Qaysi bir hudud (mamlakat, mintaqqa, viloyat) ning asosiy markazlardan uzoqda, dengiz yoki okean bo'yida joylashganligi uning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

## IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYANING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI

### Reja

1. O'zbekistonda iqtisodiy geografiya shakllanishining tarixiy asoslari.
2. Iqtisodiy geografiya va iqtisodiy rayonlashtirish.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy yo'nalishlari.
4. Respublikamizda iqtisodiy geograflarning hududiy tarkibi.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani rivojlanishining asosiy muammolari.

Respublikamizning siyosiy mustaqillikka erishuvi natijasida ilmu-fan taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. Bu davrda xususan ijtimoiy fanlarning mas'uliyati va vazifalari tubdan o'zgardi, ularning mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlanishi, jahon hamjamiyatidagi geosiyosiy mavqeini yuksalishi va madaniy-ma'rifiy hayotidagi o'rni yanada oshdi.

An'anaviy iqtisodiyot yoki iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'zining mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ayni vaqtida ham ijtimoiy, ham tabiiy, aniqrog'l, ular qirrasidagi fandir. Mazkur fanning frontal rivojlanishi, noishlab chiqarish sohalari, aholining bevosita hayoti va faoliyatini hududiy jihatlari bilan bog'liq tomonlariga katta e'tibor berilishi uning keng qamrovli ijtimoiy geografiyaga aylanishiga olib keldi.

Biroq tarixiy nuqtai nazardan ijtimoiy geografiyaning vujudga kelishi va rivojlanishida iqtisodiy geografiya asosiy o'ringa ega, zero kishilar hayoti, turmush tarzi va darajasining yaxshilanishi negizida ishlab chiqarish, iqtisodiyot yotadi. Binobarin, mamlakatimizning bozor munosabatlariiga o'tishi keng mazmunli va murakkab jarayon bo'lishi bilan birga, uning muvaffaqiyati, eng avvalo, iqtisodiy islohotlar bilan belgilanadi. Shu bois ham ijtimoiy geografiya fanining O'zbekistonda shakllanish va rivojlanish tahvilini uning iqtisodiy qismidan boshlamoq maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy geografiyaning O'zbekistonda rivojlanishi, uning eng yangi tarixiy yakunlangan asrning 20-yillardan boshlanadi. Shu davrda nashri ettirilgan iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotga doir ilmiy ishlari ko'proq O'zbekiston va O'rta Osiyoning umumiy ta'rifiga bag'ishlangan edi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda G.N.Cherdansev va V.M.Chetirkinlarning xizmatlari katta bo'lgan. Chunonchi, G.N.Cherdansevning 1922-yilda chop qildirilgan O'rta Osiyo haqidagi

monografiyasida o'lka iqtisodiyoti to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. U 1928-yilda O'rta Osiyo respublikalari haqidagi kitobini ham chop ettirgan.

Taxminan ana shu yillarda O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi va iqtisodiy rayonlashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar boshlangan. Bu ishlar V.N.Chetirkin va Yu.I.Poslavskiy tomonlaridan olib borilgan. V.M.Chetirkin (u 1892-yilda Samarqandda tug'ilgan) 1926-yilda O'zbekiston halq xo'jaligining ahvoli va rivojlanishi borasida kitobini yozgan. Keyinchalik ToshDU iqtisodiy geografiya kafedrasining mudiri sifatida (1944-1948-yy.) V.M.Chetirkin qishloq xo'jaligini rayonlashtirish, turli viloyatlar tabiatini va xo'jaligini o'rganish, yosh geograf olimlarni tayyorlashga alohida e'tibor bergan.

Iqtisodiy geografiyaning rivojlanishi 30-yillarda tabiiy boyliklarni o'rganish bo'yicha olib borilgan ekspeditsiyalar (sahro tadqiqotlari) va ilmiy anjumanlar bilan bog'liq bo'lган. Jumladan, bunday tadqiqotlar Qoraqalpog'istonda hamda uning Ustyurt qismida amalga oshirilgan. Respublika ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish mavzusida 1933-yilda dastlabki ilmiy anjuman o'tkazilgan.

O'zbekistonda iqtisoldiy geografiyaning rivojlanishida Toshkent (O'rta Osiyo) Davlat universiteti-hozirgi O'zbekiston Milliy universitetida shu nomli birinchi kafedraning 1940-yilda tashkil etilishi va kafedra qoshida 1943-yilda aspiranturaning ochilishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kafedra xodimlari 50-yillarda Farg'onada vodiysi ekspeditsiyasining tashkil etilishi va o'tkazilishida faol qatnashgan. Bunday sahro tadqiqotlari, shuningdek, Qashqadaryo, Surxon-Sherobod va Zarafshon vodiylarida ham amalga oshirilgan, Toshkent shahri atroficha o'rganilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, xususan, V.M.Chetirkin hamda K.N.Bedrinsevlarning ishlarida mintaqaga rayonning kompleks muammolarini o'rganish ilmiy yo'naliishi shakllangan. Olib borilgan sahro tadqiqotlari jarayonida R.S.Lobach, Z.M.Akramov, R.A.Hodiyev, T.Tojimov, T.Raimov, E.Toshbekov kabi qator olimlar yetishib chiqqan. N.G.Sapenko, V.M.Chetirkin va K.N.Bedrinsevlar iqtisodiy rayonlashtirish muammolari ustida ish olib borishgan. Shu yillarda iqtisodiy geografiyaning rivojlanishida O'zFA qoshidagi sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish kengashi (SOPS) ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Mahalliy millat vakillaridan birinchi bo'lib iqtisodiy geografiya bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini Z.M.Akramov 1953-yilda himoya qilgan. Ushbu dissertatsiya asosida u kishi Namangan viloyatining

iqtisodiy geografik ta'rifiga bag'ishlangan monografiyasini nashr ettirgan. Keyinchalik professor Z.M.Akramov Buxoro va Samarcand viloyatlari qishloq xo'jaligi, cho'l, tog' va tog'oldi rayonlarni o'zlashtirish, iqtisodiy rayonlashtirish kabi muammolar ustida izlanishlar olib borgan. U ToshDU iqtisodiy geografiya kafedrasining mudiri (1970-1984-yy.) va O'zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyati hamda Fanlar akademiyasi qoshidagi Geografiya bo'limida qator fan nomzodlari va doktorlari tayyorlashda katta va samarali ishlarni bajarib kelgan.

Iqtisodiy geografiya fanining sobiq Ittifoq davridagi rivojlanishida ilmiy anjumanlar va chop ettirilgan kitoblarning ahamiyati salmoqli bo'lgan. Jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarini tabiiy geografik va iqtisodiy geografik rayonlashtirish bo'yicha 1959, 1961, 1967 va 1971-yillarda, aholishunoslik muammolari to'g'risida 1965 va 1972-yillarda ilmiy anjumanlar o'tkazilgan. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlari nufuzli ilmiy seminarlarda (1973 va 1975-yy.) muhokama etilgan. Bunday tadbirdilarni tashkil etishda Z.M.Akramov, M.K.Qoraxonov va O.B.Ota-Mirzayevlarning xizmatlari katta bo'lgan. Saksoninchi yillarda Samarcand, Namangan, Farg'ona, Angren va boshqa shaharlarda ham iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning turli muammolariga bag'ishlangan ilmiy-amalii anjumanlar o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi to'g'risida geografik ilmiy monografiyalar 1950, 1953, 1956, 1963 va 1982-yillarda nashr ettirilgan. Bu kitoblarni yozishda ToshDU Geografiya fakul'teti olimlari faol qatnashishgan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi haqidagi ma'lumotlar E.Ahmedov kitoblarida ham bayon etilgan. Shu bilan birga, o'rta va oliy maktablar uchun O'zbekiston iqtisodiy geografiyasidan darsliklar yozilgan. Dastlabki o'rta maktablarga oid darslik N.G.Sapenko va N.V.Smirnov hammuallifligida nashr ettirilgan. Keyinchalik ushbu darslik professor Z.M.Akramovning P.Musayev bilan hamkorligida, ota-o'g'il P. va J.Musayevlar hamda A.S.Soliyev va R.Qurbanniyozov tomonidan yozilgan. Jahon iqtisodiy va siyosiy geografiyasi darsligini A.Qayumov, I.Safarov yaratishgan.

Oliy maktablar uchun esa O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy geografiyasi G.Asanov, M.Nabixonov va I.Safarovlar muallifligida yozilgan. G.Asanov aholi geografiyasi o'quv qo'llanmasi, sotsial-iqtisodiy geografiyaning izohli lug'ati haqida kitoblar ham chop qildirgan. Turli mavzu va kurslarga doir qo'llanma va uslubiy ko'satmalar R.Hodiyev, A.Soliyev, A.Qayumov, X.Salimov, J.Xoliqov, S.Boqiyev va boshqalar muallifligida nashr ettirilgan. Surxondaryo, Namangan, Buxoro,

Qashqadaryo geografiyasi to'g'risida har xil hajmdagi asarlar yaratilgan (A.Ro'ziyev, O.Abdullayev, I.Nazarov, M.Yangiboyev, R.Qurbaniyozov).

1998/1999-o'quv yilida bevosita professor A.Soliyev tashabbusi bilan respublikamizda va ilk bor oliv o'quv tizimida "Mintaqaviy iqtisodiyot" bakalavriat yo'nalishi ochilgan va 2003/2004-o'quv yiliga cha kadrlar iayyorlangan. 2003-yilda aynan shu yo'nalish uchun maxsus "Mintaqaviy iqtisodiyot" (18,5 b.t.) o'quv qo'llanmasi A.Soliyev rahbarligi va tahririysi asosida yozilgan. Bularning natijasida O'zMU iqtisodiy geografiya kafedrasи "Ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot kafedrasи" nomiga o'zgartirilgan. Ayni vaqtida Toshkent iqtisodiyot universitetidagi kafedra ham "Mintaqaviy iqtisodiyot va ekologiya" deb nomlangan, O'zMUda esa ushbu mutaxassislik bo'yicha Ixtisoslashgan kengash tashkil etilgan.

Shunday qilib, hozirgi kunda respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ikki asosiy yo'nalishi shakllangan. Birinchi yo'nalish-qishloq xo'jaligi geografiyasi bo'lib, u nisbatan oldinroq vujudga kelgan. Agrogeografiyaning nazariy masalalari, qishloq xo'jaligini rayonlashtirish, ishlab chiqarishning hududiy tizimlari va agrosanoat majmualari bo'yicha V.M.Chetirkin, Z.M.Akramov, K.I.Lapkin, A.Ro'ziyev, Q.Abirqulov, O.Abdullayev, M.Yusupov, A.Sodiqov va boshqalar tadqiqot olib borishgan. Yangi yerlar, cho'l va tog' oldi mintaqalarini o'zlashtirish va shu asosda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yer-suv zaxiralaridan foydalanish, suv omborlarini qurish va sug'orma dehqonchilik masalalari R.Hodiyev, T.Egamberdiyev, Ye.Umarov, S.Saidkarimov, S.Islomov, G.Ashurov, Z.Hoshimov, Sh.Azimov, E.Zolotarev, Q.Qurbanov, B.Shotursunov, T.Shoto'rayevlarning ishlarida o'rjanilgan. Shuningdek, qishloq xo'jalik geografiyasi mavzusida M.Ahmedov, M.Yoqubovlarning ham nomzodlik dissertatsiyalari yozilgan.

Shahar atrofi qishloq xo'jaligi geografiyasi R.Usmanov, S.Boqiyev, X.Xalilovalar tomonidan yoritilgan, bog'dorchilik va uzumchilik, chorvachilik, paxta yetishtirish va uni qayta ishslash bo'yicha M.Maxmudova, X.Shosaidov, K.Gadoyev, A.Xolmirzayev, K.Allanova nomzodlik dissertatsiyalarini yozishgan, alohida rayonlar qishloq xo'jaligiga M.Valixonov (Qo'qon vohasi), O.Abdullayev (Farg'ona vodiysi), I.Ishchonov (Xorazm vohasi), Ye.Umarov (Qoraqalpog'iston Respublikasi) va boshqalarining ishlari bag'ishlangan.

Ikkinci yo'nalish aholi manzilgohlarining geografiyasi va demografiya muammolari, shaharlar va urbanizatsiya jarayonining mintaqaviy masalalarini o'rjanish birmuncha kechroq vujudga kelgan

bo`lsa-da, u juda tez rivojlanib ketdi. Ushbu yo`nalishning shakllanishi eng avvalo N.V.Smirnov faoliyatidan boshlangan. N.V.Smirnov va N.G.Sapenko ilmiy rahbarligida respublikamizda, xususan, Farg`ona vodiysi shaharlari bo`yicha ko`plab diplom ishlari bajarilgan. Buning natijasida N.V.Smirnov 1957-yilda o`zining Farg`ona vodiysi shaharlari to`g`risida kitobini nashr ettirgan. Keyinchalik O`zbekiston va uning ayrim rayonlari: Quyi Amudaryo, Toshkent va Toshkent viloyati shaharlari haqida ham ilmiy asarlar yaratilgan.

Aholining tabiiy va mexanik harakati, oila demografiyasi, aholini bashorat etish kabi muammolarni o`rganish ayniqsa M.Q.Qoraxonov rahbarligida tashkil etilgan O`rta Osiyoda yagona ilmiy tadqiqot labaratoriyasi faoliyati bilan bog`liq bo`lgan. Ushbu yo`nalishning rivojlanishida I.Mullajonov, H.Salimov, G.Asanov, O.Ota-Mirzoyev, M.Bo`riyeva, O.Ergashev, O.Saidaxmedovlar ham katta xizmat qilishgan. Aholi va mehnat resurslari R.Ubaydullayeva, A.Qayumov, O.Ergashev, O.Saidahmedovlar, M.Yangiboyev, I.Safarov, T.Jumayev, A.Hotamov, I.Atajonov, R.Qadirov, M.Mamajonov, aholi migratsiyasi S.N.Konenenko, L.P.Maksakova, B.Mahmudov, aholining tabiiy harakati-R.Valiyeva, N.Aliakbarova, M.O`rinova, Sh.Abdullayev, A.G`aniyevlar tomonidan o`rganilgan.

O`zbekiston garchi urbanizatsiya jarayoni nisbatan sust rivojlangan mamlakat bo`lsa-da, bu yerda shaharlari mavzusi anche oldinlab ketgan. Bu xususda eng avvalo T.Raimovning faoliyati samarali bo`lgan. U kishi Ota-Mirzoyev va A.Soliyevlar bilan hamkorlikda ("O`rta Osiyo uchligi") qator maqolalar yozishgan. Shuningdek, shaharlari muammolari E.Toshbekov, E.Ahmedov, N.Fayziyev, I.Inomov, R.Tillayev, A.Qayumov, Z.Raimjonov, Sh.Imomovlar tomonidan ham tadqiq qilingan; turli iqtisodiy rayon va viloyatlar shaharlari, shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning ekologik muammolariga T.Mallaboyev, N.Mamatqulov, Vey Sin', U.Sultonov, R.Ahmedov, X.Tursunov, Z.Abdalova, S.Zokirovlarning ilmiy ishlari bag`ishlangan. Shu bilan birga, shaharlari va qishloq manzilgohlari ayrim viloyatlar aholi geografiyasi doirasida I.Safarov, M.Yangiboyev, A.Sadullayev, R.Mahamadaliyev, M.Erdonov, M.Qadirov, Sh.Jumaxonov, Z.Tojiyeva, G.Xo`jayevalar tomonidan o`rganilgan, aholi joylashuvini boshqarish va ijtimoiy-infrastruktura to`g`risida V.M.Cheskidov va B.N.Smirnovlarning nomzodlik dissertatsiyalari yozilgan.

Yuqorida yo`nalishlardan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning boshqa muammolari ham ozimi-ko`pmi tadqiq qilingan.

Jumladan, fanning umumnazariy masalalari, iqtisodiy geografiyaning asoslari va dolzarb muammolari Z.Akramov, O.Ota-Mirzoyev, A.Soliyev, A.Qayumov, Sh.Azimovlarning ishlarida ko'rilgan. Sanoat geografiyasini bo'yicha Sh.N.Zokirov, A.Jalilov, G.Xolmatov, N.Sultonov, U.Sodiqov, X.Mamatqulov, Yu.Salomov, M.Toirov, M.G'opirov, F.Obidov, S.Haydarov, B.Kalonov, Yu.Ahmadaliyev, L.Erdonov, H.Mirzaahmedov, I.Qarshiboyevalar tadqiqot olib horishgan. Alohida viloyat va kichik hududlar xo'jaligi F.Muqminov, Z.Tog'ayev, J.Musayev, K.Gadoyev va boshqa mutaxassislar faoliyatida o'z ifodasini topgan. Aholiga xizmat ko'rsatish, tibbiyot va ilmiy tadqiqotlar, turizm geografiyasini respublikamizda ilk bor M.Nazarov, N.Komilova, H.Nazarova, G.Bekbulatova, M.Uzmanovlar tomonlaridan o'rGANILGAN.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning milliy va mintaqaviy markazlari, ilmiy yo'nalish va maktablari shakllanmoqda. Bunday markaz va yo'nalishlar katta ilmiy salohiyatiiga ega bo'lgan Toshkentdan tashqari Namangan, Samarqand, Termiz, Farg'onada va Qarshi shaharlarida ham vujudga kelmoqda.

Ilmiy darajaga ega bo'lgan iqtisodiy geograflar hozirgi vaqtida O'zbekiston Milliy universitetida (A.Soliyev, A.Qayumov, M.Nazarov, N.Komilova, H.Nazarova, S.L.Yanchuk, Z.Tojiyeva, O.Yakubov), Toshkent Davlat pedagogika universitetida (Z.Rayimjonov, B.Mirtursunov), Toshkent Iqtisodiyot universitetida (T.Jumayev), Toshkent moliya institutida (X.Salimov, Sh.Azimov, Z.Abdalova), Samarqand Davlat universitetida (N.Mamatqulov, M.Qodirov, X.Xaliyeva, M.Uzmanov), Nukus Davlat universitetida (G.Xodjayeva, G.Bekbulatova), Nukus pedagogika institutida (E.Umarov), Qarshi Davlat universitetida (L.Erdonov), Urgench Davlat universitetida (I.Atajonov), Namangan davlat universitetida (T.Mallaboyev, S.Haydarov, Sh.Jumaxonov, H.Mirzaaxmedov, M.Mahmudova), Farg'ona Davlat universitetida (Yu.Axmadaliyev), Andijon Davlat universitetida (M.Mamajonov, R.Qodirov), Guliston Davlat universitetida (M.Nurnazarov, L.Qarshiboyeva, K.Xidiraliyev), Jizzax pedagogika institutida (K.Qurbanov), Andijon muhandislik-iqtisodiyot institutida (A.Hotamov) xizmat qilishmoqda.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning istiqboldagi rivojlanishi va vazifalari eng avvalo O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariiga o'tish davridagi dolzarb muammolaridan kelib chiqadi. Masalan, yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mamlakatni iqtisodiy rayonlashtirish va uning mintaqavisi

siyosatini ilmiy jihatdan yaratish, sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasini mulkchilikning turli shakllarini hisobga olgan holda tadqiq etish, qo'shma va kichik korxonalar, erkin iqtisodiy zonalar, investitsiya makoni, qurilish, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasini o'rganish, respublika resursuv, mineral xom ashyo va boshqa tabiiy resurslarga iqtisodiy jihatdan baho berish muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Shuningdek, geograflar mamlakatimizning g'alla (don), neft va yo'l mustaqilligiga erishuvidagi muammolarning yechimiga, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini o'rganishga ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar doirasida aholi va mehnat resurslarning hududiy tarkibi, turli yiriklikdagi shahar aglomeratsiyalari, urbanizatsiya jarayonini o'rganish, savdo, marketing va hududiy boshqaruv (menejment), aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi bo'yicha tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tabiatdan foydalananish va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi ekologik masalalar, aholi migratsiyasi va boshqa mavzular tadqiq etilishi kerak. Ayni paytda, qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bu joylarda ijtimoiy infrastruktura tizimini shakllantirishga oid tadqiqotlarning ahamiyati ham beqiyos.

Fanimizning jahon andozlariga mos ravishda rivojlanishi va uning to'laqonli ijtimoiy geografiya maqomida shakllanishida sotsial muammolarning hududiy jihatlarini o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi. Aholining yashash sharoiti va tarzi, urf-odatlari, hulq-atvor geografiysi, fan, rekreatsiya, turizm, din, tibbiyot va jinoyatchilik geografiysi shular jumlasidandir. Bunday tadqiqotlar sotsiologiya, psixologiya, tarix, etnologiya, huquqshunoslik va demografiya fanlari qirrasida bajariladi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi, uning jahon hamjamiyatida suveren davlat sifatida o'ziga munosib o'rinn olishi siyosiy geografiyaga oid mavzularni ham kun tartibiga qo'ydi. Xususan, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan munosabati, uning turli xil davlatlararo mintaqaviy tashkilotlardagi ishtiroki, ma'muriy-hududiy tuzilmasi, milliy poytaxti-Toshkentning siyosiy funksiyalari va diplomatik aloqalari, harbiy va elektoral geografiya kabi muammolar keng o'rganilmog'i zarur. Shu bilan birga, fan tarixi va tarixiy geografiya, xalqaro turizmga doir tadqiqotlarni ham olib borish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qisqacha ko'rib chiqilgan fan tarixidan mal'um bo'lishicha, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya respublikamizda katta yo'lni bosib o'tgan, biroq uning nazariy va amaliy salohiyati, keng qamrovda rivojlanishi aynan mustaqillik davriga to'g'ri keladi. Chunonchi bu davrda:

1. Iqtisodiy geografiya fanining amaliy (konstruktiv) ahamiyati kuchaymoqda. Jumladan, bu fan vakillari mustaqil mamlakatimizning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda, demografik jarayonlarni boshqarish va bashorat qilishda, milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni hududiy tashkil qilish masalalarida salmoqli ishlarni bajarishmoqda.
2. Iqtisodiy geografiyaning frontal rivojlanishi uning integratsion salohiyatidan to'lar oqibatiga keng imkoniyatlar yaratdi, fanning yanada sotsiallashuvni, siyosiy, ekologik, tarixiy yo'nalishlarga katta ahamiyat berildi. Bularning natijasida iqtisodiy va sotsial geografiya ijtimoiy geografiyaga aylandi.
3. Ijtimoiy geografik tadqiqotlarni zamon talabi, bozor munosabatlariiga mos holda olib borishda O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Naimangan, Samarqand, Termiz Davlat universitetlari olimlari O'zbekiston Geografiya jamiyatasi, Ijtimoiy fikr markazi xodimlarining xizmatlari katta va salmoqlidir.
4. Shu bilan birga, mustaqillik va bozor munosabatlariiga o'tish ijtimoiy geografiyaning nazariy (fundamental) muammolarini yanada chiqarishni va aniqroq o'rghanishni taqozo etmoqda. Xususan, bu davrda ishlab chiqarishni joylashtirishni tartibga solish va boshqarish, ijtimoiy va demografik jarayonlar, turli mintaqalarda mehnat bozorini shakllantirish va faollashtirish, geokologik muammolar yechimini ilmiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyatga ega.
5. Tabiiy resurslardan mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida oqilona foydalanish, ekologik muammolarga bag'ishlangan qator ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi, ijtimoiy geografiyaning turli muammolariga doir davlat, ya'ni o'zbek tilida monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar, ma'ruza matnlari nashr ettirildi.
6. Ijtimoiy geografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi kuchaydi, ushbu fan turkumiga kiruvchi sohalar o'quv yurtlarining qator fakultetlariда joriy etildi, umumta'lif maktablarda iqtisodiy bilim asoslарini o'rGANISH yo'lda qo'yildi.
7. O'zbekiston olimlari va ilmiy maktablarining O'rta Osiyo hamda Qozog'iston respublikalari MDH davlatlari doirasidagi mavqe-obro'yi, ular bilan amaliy aloqalar kuchaymoqda. Ushbu yo'nalishda yetishib chiqqan milliy kadrlar respublikamizning turli nufuzli tashkilotlarda faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Bu esa ijtimoiy (iqtisodiy va ijtimoiy)

geografiyaning yuksak salohiyati, integratsion imkoniyatlaridan darak beradi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fan yo'nalishi sisatida qachon vujudga kelgan va u nimalar bilan bog'liq bo`lgan?
  2. Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining qaysi yo'nalishlari yaxshiroq rivojlangan?
  3. Iqtisodiy geograflar geografiyasi haqida nimalarni bilasiz?
  4. Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishida qanday muammolar mavjud?
  5. Siz iqtisodiy va ijtimoiy geografining qaysi sohasiga qiziqasiz?
- Asoslab bering.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T., 1997.
2. Abdullayev O. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga kirish. O'quv dasturi.- Namangan, 1993.
3. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya.-T., 2004.
4. Алаев Е.Б. Социально-экономическая география: понятийно-терминологический словарь.- М., 1983
5. Asanov G R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati.-T., 1990.
6. Баранский Н.Н. Научное принципы географии.Избр.Труды. -М., 1980.
7. Джонсон Р.Дж. География и география.-М., 1987.
8. Жекулин В.С. Введение в географию. -Л., 1989.
9. Саушкин Ю.Г. Введение в экономическую географию.-М., 1970.
10. Саушкин Ю.Г. Экономическая география: история, методы, теория, практика.-М., 1973.
11. Семевский Б.Н. Введение в экономическую географию .-Л., 1976.
12. Soliyev A., Mahamadliyev R. Iqtisodiy geografiya asoslari.-T., 1996.
13. Soliyev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari.-T., 1995.
14. Soliyev A., Tojiyeva Z. Iqtisodiy va sotsial geografiya asoslari.-T., 2001.
15. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari-T., 1999.
16. Харвей Д.Научное объяснение в географии. -М., 1974.
17. Чистобаев А.И., Шаригин М.Д. Экономическая и социальная география. Новый этап.-Л., 1990.
18. Экономическая и социальная география. Вопросы географии. Сб. 115. -М.. 1980.

## Mundarija

So'z boshi.....	3
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ob'ekti, predmeti va asosiy tamoyillari.....	5
Iqtisodiy geografiya fanining tarixiy shakllanishi va uning ichki tuzilishi.....	15
Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari.....	23
Hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlashtirish.....	34
Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari.....	42
Tarmoqlar va tarmoqlararo majmualar geografiyası.....	54
Hududiy ishlab chiqarish majmualari.....	60
Geografiya fanida tabiat va jamiyat munosabatlari.....	71
Tabiiy resurslar geografiyası.....	78
Dunyo aholisining geografiyasi.....	85
Siyosiy geografiya va jahon siyosiy xarita.....	95
O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy geografik o'rni.....	105
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning O'zbekistonda rivojlanishi.....	112
Adabiyotlar.....	121

Босишига ўруслат этииди 16.08.2005. Ҳажми 7.75 босма табоқ.  
Бичими 60x84 1:16 Адади 200 иусла. Оффсет қозози Буюртма 363  
М.Улугбек номидаги Узбекистон Миллий Университети  
босимвонисила чоп этииди.

